TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO’JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI MILLIY TADQIQOTLAR UNIVERSITETI

S.T.Vafoyev, O.S.Vafoyeva, R.S.Vafoyev, O‘.S.Vafoyev

MATEMATIKA

BUXORO-2023

UO‘K:51(077)
V-29

Ushbu o‘quv qo‘llanma, TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti 2023 yil - yanvarda bo’lib o’tgan ilmiy Kengashning -sonli qarorlari bilan chop etishga tavsiya etilgan.

O‘quv qo‘llanmada matematika fanining barcha bo‘lim va boblarini qamrab olgan mavzularning nazariy asoslari, ulardagi ayrim misol va masalalarni yechish uslubiyatlari ko‘rsatilgan, shuningdek, abiturientlar o‘z bilimlarini sinab ko‘rishlari uchun test savollari, hamda berilgan variantlar bo‘yicha test savollarining javoblari ilovada berilgan.O‘quv qo‘llanma matematika fanidan tayyorlovchi kurslarda dars beradigan o‘qituvchilar hamda, elementar matematika fanini mustaqil o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan. O‘quv qo‘llanmadan umumiy o‘rta maktablarida matematika fanini chuqurlashti-rilib o‘rganiladigan sinflar, akademik litseylarining o‘quvchilari va o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

В учебном пособии теоретические основы тем, охватывающих все разделы и главы математики для поступающих в семейное образовательное учреждение, в них показаны некоторые примеры и способы решения задач, а также могут проверить свои знания. их результаты, а также ответы на вопросы теста по заданным вариантам приведены в приложении. Учебное пособие предназначено для учителей, преподающих курсы математики семейных образовательных учреждений, а также для самостоятельных изучающих начальную математику. Учебник может быть использован учащимися и учителями классов высшей математики общеобразовательных школ, академических лицеев. Учебник может быть использован учащимися и учителями классов высшей математики общеобразовательных школ, академических лицеев.

In the textbook, the theoretical foundations of topics covering all sections and chapters of mathematics for applicants to a family educational institution, they show some examples and ways to solve problems, and applicants can also test their knowledge. their results, as well as answers to the test questions for the given options, are given in the appendix. The textbook is intended for teachers teaching mathematics courses for applicants of family educational institutions, as well as for independent students of elementary mathematics. The textbook can be used by students and teachers of higher mathematics classes of secondary schools, academic lyceums. The textbook is intended for teachers teaching mathematics courses for applicants of family educational institutions, as well as for independent students of elementary mathematics. The textbook can be used by students and teachers of higher mathematics classes of secondary schools, academic lyceums.

O’quv qo’llanma O’z.R.FA ning akademigi t.f.d., professor M.M.Mirsaidov tahriri ostida tayyorlandi

T a q r i z ch i l a r:

Qutlimurotov A.R. Chirchiq davlat pedagogika universitetining fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

Yuldashov A.A. TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutining “Kompyuter grafikasi va raqamli texnologiyalar” kafedrasi katta o’qituvchisi.

KIRISH

Ma’lumki, oily o‘quv yurtlarning deyarli barchasida abiturientlar matematika fanidan test imtihonlari topshiradilar. Matematika fanining qoida va teoremalarini puxta bilish, tanlangan soha bo‘yicha yetuk mutaxasiss bo‘lib chiqishni kafolatlaydi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada, o‘rta maktab va akademik litseylarida o‘qitiladigan matematika fanidagi barcha bo‘lim va boblarining mavzularni qamrab olgan bo‘lib, unda oily o‘quv yurtlariga kiruvchilar uchun matematika fanining nazariy asoslari, ularda uchraydigan misol va masalalarni yechish uslubiyati keltirilgan.

Matematik masalalarni yechishda, puxta nazariy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi. Masalani yechishda uning mazmunini (yechish uchun berilgan qiymatlar asosida aniqlanishi kerak bo‘lgan qiymatni topish uchun zarur bo‘lgan qoida, teorema va formulalarni asosli qo‘llagan holda) yaxshilab o‘rganib chiqish, lozim bo‘lsa chizmalarini chizish talab qilinadi.

O‘quv qo‘llanmada, elementar matematika fanining barcha bo‘limlari (arifmetika, algebra, geometriya, trigonometriya, analitik geometriya, matematik analiz asoslari) bo‘yicha nazariy bilimlar, ularga doir misol va masalalar, hamda 1996-2019 yillarda tushgan test savollarida uchraydigan masalalar (jami 300 ta misol va masalalar o‘ldiylikdan murakkablikka qarab) yechilish uslubiyati bilan berilgan.

Abiturientlar o‘z bilimlarini sinab ko‘rishlari uchun, o‘quv qo‘llanmada test savollaridan 14 ta variantda berilgan (test savollarining javoblari ilovada keltirilgan). Testda berilgan misol va masalalarni yechishda, abiturientlar, elementar matematikaning qoida, teorema va formulalarni yaxshi bilishlari bilan birga, ushbu o‘quv qo‘llanmada yechib ko‘rsatilgan misol va masalalarni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak.

O‘quv qo‘llanma, bosh muallifning 45 yillik abiturientlarni matematika fanidan test-ga tayyorlashda to‘plagan tajribalari asosida tuzildi.

O‘quv qo‘llanma yuzasidan bildirgan fikr va takliflarni mualliflar mamnuniyat bilan qabul qiladi va oldindan o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

Mualliflar

1. ARIFMETIKA

1.1. Ratsional sonlar, sonlar o‘qi, musbat va manfiy sonlar.

$(-\infty;\infty)$ oraliqdagi barcha (musbat va manfiy butun, kasr va iratsional) sonlarga ratsional sonlar deb ataladi.



1.1-rasm.

Sonlar o‘qi 1.1-rasmda ko‘rsatilgan.

1.2. Natural sonlar. Toq va juft sonlar. Natural sonlar deb, 0 dan boshqa barcha musbat butun yoki sanoqda ishlatiladigan sonlarga aytiladi.

Natural sonlar ketma-ketligi 1,2,3,4,5, ...

Toq sonlar deb, 2 ga bo`linmaydigan natural sonlarga aytiladi.

Toq sonlar 1,3,5,7,9, ...

Juft sonlar deb, 2 ga bo`linadigan natural sonlarga aytiladi.

Juft sonlar 2,4,6,8,10,12 ...

1.3. Tub (o‘ldiy) sonlar. Tub sonlar deb, faqat 1 ga va o`ziga bo`linadigan natural sonlarga aytiladi. 1 soni tub son emas, eng kichik tub soni 2.

Tub sonlar ketma-ketligi 2,3,5,7,11,13,17,19, ...

M: 20 dan 99 gacha bo‘lgan natural sonlar ichida nechta tub son bor.

23, 29, 31, 37, 41, 43, 47, 53, 59, 61, 67, 71, 73, 79, 83, 89, 97. 17 ta.

**O`zaro tub sonlar deb,** umumiy bo`luvchisi bo`lmagan natural songa aytiladi.

M: $(2;3), (5;6), (5;18;29)$ ...

1.4. Murakkab sonlar. Murakkab son deb, 1 ga, o`ziga va boshqa sonlarga bo`li-nadigan musbat butun sonlarga aytiladi. ***M***: 4,6,8,9,10,12,14,15,16 ...

1.5. Berilgan sonlarning eng katta umumiy bo‘luvchisi (EKUB) ni topish.

Berilgan sonlarning EKUB ni topish uchun ularni asosi tub sondan, darajasi turlicha bo‘lgan ko‘paytuvchlarga ajratiladi va ularda qatnashgan eng kichik ko‘rsatkich daraja-laridan bittadan olib, ko‘paytiriladi. **1. *M***: 48 va 72 natural sonlarning EKUB ni toping. Bunda $48 = 6\cdot 8 = 2\cdot 3\cdot 2^3 = 2^4\cdot 3$ va $72 = 8\cdot 9 = 2^3\cdot 3^2$. Demak bu sonlarning EKUBi $2^3\cdot 3 = 24$ bo‘lar ekan. **2. *M***: 256, 344 va 120 natural sonlarning EKUB ni toping. Bunda $120 = 2\cdot 2\cdot 3\cdot 2\cdot 5 = 2^3\cdot 3\cdot 5$, $256 = 2^8$ va $344 = 2^3\cdot 43$ bo‘ladi. Bularni ichida eng kichik darajalisi $2^3 = 8$. Demak; 256, 344 va 120 natural sonlarnng EKUBi 8 ekan.

1.6. Berilgan sonlarning eng kichik umumiy karralisi (EKUK) ni topish.

Berilgan sonlarning EKUK ni topish uchun ularni asosi tub sondan, darajasi turlicha bo‘lgan ko‘paytuvchlarga ajratiladi va hosil bo‘lgan bir xil kopaytuvchilarni eng kqtta ko‘rsatkich darajalaridan bittadan olib, ko‘paytiriladi. **1. *M***: 36 va 54 natural sonlarning EKUK ni toping. Bunda $36 = 6\cdot 6 = 2^2\cdot 3^2$ va $54 = 3^3\cdot 2$. Demak bu sonlarning EKUKi $3^3\cdot 2^2 = 27\cdot 4 = 108$ bo‘lar ekan. **2. *M***: 54, 63 va 72 natural sonlarning EKUB ni toping. Bunda $54 = 3^3\cdot 2$, $63 = 3^2\cdot 7$ va $72 = 2^3\cdot 3^2$ bo‘ladi. Demak bu sonlarning EKUKi $2^3\cdot 3^3\cdot 7 = 1512$ bo‘lar ekan.

Berilgan n va m natural sonlarning EKUBi va EKUKi ning ko‘paytmasi shu sonlar ko‘paytmasiga teng bo‘ladi. $n\cdot m = \text{EKUB}\cdot\text{EKUK}$ (1.1)

Masalan: 28 va 21 sonlarning EKUB $(28;21)$i $= 7$,

EKUK $(28;21)$i $= 3\cdot 4\cdot 7 = 84$ ga teng. Demak, $7\cdot 84 = 588$.

1.7. Natural sonning natural bo`luvchi sonlarini aniqlash. Agar A natural soni berilgan bo'lsa, uni asosi tub sonlardan iborat bo'lgan daraja ko'rinishdagi ko'paytma sonlarga ajratamiz: $A = a^n \cdot b^m \cdot c^k$. Berilgan sonning natural bo'luvchilar soni quyida-gicha aniqlanadi:

$$NBS = (n+1)(m+1)(k+1) \qquad (1.2)$$

1. $\boldsymbol{M}$: 192 sonning natural bo'luvchi sonlarini aniqlang. $192 = 3 \cdot 64 = 3 \cdot 2^6$ bunda $NBS = (1+1)(6+1) = 2 \cdot 7 = 14$.

2. $\boldsymbol{M}$: 81000 sonning natural bo'luvchi sonlarini aniqlang. $81000 = 3^4 \cdot 2^3 \cdot 5^3$ bunda $NBS = (4+1)(3+1)(3+1) = 5 \cdot 4 \cdot 4 = 80$.

3. $\boldsymbol{M}$: 11 dan katta bo'lmagan natural sonlar ko'paytmasining natural bo'luvchi sonlarini aniqlang. 11 dan katta bo'lmagan natural sonlarning ko'paytmasini quyidagi ko'rinishda yozamiz: $1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 6 \cdot 7 \cdot 8 \cdot 9 \cdot 10 \cdot 11$.

Buni $2 \cdot 3 \cdot 2^2 \cdot 5 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 7 \cdot 2^3 \cdot 3^2 \cdot 2 \cdot 5 \cdot 11$ ko'rinishda yozib,

uni $2^8 \cdot 3^4 \cdot 5^2 \cdot 7 \cdot 11$ ko'rinishga keltiramiz.

Shunda $NBS = (8+1)(4+1)(2+1)(1+1)(1+1) = 9 \cdot 5 \cdot 3 \cdot 2 \cdot 2 = 540$.

**1.8. Natural sonning natural bo`luvchi sonlarini yig'indisini aniqlash.** Natural sonning natural bo`luvchi sonlarini yig'indisini aniqlash uchun berilgan sonni asosi tub sonlardan iborat bo'lgan daraja ko'rinishdagi ko'paytma sonlarga ajratamiz:

Berilgan sonning natural bo`luvchi sonlarini yig'indisi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$У_{NBS} = \frac{a^{n+1}-1}{a-1} \cdot \frac{b^{m+1}-1}{b-1} \cdot \frac{c^{k+1}-1}{c-1} \qquad (1.3)$$

$\boldsymbol{M}$: 540 sonning natural bo'luvchi sonlarining yig'indisini aniqlang.

$$540 = 2^2 \cdot 3^3 \cdot 5. \; У_{NBS} = \frac{2^{2+1}-1}{2-1} \cdot \frac{3^{3+1}-1}{3-1} \cdot \frac{5^{1+1}-1}{5-1} = 420.$$

1.9. Irratsional sonlar. Irratsional sonlar deb, cheksiz, davriy bo'lmagan o'nli kasr ko'rinishdagi sonlarga aytiladi. $\boldsymbol{M}$: $\sqrt{\mathbf{2}}, \sqrt{\mathbf{7}}$, p $= 3{,}14$ ..., $e = 2{,}71$ ... va hokozo.

1.10. Kasr sonlar. Kasr sonlar deb, surat va maxrajga ega bo'lgan sonlarga aytiladi.

$$\frac{a}{b} = \frac{a-surat}{b-maxraj} \quad \boldsymbol{M}: \frac{2}{3}; \frac{1}{5}; \frac{5}{3}; \frac{17}{25}; \frac{27}{19} \text{ va hokozo.}$$

1.11. O'ldiy rasrlar. O'ldiy kasr deb, surati maxrajidan kichik bo'lgan kasrga aytiladi. $\boldsymbol{M}$: $\frac{1}{3}; \frac{2}{5}; \frac{5}{9}; \frac{17}{25}; \frac{27}{57}$ va hokozo.

1.12. Noto'g'ri kasrlar. Noto'g'ri kasr deb, surati maxrajidan katta bo'lgan kasrga aytiladi. $\boldsymbol{M}$: $\frac{8}{3}; \frac{17}{5}; \frac{13}{9}; \frac{27}{25}; \frac{87}{53}$ va hokozo.

1.13. Aralash kasrlar. Aralash kasr deb, butun va kasr sonlardan tashkil topgan songa aytiladi. $\boldsymbol{M}$: $1\frac{3}{5}$; $2\frac{3}{5}$; $3\frac{3}{7}$; $4\frac{4}{13}$ va hokazo.

Aralash kasirdan noto'g'i kasrga quyidagi formula orqali o'tiladi:

$$a\frac{c}{b} = a + \frac{c}{b} = \frac{ab+c}{b} \quad \boldsymbol{M}: 3\frac{3}{5} = \frac{3 \cdot 5+3}{5} = \frac{18}{5}.$$

1.14. O‘nli kasrlar. O`nli kasr deb, kasr qismi o‘nliklar bilan ajratilgan kasrga aytiladi. $\boldsymbol{M}$: 2,3; 3,14; 12,678 va hokazo.

1.15. O‘nli davriy kasrlar. O‘nli davriy kasr deb, kasr qismi davriy ravishda qaytariladigan kasrga aytiladi.

$\boldsymbol{M}$: $2{,}333\ldots = 2,(3); 1{,}131313\ldots = 1,(13);\ 3{,}4165165\ldots = 3{,}4(165).$

O‘nli davriy kasrni aralash kasrga aylantirishga misollar: Bunda davriy qiamdagi o‘nliklardan bitta kam olinadi (buni sababi, qo‘llanmaning 2.3 qismidagi 3-misolda tushuntirilgan). Masalan: $0,(3) = \frac{3}{9};\ 2,(14) = 2\frac{14}{99}$.

$\mathbf{1}.\boldsymbol{M}$: $2,(3) = 2\frac{3}{9}$; $\mathbf{2}.\boldsymbol{M}$: $3,(13) = 3\frac{13}{99}$; $\mathbf{3}.\boldsymbol{M}$: $5{,}4(13) = 5\frac{413-4}{990} = 5\frac{409}{990}$

1.16. Sonlarni qo‘shish va ayirish. Bir xil ishorali sonlar qo‘shilganda natija umumiy ishorali bo‘ladi. $\mathbf{1}.\boldsymbol{M}$: $3+5+8=16$: $\mathbf{2}.\boldsymbol{M}$: $-2-4-7=-13$.

Ikkita turli ishorali sonlar qo‘shilganda ularning kattasidan kichigi ayirilib kattasini ishorasi qo‘yiladi. $\mathbf{1}.\boldsymbol{M}$: $-8+5=-3$; $\mathbf{2}.\boldsymbol{M}$: $13-7=6$..

1.17. Sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish. Ikkita bir xil ishorali sonlar ko‘paytirilganda yoki bo`linganda natija musbat ishorali bo‘ladi.

$\boldsymbol{M}$: $-\cdot- = +,\ \frac{-}{-} = +,\ +\cdot+ = +,\ \frac{+}{+} = +$

yoki $-3\cdot(-5) = 15,\ \frac{-12}{-4} = 3,\ 4\cdot 7 = 28,\ \frac{27}{3} = 9.$

Ikkita turli ishorali sonlar ko‘paytiril-ganda yoki bo`linganda natija manfiy ishorali bo‘ladi. $\boldsymbol{M}$: $-\cdot+ = -,\ \frac{+}{-} = -,\ +\cdot- = -,\ \frac{-}{+} = -$

yoki $-4\cdot 6 = 24,\ \frac{32}{-4} = -8,\ 7\cdot(-3) = -21,\ \frac{-42}{6} = -7.$

1.18. Bir nechta sonlar ko‘paytmasining yig‘indisi va ayirmasida qatnashgan bir xil sonlarni qavusdan chiqarish, qavuslarni ochish. Bir nechta sonlar ko‘paytmasining yig‘indisi va ayirmasida qatnashgan bir xil sonlarni qavusdan chiqarish:

$\boldsymbol{M}$: $ab + ca - ad = a(b + c - d)$ yoki

$$14\cdot 7 - 8\cdot 14 + 14\cdot 3 = 14(7 - 8 + 3) = 28.$$

Qavuslarni ochish. $\boldsymbol{M}$: $(n+m)(a-b) = an - bn + am - bm.$

1.19. Qarama-qarshi va teskari sonlar, o‘zaro teskari sonlarning ko‘paytmasi.

<u>Qarama-qarshi sonlar deb</u>, berilgan sonning teskari ishorali qiymatiga aytiladi.

$\boldsymbol{M}$: 5 ga q – q → –5 , $-\frac{1}{4}$ ga q – q → $\frac{1}{4}$, va hokazo.

O‘zaro qarama-qarshi sonlarning yig‘indisi hamma vaqt nolga teng bo‘ladi.

$\mathbf{1}.\boldsymbol{M}$: $-4+4=0$; $\mathbf{2}.\boldsymbol{M}$: $\frac{3}{4} - \frac{3}{4} = 0.$

<u>Berilgan sonning teskarisi deb</u>, shu soning teskari qiymatiga aytiladi. Bunda ishora o‘zgarmaydi. $\boldsymbol{M}$: $-\frac{1}{4}$ tes – 4, 5 tes $\frac{1}{5}$ va hokazo. O‘zaro teskari sonlarning ko‘paytmasi hamma vaqt birga teng bo‘ladi.

$\boldsymbol{M}$: $-5\cdot\left(-\frac{1}{5}\right) = 1,\ \frac{2}{3}\cdot\frac{3}{2} = 1$ va hokazo.

1.20. Kasrlarni qo‘shish va ayrish. Kasrlarni qo‘shish va ayrish uchun, agar ular qisqarsa qisqartirilib, umumiy maxrajga keltiriladi yoki karralisi aniqlanadi.

Umumiy maxraj deb, berilgan sonlarning eng kichik bo‘linuvchisiga aytiladi.

$\boldsymbol{M}$: $\frac{a}{b}+\frac{c}{d}-\frac{k}{f}=\frac{adf+cbf-bdk}{bdf}$ yoki $\frac{2}{3}+\frac{7}{6}-\frac{5}{18}=\frac{2\cdot6+3\cdot7-5}{18}=\frac{28}{18}=\frac{14}{9}=1\frac{5}{9}$

.O‘nli kasrlarni qo‘shish va ayrishga doir misollar:

1) $13,176+7,2673=20,4433$. 2) $11,21-9,968=1,242$.

1.21. Kasrlarni ko‘paytirish va bo‘lish. Kasrni kasrga ko‘paytirish uchun, agar ular o‘zaro qisqarsa qisqartirilib, surat bilan surat ko`payib suratga, maxraj bilan maxraj ko`payib maxrajga yoziladi. $\frac{a}{b}\cdot\frac{c}{d}=\frac{a\cdot c}{b\cdot d}$ **1.** $\boldsymbol{M}$: $\frac{8}{9}\cdot\frac{81}{64}=\frac{9}{8}=1\frac{1}{8}$. **2.** $\boldsymbol{M}$: $\frac{1}{3}\cdot\frac{7}{49}=\frac{1}{21}$

Butun son kasr son yoki kasr songa butun son ko‘paytirilsa, butun son kasrning suratiga ko‘paytirilib, kasrning maxraji o‘z holicha qoldiriladi:

$a\cdot\frac{b}{c}=\frac{a\cdot b}{c}$ yoki $\frac{b}{c}\cdot a=\frac{a\cdot b}{c}$

$\boldsymbol{M}$: $3\cdot\frac{2}{5}=\frac{3\cdot2}{5}=\frac{6}{5}=1\frac{1}{5}=1,2$.

Kasrni kasrga bo`lishning ikkita usuli mavjud. 1) Birinchi kasrga ikkinchi kasrning teskari qiymati ko`paytiriladi $\frac{a}{b}:\frac{c}{d}=\frac{a}{b}\cdot\frac{d}{c}=\frac{a\cdot d}{b\cdot c}$ $\boldsymbol{M}$: $\frac{5}{7}:\frac{4}{3}=\frac{5}{7}\cdot\frac{3}{4}=\frac{15}{28}$

Butun son kasr songa bo‘linsa, butun songa berilgan kasrning teskari qiymati ko‘pay-tiriladi. $a:\frac{b}{c}=a\cdot\frac{c}{b}=\frac{a\cdot c}{b}$ $\boldsymbol{M}$: $8:\frac{2}{3}=8\cdot\frac{3}{2}=12$.

Kasr son butun songa bo‘linsa, kasr songa butun sonning teskari qiymati ko‘pay-tiriladi. $\frac{a}{b}:c=\frac{a}{b}\cdot\frac{1}{c}=\frac{a}{b\cdot c}$ $\boldsymbol{M}$: $\frac{3}{4}:5=\frac{3}{4}\cdot\frac{1}{5}=\frac{3}{20}$.

2) Berilgan kasr ustma-ust qilib yoziladi va kasrning chekki qismlari ko‘paytirilib, suratga, o‘rta qismlari ko‘paytirilib, maxrajga yoziladi.

$\frac{a}{b}:\frac{c}{d}=\frac{\frac{a}{b}}{\frac{c}{d}}=\frac{a\cdot d}{b\cdot c}$ $\boldsymbol{M}$: $\frac{5}{6}:\frac{4}{7}=\frac{\frac{5}{6}}{\frac{4}{7}}=\frac{5\cdot7}{6\cdot4}=\frac{35}{24}=1\frac{11}{24}$.

O‘nli kasrlarni ko‘paytirsh va bo‘lishga doir misollar:

1) $7,28\cdot3,107=22,61896\approx22,62$. 2) $17,560:12,829=1,36877$.

3) $13,17\cdot0,192=2,52864\approx2,53$. 4) $12,75:0,162=78,70$.

5) $121,13\cdot1,78=215,6$. 6) $0,672:0,021=32$.

Arifmetikada, oldin ko‘paytirish yoki bo‘lish undan so‘ng, qo‘shish va ayrish amallari bajariladi. Qavs ichida berilgan ifodalar birinchi navbatda bajariladi.

1.22. Masshtab haqida tushuncha. Masshtab deb, Jismning kattalshtirilgan yoki kichiklashtirilgan shakliga aytiladi. Undan asosan detallar chizmasini chizishda va xari-talarni tuzishda foydalaniladi. Jismning chizmadagi o‘lchami (ℓ_{ch}- chizmadagi uzunligi) ni uning haqiqiy o‘lchami (ℓ_h- haqiqiy uzunligi) ga bo‘lgan nisbati masshtab deb yuritiladi.

$$M=\frac{\ell_{ch}}{\ell_h} \qquad (1.4)$$

Agar chizmadagi o‘lcham haqiqiy o‘lcham bilan teng bo‘lsa: M 1:1.

Agar chizmadagi o‘lcham haqiqiy o‘lchamdan ikki marta kichik bo‘lsa: M 1:2.

Agar chizmadagi o‘lcham haqiqiy o‘lchamdan besh marta kichik bo‘lsa:

M 1:5 va hokazo.

1. $\boldsymbol{M}$: Ikki shahar orasidagi masofa 400 *km*. Shu masofa M 1:2500000 masshtabli xaritada necha *sm* bo‘ladi.

<u>***Yechish:***</u> $\frac{1}{2500000}=\frac{x}{400}$ bundan $x=\frac{400}{2500000}=\frac{4}{25000}\ km=\frac{4}{25000}\cdot 10^5=8\ sm.$

2. $\boldsymbol{M}$: M 1:3000000 masshtabli xaritadagi 12 *sm* li masofa necha *km* bo‘ladi.

<u>***Yechish:***</u> $\frac{1}{3000000}=\frac{12}{x}$ bundan $x=12\cdot 3000000=36\cdot 10^6\ sm,$ yoki

$$x=36\cdot 10^6\cdot 10^{-5}=360\ km.$$

3. $\boldsymbol{M}$: M 1:2 masshtabda chizilgan detalning chizmadagi uzunligi 120 *mm* bo‘lsa, bu detall M 1:5 masshtabli chizmada chizisa uning chizmadagi uzunligi qancha *mm* bo‘ladi.

$\frac{2}{5}=\frac{x}{120}$ bundan $x=\frac{2\cdot 120}{5}=\frac{240}{5}=48\ mm.$

Shunday detallar borki uning o‘lchami juda kichik bo‘ladi, bunday detallaning o‘l-chamlari chizmada kattalashtirilib chiziladi. Bularda masshtab M 2:1; M 5:1; M 10:1.

1.23. Natural sonlarni ko‘paytirishdan hosil bo‘lgan nollar sonini aniqlash.

Natural sonlarni ko‘paytirishdan hosil bo‘lgan nollar sonini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\left|\frac{n}{5}\right|+\left|\frac{n}{25}\right|+\left|\frac{n}{125}\right|+\cdots \qquad (1.5)$$

Bu yerda $\left|\frac{n}{5}\right|$ − kasrning butun qismi olinadi.

$\boldsymbol{M}$: 1 dan 37 gacha natural sonlarni ko‘paytirishdan hosil bo‘lgan nollar sonni toping.

$$\left|\frac{37}{5}\right|+\left|\frac{37}{25}\right|+\left|\frac{37}{125}\right|=7+1+0=8.$$

1.24. Yuqori darajali soning oxirgi raqamini topish.

Masalan $2^n=\cdots x$

$2^1=2_1$
$2^2=4_2$
$2^3=8_3$
$\underline{2^4=16_0}$
$2^5=32$
$2^6=64$
$2^7=128$
$\underline{2^8=256}$

Bundan ko‘rinadiki, oxirgi raqam turlicha (to‘rt xil ko‘rinishda) bo‘lib, to‘rtinchi darajadan keyin oxirgi raqamlar takrorlanar ekan. Shuni inobat-ga olib, darajadagi *n*, 4 ga bo‘linadi, agar bir qoldiq qolsa oxirgi raqam 2 ga, ikki qoldiq qolsa oxirgi raqam 4 ga, uch qoldiq qolsa oxirgi raqam 8 ga, qoldiq qolmasa 6 ga teng bo‘ladi (qoldiqlar pastki indeksda berilgan). Xuddi shu usulda 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 larning yuqori darajalarini oxirgi raqamlari aniqlanadi. Beshning har qanday darajasining oxirgi raqami 5, oltining har qanday darajasining oxirgi raqami 6 ga teng bo‘ladi.

$3^1=3_1$	$4^1=4_1$	$7^1=7_1$	$8=8_1$	$9^1=9_1$
$3^2=9_2$	$4^2=\ldots 6_2$	$7^2=\ldots 9_2$	$8^2=\ldots 4_2$	$9^2=\ldots 1_2$
$3^3=\ldots 7_3$	$4^3=\ldots 4_3$	$7^3=\ldots 3_3$	$8^3=\ldots 2_3$	$9^3=\ldots 9_3$
$3^4=\ldots 1_0$	$4^4=\ldots 6_0$	$7^4=\ldots 1_0$	$8^4=\ldots 6_0$	$9^4=\ldots 1_0$

1. $\boldsymbol{M}$: 2^{1999}ni oxirgi raqamini toping. 1999 ni 4 ga bo‘lganda 3 qoldiq qoladi, demak berilgan sonning oxirgi raqami 8 ekan. **2.** $\boldsymbol{M}$: $7^{171}-3^{286}$ ayirmaning oxirgi raqamini toping. 7 ning darajasidagi 171 ni 4 ga bo‘lganda 3 qoldiq qoladi, demak berilgan sonning oxirgi raqami 3 ekan. 3 ning darajasidagi 286 ni 4 ga bo‘lganda 2 qoldiq qoladi, demak berilgan sonning oxirgi raqami 9 ekan.

Shunda $7^{171} - 3^{286} = \cdots 3 - \cdots 9 = \cdots 4$.

1.25. Bir no’malumli tenglama. Bir nomalumli birinchi darajali tenglama quyidagi ko‘rinishga ega: $ax + b = 0$, bu yerda x - no’malum son; a - no’malum son oldidagi koeffitsient; b - ozo‘l had yoki aniq son.

Tenglamani yechishda ikkita maqsad qo‘yiladi:

1) Amaldagi no’malumni topish.

2) Nazariy, ya’ni chiziqlarni kesishish nuqtasini topish.

Bir nomalumli tenglamalarni yechish uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Agar berilgan tenglama standart shaklida bo‘lmasa uni standart shakliga keltiriladi. Ya’ni aralash va o‘nli kasrlar o‘ldiy yoki noto‘g‘ri ko‘rinishga keltirilib (agar qovis-lar bo‘lsa, ular ochiladi), umumiy maxraj beriladi, tenglikda umumiy maxraj tashlab yuboriladi.

2. Yuqoridagi amal bajarilgandan so‘ng, nomalm sonlar o‘z koeffitsientlari bilan birgalikda tenglikning bir tomoniga, aniq sonlar esa tenglikning ikkinchi tomoniga o‘tkazilib, jamlanadi. Ifodalar tenlikning bir tomonidan ikkinchi tomoniga o‘tganda o‘z isho-ralarini o‘zgartiradilar.

3. Nomalum x ni topish uchun aniq son nomalum son oldidagi koeffitsientga bo‘linadi.

$ax + b = 0$ tenglama bilan berilgan tenglamaning ildizi (to‘g‘ri chiziqning OX o‘qi bilan kesishish nuqtasi), yechimi yoki javobi quyidagicha aniqlanadi $x = -\frac{b}{a}$.

To‘g‘ri chiziq tenglamasi. To‘g‘ri chiziqning (t/ch) tenglamasi (funksiyasi) $y = kx + b$ ko‘rinishda bo‘ladi.

Bu yerda y - funksiya; x – argument; b - to‘g‘ri chiziqni OY o‘qi bilan kesishish nuqtasi; k - to‘g‘ri chi-ziqning burchak koeffitsienti bo‘lib, uni OX o‘qi bilan tashkil qilgan burchagini ko‘rsatadi.

$k = \frac{y}{x} = \frac{b}{x} = tg б$.



1.2-rasm.

To‘go‘ri chiziqning grafigi 1.2-rasmda ko‘rsatilgan.

Bir no’malumli tenglamalarga misollar.

1. ***M***: 5 kg sabzi 1500 so‘m tursa bir kg sabzi qancha turadi. $5x = 1500$ bundan $x == \frac{1500}{5} = 300$ so‘m.

2. ***M***: $7x - 2,(3)x + 2\frac{1}{6} + 2{,}5 = 3(x - 3) + 4$.

Tenglamadagi no’malum x ni toping.

1.Tenglamani standart shaklga keltiramiz:

$7x - \frac{7}{3}x + \frac{13}{6} + \frac{5}{2} = 3x - 9 + 4$. Umumiy maxrajdan so‘ng tenglama quyidagi ko‘-rinishga ega bo‘ladi: $42x - 14x + 13 + 15 = 18x - 30$.

2. No’malum sonlarni chap tomonga, aniq sonlarni o‘ng tomonga o‘tkazib, jamlaymiz:

$42x - 14x - 18x = -30 - 13 - 15$ yoki $10x = -58$

3. No'malum son x ni topamiz: $x = \frac{-58}{10} = \frac{-29}{5} = -0{,}58.$

3. ***M***: Otasi 26 yoshda bolasi 4 yoshda. Nech yildan keyin otasi bolasidan uch marta katta bo'ladi.

<u>Yechish:</u> *Masala shartidan kelib chiqib, quyidagicha tenglama tuzamiz:*

$26 + x = 3(4 + x)$ *bundan* $x = 7.$

4. ***M***: Otasi o'g'lidan 30 yosh katta, bobosi esa otasidan 30 yosh katta. To'rt yil oldin ota, bola va boboning yoshlarining yig'indisi 114 yosh bo'lgan bo'lsa, hozir boboning yoshi nechada.

<u>Yechish:</u> *Masala shartidan kelib chiqib,bolaning yoshini x deb olib, quyidagicha tenlama tuzamiz:* $x + x + 30 + x + 30 + 30 - 3 \cdot 4 = 114$ *bundan* $x = 12$, *boboning hozirgi yoshi* $x + 60 = 12 + 60 = 72.$

1.26. O'rta arifmetik va o'rta geometrik qiymatlar.

<u>Berilgan sonlarning o'rta arifmetigi deb</u>, berilgan sonlarning yig'indisini shu sonlar soniga bo'lgan nisbatiga aytiladi.

$$O'ar = \frac{a_1 + a_2 + \cdots + a_n}{n} \qquad (1.6)$$

1. ***M***: 10, 15 va 17 sonlarning o'rta arifmetigini toping. $O'ar = \frac{10+15+17}{3} = 14.$

2. ***M***: $1{,}2; 2{,}2; x$ va $-1{,}3$ sonlarning o'rta arifmetigi 1,7 bo'lsa, no'malum x ni toping.

$\frac{1{,}2+2{,}2+x-1{,}3}{4} = 1{,}7.$ Bundan $x = 6{,}8 - 2{,}1 = 4{,}7.$

<u>Berilgan sonlarning o'rta geometrigi deb</u>, berilgan sonlarning ko'paytmasidan shu sonlar soni darajasidagi olingan ildiziga aytiladi.

$$O'ge = \sqrt[n]{a_1 \cdot a_2 \cdot a_3 \ldots \cdot a_n} \qquad (1.7)$$

M: 4 va 9 sonlarining o'rta geometrigini toping. $O'ge = \sqrt{4 \cdot 9} = 6.$

a va b sonlarning o'rta arifmetigi va o'rta geometrigi orasida quyidagi munosabat bor:

$$\frac{a+b}{2} \geq \sqrt{ab} \text{ yoki } a + b \geq 2\sqrt{ab}. \qquad (1.8)$$

1.27. Protsent (foiz) haqida tushuncha.

Sonning yuzdan bir ulushiga birlik deb ataladi. $a \cdot \frac{1}{100} \cdot$

Birlikning 100% ga ko'paytmasiga shu sonning protsenti deb ataladi.

$a \cdot \frac{1}{100} \cdot 100\%.$

A sonining a dan b qismi (bo'lagi yoki ulushi) ni B desak ($a > b$), unda $B = A \cdot \frac{b}{a}$ bo'ladi. Misol: 90 ning oltidan besh qismini toping $B = 90 \cdot \frac{5}{6} = 75.$

Foyda-tavarning sotish B_s va olish B_o (tannarxi) baholari farqini sotish bahosiga nisbatining 100% ga ko'paytmasidir.

$$F = \frac{B_s - B_o}{B_s} \cdot 100\%. \qquad (1.9)$$

Agar bank mejozning unga qo‘ygan s so‘m puli uchun $p\%$ foyda bersa, n yildan so‘ng mejoz necha S_n so‘mga ega bo‘lishini quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$S_n = s \cdot \left(1 + \frac{p}{100}\right)^n \qquad (1.10)$$

Protsentga doir masalalar.

1. No’malum sonning 12% i 48 ga teng bo‘lsa, shu no’malum sonni toping.

Yechish: *12%, 0,12 birlikka teng bo‘ladi, shuni inobatga olib, quyidagi tenglamani tuza-miz:* $0{,}12x = 48.$ *Bundan* $x = \frac{48}{0{,}12} = 400.$

2. 17 soni 51 sonidan necha foiz kam.

Yechish: *Quyidagicha tenglama tuzamiz:* $17 = 51(1 - x)$ *yoki* $1 = 3(1 - x)$ *bun-dan* $x = \frac{2}{3}$ *birlik, yoki* $x = \frac{2}{3} \cdot 100\% = 66\frac{2}{3}\%.$

3. 57 soni 19 sonidan necha foiz ko‘p.

Yechish: *Quyidagicha tenglama tuzamiz:* $57 = 19(1 + x)$ *yoki* $3 = 1 \cdot (1 + x)$ *bun-dan* $x = 2$ *birlik, yoki* $x = 2 \cdot 100\% = 200\%.$

4. Ishchilarning maoshi 15% ga oshirildi, ma’lm vaqitdan so‘ng 15% ga kamaytirildi. Maosh qanchaga o‘zgargan.

Yechish: *Ishchilarning maoshini bir birlik deb qabul qilamiz: Shunda maosh 1,15 birlikka oshadi. Maoshning 15% ga yoki 0,15 birlikka kamayishi, uning oshirilganini 85% yoki 0,85 birligiga teng bo‘ladi. Demak, maosh datlabkisidan* $1{,}15 - 0{,}85 = 0{,}30$ *birlik-ka, yoki 30% ga kamaygan.*

5. Ishchilarning maoshlari ketma-ket oldin 15% ga keyinroq 10% ga oshirildi. Hammasi bo‘lib maoshlar necha foizga oshirilgan.

Yechish: *Ishchilarning maoshini bir birlik deb qabul qilamiz: Shunda maoshlar dastlab 1,15 birlikka, so‘ng yana 1,1 birlikka oshirilgan.*

Demak, maoshlar datlabkisidan $1{,}15 \cdot 1{,}1 - 1 = 0{,}265$ *birlikka, yoki 26,5% ga oshgan.*

6. Go‘sht qaynatilganda o‘z massasini 20% ni yo‘qotish ma’lum bo‘lsa, 12 *kg* qaynatilgan go‘sht olish uchun qozonga necha *kg* toza qaynatilmagan go‘sht solish kerak.

Yechish: *Go‘sht qaynatilganda o‘z massasini 20% ni yoki 0,2 birligini yo‘qotsa, uning 80% i yoki 0,8 birligi qoladi, shuni inobatga olib quyidagi tenglikni tuzamiz:*

$$0{,}8x = 12 \text{ bun-dan } x = \frac{12}{0{,}8} = 15\ kg.$$

7. 45 *kg* qum – sementli aralashmaning tarkibida 25% sement bor, aralashma tar-kibida sementning miqdori 15% bo‘lishi uchun unga necha *kg* qum qo‘shish kerak.

Yechish: *Qo‘shiladigan qumning miqdorini x deb olib, quyidagi tenglamani tuzamiz:* $45 \cdot 25\% = 15\%(45 + x)$ *bundan* $x = 75 - 45 = 30\ kg.$

8. Massasi 36 *kg* bo‘lgan mis va rux qotishmaning tarkibida 45% mis bor. Qotish-maning tarkibida misning miqdori 60% bo‘lishi uchun unda yana necha *kg* mis qo‘shish kerak.

Yechish: *Foizlarni birlikka aylantirib, qo‘shiladigan misning miqdorini x deb bel-gilab, quyidagi tenglamani tuzamiz:*

$$36 \cdot 0{,}45 + x = 0{,}6 \cdot (36 + x) \text{ yoki } 0{,}4x = 36 \cdot (0{,}6 - 0{,}45) \text{ bundan } x = 13{,}5\ kg.$$

9. Qotishma mis va qo‘rg‘oshindan tashkil topgan bo‘lib, uning tarkibida 60% mis bor. Agar mis qo‘rg‘oshindan $3\frac{2}{5}\,kg$ ga ko‘p bo‘lsa, qotishma tarkibidagi misni miqdorini (kg) aniqlang.

Yechish: *Foizni birlikka aylantirib, qo‘shiladigan miqdorini x deb belgilaymiz. Masala shartiga asosan qotishmadagi misning miqdori* $0{,}6x$ *ga, qo‘rg‘oshinning miqdori* $0{,}4x$*, mis qo‘rg‘oshidan* $\frac{17}{5}$ *kg ga ko‘p, ya’ni* $0{,}6x = 0{,}4x + \frac{17}{5}$ *yoki*

$0{,}4x = 0{,}6x - \frac{17}{5}$ *ekanligini inobatga olib, quyidagi tenglamani tuzamiz:*

$x = 0{,}6x + 0{,}6x - \frac{17}{5}$ *bundan* $x = 17\ kg.$

Qotishmadagi misning miqdori $0{,}6x = 0{,}6 \cdot 17 = 10{,}2\ kg.$

10. Ishchi ish normasini birinchi kuni uchdan bir qismini, ikkinchi kuni birinchi kunda bajargan ishining to‘rtdan bir qismicha ko‘p ish bajargan bo‘lsa, u shu ikki kunda qancha ish bajargan.

Yechish: *Ish normasini bir birlik deb olib, u birinchi kunda ish normasini* $1/3$ *qismini, ikkinchi kuni esa ish normasining* $\frac{1}{3} + \frac{1}{3} \cdot \frac{1}{4}$ *qismini bajargan, bularni qo‘shib, quyidagi munosabatni hosil qilamiz:*

$\frac{1}{3} + \frac{1}{3} + \frac{1}{3} \cdot \frac{1}{4} = \frac{3}{4}$ *. Ikki kunda ish normasini 75% i bajargan.*

11. Yo‘lovchi butun yo‘lning 45% ni o‘tgach, yo‘l oxirigacha 110 *km* qolgani ma’lum bo‘lsa, butun yo‘lni uzunligini toping.

Yechish: *Butun yo‘l uzunligini x deb olib, quyidagi tenglamani tuzamiz:*

$x = 0{,}45x + 110$ *bundan* $x = 200\ km.$

12.Yog‘lig‘ligi 2% bo‘lgan 90 litr sutga, yog‘lig‘ligi 5% bo‘lgan necha litr sut qo‘shilsa, yog‘lig‘ligi 2,6% bo‘lgan sut hosil bo‘ladi.

Yechish: *Qo‘shiladigan sutning miqdorini x deb olib, quyidagi tenglamani tuzamiz:*

$90 \cdot 2 + 5x = 2{,}6(90 + x)$ *yoki* $2{,}4x = 90 \cdot (2{,}6 - 2) = 54$ *bundan* $x = 22{,}5\ l.$

13. Maxsulotning narxi 25% ga oshirildi, maxsulot yaxshi sotilmaganligi uchun uni narxi 15% ga kamaytirildi. Maxsulotning keyngi narxi dastlabki narxidan qanchaga farq qiladi.

Yechish: *Maxsulotning dastlabki narxini bir birlik deb olsak, unda u* $1{,}25$ *birlikka ortadi, shu nazdan 15% yoki* $0{,}15$ *birlik kamaytirilsa, oshirilgan narxdan* $0{,}15$ *birlikka kamayadi, ya’ni uning* 85% yoki $0{,}85$ *birligini tashkil qiladi. Demak* $1{,}25 \cdot 0{,}85 = 1{,}0625$ *bo‘ladi. Maxsulotning keyngi narxi dastlabki narxidan* $1{,}0625 - 1{,}00 = 0{,}0625$ *birlikka yoki* $6{,}25\%$ *ga ko‘p bo‘ladi.*

Foizning fizik masalalarga tadbig‘i.

Birlik vaqt (t) ichida bosib o‘tilgan yo‘l (S) ga tezlik (ϑ) deb ataladi: $\vartheta = S/t$

Harakatdagi transportlarni uchrashish vaqti: $t = \frac{S}{\vartheta_1 \pm \vartheta_2}$ bu yerda ϑ_1 va ϑ_2 – harakatdagi transportlarning tezliklari.

Agar harakat qarama-qarshi yo‘nalishda bo‘lsa, $(+)$ belgisi olinadi, agar harakat bir yo‘nalishda bo‘lsa, $(-)$ belgisi olinadi.

Birlik vaqt (t) ichida bajarilgan ish (A) ga ish unumdorligi (U) deb ataladi:

$$U = A/t$$

Fizik masalalardan namunalar:

1. Agar yo‘lni bosib o‘tishga sarflangan vaqt 20% ga tejalsa, tezlik necha foizga oshadi.

Yechish: *Bosib o‘tilgan yo‘l S va vaqtini bir birlik, tezlikni x deb olib, quyidagi teng-lamani tuzamiz:* $x = \frac{1}{1-0{,}2} = \frac{1}{0{,}8} = 1{,}25$ *birlikka yoki 25% ga oshadi.*

2. Ikki shahar orasidagi masofa $S = 440\ km$ ga teng. Birinchi shahardan ikkinchi shaharga qarab yuk avtomobili $\vartheta_1 = 50\ km/soat$ tezlik bilan yo‘lga chiqdi, bir vaqtning o‘zida ikkinchi shahardan birinchi shaharga qarab yengil avtomobil ham yo‘lga chiqdi. Agar yengil avtomobilning tezligi yuk avtomobilnikidan 20% ga ko‘p bo‘lsa, ular necha soatdan so‘ng uchrashadilar.

Yechish: *Harakatlar qarama-qarshi bo‘lgani uchun*$(+)$*belgisini olib, harakatdagi transportlarni uchrashish vaqti formulasidan foydalanamiz:*

$$t = \frac{S}{\vartheta_1 \pm \vartheta_2} = \frac{440}{50+50\cdot 1{,}2} = 4\ soat.$$

3. Ish unumdorligini 15% ga oshirish uchun uni bajarishga sarflanadigan vaqtni necha foizga tejash kerak.

Yechish: *Bajariladigan ishni bir birlik, ishni bajarishga sarflanadigan vaqtni x deb olamiz va ish unumdorligi formulasidan foydalanamiz:*

$$1{,}15 = \frac{1}{1-x}\ \ bundan\ x = 13\%.$$

1.28. To‘g‘ri va teskari proporsiyalar.

To‘g‘ri proporsiya deb, son o‘sishi bilan uning qiymatini mos ravishda o‘sib bori-shiga aytiladi. Masalan 1 kg sabzi 200 so‘m tursa, 2 kg mi 400 so‘m, 3 kg mi 600 so‘m.

Demak $\begin{matrix} a-kg \to b-so‘m. \\ c-kg \to d-so‘m. \end{matrix}$ bundan proporsiya $a \cdot d = b \cdot c$ yoki $a{:}b = c{:}d$. Proporsiyada chekki hadlarining ko‘paytmasi, o‘rta hadlarining ko‘paytmasiga teng bo‘ladi.

A sonini $a{:}b{:}c$ kabi nisbatga ajratish. Buning uchun proporsionallik koeffitsientini k ni topamiz: $k = \frac{A}{a+b+c}$. Shunda $A = k\cdot a + k\cdot b + k\cdot c$. Misol: 144 sonini $2{:}3{:}4$ kabi nisbatga ajrating. $k = \frac{144}{2+3+4} = 16$.

Demak $144 = 16\cdot 2 + 16\cdot 3 + 16\cdot 4 = 32 + 48 + 64$.

To‘g‘ri proporsiyaga doir masala:

1) Agar $21,(3)$ metr gazlama 128000 so‘m tursa, shu gazlamaning 3 metri qancha turadi.

Yechish: *O‘nli davriy kasrni noto‘g‘ri kasirga aylantirib, proporsiya tuzamiz:*

$$\begin{matrix} \frac{64}{3} m \to 128000\ so‘m \\ 3\ m \to x\ so‘m \end{matrix} \qquad \frac{64}{3} x = 3\cdot 128\cdot 1000\ bundan\ x = 18000\ so‘m.$$

2) 800 *kg* mevaning tarkibida 80% suv bor. Ma’lum vaqtdan so‘ng mevaning massasi 500 *kg* bo‘lgan bo‘lsa, uni tarkibidagi suvning miqdorini % da aniqlang.

Yechish: *800 kg mevaning tarkibidagi shiraning miqdori* $800\cdot 0{,}2 = 160\ kg$ *bo‘lib, u o‘zgarmaydi.*

500 *kg meaning tarkibidagi suvning miqdori* $500 - 160 = 340\ kg$ *bo'ladi.*

Proporsiya tuzamiz: $\begin{matrix} 500 \to 100\% \\ 340 \to x\% \end{matrix}$ *bundan* $x = 68\%$.

3) 1 *tonna* mevaning tarkibidagi suvning miqdori 82%. Ma'lum vaqtdan so'ng unda-gi suvning miqdori $76\frac{12}{13}$ % ga teng bo'ldi, unda meaning massasi necha *kg* bo'lib qoladi.

Yechish: *1 tonna meva 1000 kg gat eng va undagi shiraning miqdori*

1000·0,18 = 180 kg ga tebg. $76\frac{12}{13}$ % *ni birlik miqdorga o'tkazsak* $\frac{76 \cdot 13 + 12}{13 \cdot 100} = \frac{10}{13}$ *bo'ladi.*

Qurigan meva tarkibidagi suvni miqdorini x deb olamiz va quyidagi praporsiyani tuzamiz: $\begin{matrix} 180 + x \to 1 \\ x \to \frac{10}{13} \end{matrix}$ *bundan* $x = 600\ kg$.

Unda qurigan meaning massasi $180 + x = 780\ kg$.

Teskari praporsiya deb, son o'sishi bilan uning qiymatini mos ravishda kamayib borishiga (va aksincha) aytiladi. Masalan bir ishni 12 kishi 18 kunda bajarsa, 24 ta kishi shu ishni 9 kunda bajaradi.

Demak $\begin{matrix} a - ishchi \to b - kun. \\ c - ishchi \to d - kun. \end{matrix}$ bundan proporsiya $a \cdot b = c \cdot d$.

Teskari proporsiyaga doir masala: 1) Agar 20 ta ishchi bir ishni 12 kunda bajar-sa, 16 ta ishchi shu ishni necha kunda bajaradi.

Yechish: *Proporsiya tuzamiz:* $\begin{matrix} 20 \to 12 \\ 16 \to x \end{matrix}$ $16 \cdot x = 20 \cdot 12$ *bundan* $x = 15\ kunda$.

2) Meshdagi suvni otasi 4 kunda, bolasi 12 kunda ichib tugatadi. Agar meshdagi suvni ota bola birgalikda ishsa, meshdagi suv necha kunda tugaydi

Yechish: *Otaning ichgan suv miqdorini n, bolaning ichgan suv miqdorini m, birga-likda ichilgan suvning miqdorini k deb belgilasak, unda quyidagi tenglikni hosil qilish mumkin:* $\frac{1}{n} + \frac{1}{m} = \frac{1}{k}$ *bundan* $k = \frac{nm}{n+m} = \frac{4 \cdot 12}{4+12} = 3\ kunda$.

3) Suv havzasini bir nasos 5 soatda to'ldiradi. Shu nasos bilan birgalikda ishlaydi-gan ikkinchi nasos ishlatilganda havzani 4 soatda to'ldiradi. Havzani ikkinchi nasosning yolg'iz o'zi necha soatda to'ldiradi.

Yechish: *Havzani birinchi nasos 5 soatda to'ldirsa, ikkinchi nasos x soatda to'ldi-radi deb hisoblab, oldingi masaladagi formuladan foydalanamiz:*

$4 = \frac{5x}{5+x}$ *bundan* $x = 20$ *soat. Demak ikkinchi nasosning yolg'iz o'zi havzani 20 soatda to'ldirar ekan.*

To'g'ri va teskari proporsiyalar aralashgan masalalarni yechish.

To'rtta sonining yig'indisi *A* ga teng.

Ulardan dastlabki a_1, a_2, a_2 uchtasi k_1, k_2, k_2 sonlariga to'g'ri, $a_3$va a_4 sonlari esa $k_4$va k_5 sonlariga teskari proporsiya bo'lsa, birinchi sonni toping.

Yechish: *Demak* $a_1 + a_2 + a_3 + a_4 = A$. *Shartga asosan*

$$\left.\begin{array}{l} a_1 \to k_1 \\ a_2 \to k_2 \\ a_3 \to k_3 \end{array}\right\} \textit{larga to‘g‘ri prororsiya bo‘lgani uchun} \quad \begin{array}{l} a_2 = \frac{a_1 \cdot k_2}{k_1} \\ a_3 = \frac{a_1 \cdot k_3}{k_1} \end{array}$$

$$\left.\begin{array}{l} a_3 \leftrightarrow k_4 \\ a_4 \leftrightarrow k_5 \end{array}\right\} \textit{larga teskari prororsiya bo‘lgani uchun} \quad a_4 = \frac{a_3 \cdot k_4}{k_5} = \frac{a_1 \cdot k_3 \cdot k_4}{k_1 \cdot k_5}.$$ *Shunda*

$$a_1 + \frac{a_1 \cdot k_2}{k_1} + \frac{a_1 \cdot k_3}{k_1} + \frac{a_1 \cdot k_3 \cdot k_4}{k_5} = A.$$ *Yoki* $$\frac{a_1}{k_1}\left(k_1 + k_2 + k_3 + \frac{k_3 \cdot k_4}{k_5}\right) = A.$$ *Bundan*

$$a_1 = \frac{A \cdot k_1}{k_1 + k_2 + k_3 + \frac{k_3 \cdot k_4}{k_5}}.$$ *Unversal ko‘rinishi* $$a_i = \frac{A \cdot k_i}{k_1 + k_2 + k_3 + \frac{k_j \cdot k_4}{k_5}}$$

Misol: To‘rtta sonining yig‘indisi 161 ga teng. Ulardan dastlabki uchtasi 4, 5 va 8 sonlariga to‘g‘ri, uchinchi va to‘rtinchi sonlari esa 6 va 8 sonlariga teskari proporsiya bo‘lsa, ikkinchi sonni toping.

<u>Yechish:</u> *Kelirib chiqarilgan universal formuladan foydalanib, izlanayotgan ikkinchi sonni topamiz:* $a_2 = \frac{161 \cdot 5}{4+5+8+\frac{8 \cdot 6}{8}} = 35.$

2. ALGEBRA

2.1. Daraja haqida tushuncha.

1) har qanday sonning nolinchi darajasi birga teng. $a^o = 1$. $\boldsymbol{M}$: $7^o = 1;\ 13^o = 1$
2) har qanday sonning birnichi darajasi shu sonning o‘ziga teng. $a^1 = a$.
3) $a^2 = a \cdot a$; $a^3 = a \cdot a \cdot a$. $\boldsymbol{M}$: $2^6 = 2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 2 = 64$.
4) $a^n = a \cdot a \cdot a \cdot a$ ....
5) $a^{-n} = \frac{1}{a^n}$; $\boldsymbol{M}$: $3^{-4} = \frac{1}{3^4} = \frac{1}{3 \cdot 3 \cdot 3 \cdot 3} = \frac{1}{81}$.
6) daraja darajaga oshirilganda daraja ko‘rsatkichlari ko‘paytiriladi. $(a^n)^m = a^{n \cdot m}$
$\boldsymbol{M}$: $(2^3)^2 = 2^{3 \cdot 2} = 2^6 = 2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 2 = 64$.
7) $a^n \cdot a^m = a^{n+m}$. $\boldsymbol{M}$: $\boldsymbol{3^{x+3}} = 3^x \cdot 3^3 = 27 \cdot 3^x$.
8) $\frac{a^n}{a^m} = a^{n-m}$. $\boldsymbol{M}$: $\frac{6^{15}}{6^{13}} = 6^{15-13} = 6^2 = 36$.
9) $a^n \cdot b^n = (a \cdot b)^n$. $\boldsymbol{M}$: $(2 \cdot x \cdot y)^3 = 2^3 \cdot x^3 \cdot y^3 = 8 \cdot x^3 \cdot y^3$.
10) $\frac{a^n}{b^n} = \left(\frac{a}{b}\right)^n$. $\boldsymbol{M}$: $\left(\frac{2}{3}\right)^4 = \frac{2^4}{3^4} = \frac{16}{81}$.
11) $\left(\frac{a}{b}\right)^{-n} = \left(\frac{b}{a}\right)^n$ $\boldsymbol{M}$: $\left(\frac{3}{4}\right)^{-3} = \left(\frac{4}{3}\right)^3 = \frac{4^3}{3^3} = \frac{64}{27}$.

13) Agar asoslari bir xil, daraja ko‘rsatkichlari har xil bo‘lgan ifodalar teng bo‘lsa, ularning darajalari teng bo‘ladi. $a^n = a^m$ bo‘lsa, $n = m$ bo‘ladi.

Misol uchun $3^x = 27 = 3^3$ *bundan* $x = 3$ *bo‘ladi.*

13) $(-a)^n$ da agar *n* juft bo‘lsa, a^n bo‘lai, agar *n* toq bo‘lsa, $-a^n$ bo‘ladi.

2.2. Qisqa ko‘paytirish formulalari.

1) ikki son yig‘indisining kvadrati $(a + b)^2 = a^2 + 2ab + b^2$.

2) ikki son ayirmasining kvadrati $(a-b)^2 = a^2 - 2ab + b^2$.

3) ikki son kvadratlari ayirmasini ko‘paytuchiga ajratish

$a^2 - b^2 = (a-b)(a+b)$.

4) ikki son ayirmasini ko‘paytuchiga ajratish $a - b = (\sqrt{a} - \sqrt{b})(\sqrt{a} + \sqrt{b})$.

5) ikki son kublarining yig‘indisini ko‘paytuchiga ajratish

$$a^3 + b^3 = (a+b)(a^2 - ab + b^2).$$

6) ikki son kublarining ayirmasini ko‘paytuchiga ajratish

$$a^3 - b^3 = (a-b)(a^2 + ab + b^2).$$

7) ikki son yig‘indisining kubi $(a+b)^3 = a^3 + 3a^2b + 3ab^2 + b^3$.

8) ikki son ayirmasining kubi $(a-b)^3 = a^3 - 3a^2b + 3ab^2 - b^3$.

9) $a^4 - b^4 = (a^2 - b^2)(a^2 + b^2) = (a-b)(a+b)(a^2 + b^2)$.

10) $a^6 - b^6 = (a^3)^2 - (b^3)^2 = (a^3 - b^3)(a^3 + b^3) =$

$= (a-b)(a^2 + ab + b^2)(a+b)(a^2 - ab + b^2)$.

11) $a^6 - b^6 = (a^2)^3 - (b^2)^3 = (a^2 - b^2)(a^4 + a^2b^2 + b^4) =$

$= (a-b)(a+b)(a^4 + a^2b^2 + b^4)$.

12)) $a^6 + b^6 = (a^2)^3 + (b^3)^2 = (a^2 + b^2)(a^4 - a^2b^2 + b^4)$.

2.3. Ayniyatlar. Ifodalarning chap tomoni o‘ng tomoniga teng bo‘lsa, u ayniyat bo‘ladi. Ayniyatda chap va o‘ng tomondagi no’malum sonlar oldidagi koeffitsientlar ham-da ozod hadlar teng bo‘ladi.

Ayniyatga doir misollar:

1) $a - b = -(b - a)$ *ni ayniyat ekanligini isbotlang. O‘ng tomondagi qavsni ochib, quyidagini hosil qilamiz:* $a - b = -b + a = a - b$, *demak, ayniyat ekan.*

2) $(x-a)(x+b) = x^2 - (a-b)x - ab$ *ni ayniyat ekanligini isbotlang. Teng-likning chap va o‘ng tomonidagi qavslarni ochib taqqoslaymiz:*

$x^2 - ax + bx - ab = x^2 - ax + bx - ab$, *demak, ayniyat ekan.*

3) $\frac{5}{(x+3)(x-5)} = \frac{a}{x-5} + \frac{b}{x+3}$ *ifoda ayniyat bo‘lsa, ayniyatdagi a va b koeffitsi-yenlarni aniqlang:* $\frac{5}{(x+3)(x-5)} = \frac{a(x+3)+b(x-5)}{(x+3)(x-5)}$ *yoki*

$5 = ax + 3a + bx - 5b$; *bundan* $(a+b)x + 3a - 5b = 5$; *o‘ng tomonda no’ma-lum bo‘lmagani uchun uning koeffitsiuenti 0 ga teng, chap tomondagi no’malim son oldidagi koeffitsientni nolga tenglaymiz:*

$a + b = 0$ *bundan* $b = -a$. *Ayniyatning chap tomonidagi aniq sonni, uning o‘ng tomonidagi aniq songa tenglaymiz:*

$3a - 5b = 5;\ 3a + 5a = 5;\ 8a = 5.\ a = \frac{5}{8};\ b = -\frac{5}{8}.$

4) $(бx + 2y)(3x + вy) = гx^2 + 2\frac{3}{4}xy + 3y^2$ayniyatdagi koeffitsient б ni toping.

Tenglikning chap tomonidagi qavslarni ochib, ixchamlab, no’malum sonlar oldida-gi koeffitsientlarni aniqlaymiz;$3бx^2 + (бв + 6)xy + 2вy^2 = гx^2 + \frac{11}{4}xy + 3y^2$.

Endi no’malum sonlar oldidagi koeffitsientlarni tenglashtiramiz:

$2в = 3$ *bundan* $в = \frac{3}{2}$ $бв + 6 = \frac{11}{4}$ *bundan* $б = -\frac{13}{6}$

2.4. Ildiz haqida tushuncha. Maxrajni irratsionallikdan qutqarish.

1) Agar ifodaning darjasi kasr ko‘rinishda bo‘lsa, kasrning maxraji ildiz ko‘rsatkich qilib, surati esa daraja ko‘rsatkich qilib yoziladi.

$a^{\frac{m}{n}} = \sqrt[n]{a^m} = \left(\sqrt[n]{a}\right)^m$. Agar ildiz ko‘rsatkichi 2 bo‘lsa, unga kvadrat ildiz deb atalib, u ildiz ko‘rsatkichda yozilmaydi. Masalan $\sqrt{a}$.

M: $\sqrt[0,2]{3}$ ni hisoblang. $3^{\frac{1}{0,2}} = 3^5 = 243$.

2) $\sqrt[n]{a^n} = a$. **1.** ***M***: $\sqrt{16} = \sqrt{4^2} = 4$. **2.** ***M***: $\sqrt[3]{64} = \sqrt[3]{4^3} = 4$.

3) $\sqrt[n]{a \cdot b} = \sqrt[n]{a} \cdot \sqrt[n]{b}$.

M: $\sqrt[3]{8 \cdot 27 \cdot 64} = \sqrt[3]{8} \cdot \sqrt[3]{27} \cdot \sqrt[3]{64} = \sqrt[3]{2^3} \cdot \sqrt[3]{3^3} \cdot \sqrt[3]{4^3} = 2 \cdot 3 \cdot 4 = 24$.

4) $\sqrt[n]{\frac{a}{b}} = \frac{\sqrt[n]{a}}{\sqrt[n]{b}}$ ***M***: $\sqrt[4]{\frac{16}{81}} = \frac{\sqrt[4]{2^4}}{\sqrt[4]{3^4}} = \frac{2}{3}$.

5) $\sqrt[n]{\sqrt[m]{\sqrt[k]{a}}} = \sqrt[nmk]{a}$. ***M***: $\sqrt[3]{\sqrt{\sqrt[3]{81}}} = \sqrt[3\cdot 2\cdot 3]{3^4} = \sqrt[18]{3^4} = \sqrt[9]{9}$.

6) $\sqrt[n]{a} \cdot \sqrt[m]{b} = \sqrt[nm]{a^m} \cdot \sqrt[nm]{b^n} = \sqrt[nm]{a^m \cdot b^n}$.

M: $\sqrt[3]{a} \cdot \sqrt{b} = \sqrt[6]{a^2} \cdot \sqrt[6]{b^3} = \sqrt[6]{a^2 \cdot b^3}$.

7) $\sqrt[n]{a \cdot \sqrt[n]{a \cdot \sqrt[n]{a \cdot \sqrt[n]{a \ldots}}}} = \sqrt[n-1]{a}$.

M: $\sqrt[4]{8 \cdot \sqrt[4]{8 \cdot \sqrt[4]{8 \cdot \sqrt[4]{8 \ldots}}}} = \sqrt[4-1]{8} = \sqrt[3]{2^3} = 2$.

8) $\sqrt[n]{a : \sqrt[n]{a : \sqrt[n]{a : \sqrt[n]{a \ldots}}}} = \sqrt[n+1]{a}$.

M: $\sqrt[3]{81 : \sqrt[3]{81 : \sqrt[3]{81 : \sqrt[3]{81 \ldots}}}} = \sqrt[3+1]{81} = \sqrt[4]{3^4} = 3$.

9) $\sqrt{a + \sqrt{a + \sqrt{a + \cdots}}} = \frac{\sqrt{4a+1}+1}{2}$.

M: $\sqrt{6 + \sqrt{6 + \sqrt{6 + \cdots}}} = \frac{\sqrt{4\cdot 6+1}+1}{2} = 3$.

10) $\sqrt{a - \sqrt{a - \sqrt{a - \cdots}}} = \frac{\sqrt{4a+1}-1}{2}$.

M: $\sqrt{2 - \sqrt{2 - \sqrt{2 - \cdots}}} = \frac{\sqrt{4\cdot 2+1}-1}{2} = 1$.

11) $\sqrt{a \pm b\sqrt{c}} = \frac{b}{2} \pm \sqrt{c}$

$1M$: $\sqrt{28 - 10\sqrt{3}} = \frac{10}{2} - \sqrt{3} = 5 - \sqrt{3}$.

$2M$: $\sqrt{7 + 4\sqrt{3}} = \frac{4}{2} + \sqrt{3} = 2 + \sqrt{3}$.

Maxrajni irrotsionallikdan qutqarish. Maxrajni irrotsionallikdan qutqarish uchun maxrajdagi irrotsional son berilgan kasrning surat va maxrajiga ko‘paytiriladi.

Misollar. 1) $\frac{2}{\sqrt{3}}=\frac{2\cdot\sqrt{3}}{\sqrt{3}\cdot\sqrt{3}}=\frac{2\cdot\sqrt{3}}{3}$ 2) $\frac{\sqrt{5}}{\sqrt{3}}=\frac{\sqrt{5}\cdot\sqrt{3}}{\sqrt{3}\cdot\sqrt{3}}=\frac{\sqrt{5\cdot3}}{3}=\frac{\sqrt{15}}{3}$

Agar maxrajda irratsional sonlarning yig‘indisi yoki ayirmasi qatnashsa, maxrajdagi yig‘indi yoki ayirmaning yig‘indisiga berilgan kasrning surat va maxrajiga ko‘paytiriladi.

Misollar. 1) $\frac{2}{\sqrt{5}-1}=\frac{2\cdot(\sqrt{5}+1)}{(\sqrt{5}-1)(\sqrt{5}+1)}=\frac{2\cdot(\sqrt{5}+1)}{5-1}=\frac{(\sqrt{5}+1)}{2}$

2) $\frac{\sqrt{7}}{\sqrt{3}+\sqrt{2}}=\frac{\sqrt{7}\cdot(\sqrt{3}-\sqrt{2})}{(\sqrt{3}+\sqrt{2})(\sqrt{3}-\sqrt{2})}=\frac{\sqrt{7}\cdot(\sqrt{3}-\sqrt{2})}{3-2}=\sqrt{7}\left(\sqrt{3}-\sqrt{2}\right).$

Irratsional sonlarni hisoblashga doir misollar.

1) $\sqrt{3+\sqrt{5}}\cdot\sqrt{3-\sqrt{5}}$ ni hisoblang.

Yechish: *Ildiz haqidagi formulaning (2) dan fo‘lalanib, berilgan ifodani quyidagicha yozamiz:* $\sqrt{3+\sqrt{5}}\cdot\sqrt{3-\sqrt{5}}=\sqrt{(3+\sqrt{5})\cdot(3-\sqrt{5})}=\sqrt{9-5}=\sqrt{4}=2.$

2) $\sqrt{7+2\sqrt{6}}+\sqrt{7-2\sqrt{6}}$ ni hisoblang.

Yechish: *Berilgan ifodani a deb belgilab, uni ikkala tomonini kvadratga oshiramiz:*

$$a^2=\left(\sqrt{7+2\sqrt{6}}+\sqrt{7-2\sqrt{6}}\right)^2=$$

$$=\left(\sqrt{7+2\sqrt{6}}\right)^2+2\sqrt{7+2\sqrt{6}}\cdot\sqrt{7-2\sqrt{6}}+\left(\sqrt{7-2\sqrt{6}}\right)^2$$

$a^2=14+2\cdot5=24.$ *Bundan* $a=2\sqrt{6}.$

3) $\sqrt{11-2\sqrt{10}}-\sqrt{11+2\sqrt{10}}$ ni hisoblang.

Yechish: *Berilgan ifodani a deb belgilab, uni ikkala tomonini kvadratga oshiramiz:*

$$a^2=\left(\sqrt{11-2\sqrt{10}}-\sqrt{11+2\sqrt{10}}\right)^2=$$

$$=\left(\sqrt{11-2\sqrt{10}}\right)^2-2\sqrt{11-2\sqrt{10}}\cdot\sqrt{11+2\sqrt{6}}+\left(\sqrt{11-2\sqrt{10}}\right)^2$$

$a^2=22-2\cdot9=4.$ *Bundan* $a=\pm2.$ *Birinchi irratsional son, ikkinchi irratsional sondan kichik bo‘lgani uchun, berilgan ifodaning qiymati* -2 *ga teng bo‘ladi.*

2.5. Ikki nomalumli tenglama. Ikkita no’malum qatnashgan tenglamalarga ikki no’malumli tenglamalar deb ataladi. Ularni yechishda ikkita maqsad qo‘yiladi.

1) Amaliy, ya’ni amaldagi ikkita no’malumni topish.

2) Nazariy, ya’ni chiziqlarni kesishish nuqtasini aniqlash.

Ikkita no’malumli tenglamalar birgalikda sistema qilib yechiladi.

Agar ikkita to‘g‘ri chiziqlar $y_1=k_1\cdot x_1+b_1$ va $y_2=k_2\cdot x_2+b_2$ ko‘rinishdagi tenglama bilan berilgan bo‘lsa, ularni quyidagi sistema shakliga keltirib yechamiz:

$\begin{cases} y_1 = k_1 \cdot x_1 + b_1 \\ y_2 = k_2 \cdot x_2 + b_2 \end{cases}$ bu yerda k_1 va k_2 − to‘g‘ri chiziqlarning burchak koeffitsientlari; b_1 va b_2 − to‘g‘ri chiziqlarni OY o‘qi bilan kesishish nuqtalari.

Sistemani yechishning quyidagi usullari mavjud:

1. Qo‘shish yoki ayrish.
2. O‘rniga qo‘ysh.
3. Belgilab olish.
4. Yangi o‘zgartirish kiritish.

Sistema yechimlarining xususiy hollari (2.1-rasm):

1. Agar $k_1 \neq k_2$ bo‘lsa, sistema yechimga ega bo‘ladi, yani to‘g‘ri chiziqlar albatta kesishadi (2.1a-rasm).

2. Agar $k_1 = k_2$ bo‘lib, $b_1 \neq b_2$ bo‘lmasa, sistema yechimga ega bo‘lmaydi, ya’ni to‘g‘ri chiziqlar parallel $y_1 // y_2$ bo‘lib, kesishadi (2.1b-rasm).

3. Agar $k_1 = k_2$ va $b_1 = b_2$ bo‘lsa, sistema cheksiz ko‘p yechimga ega bo‘ldi, bunda chiziqlar ustma-ust tushib qoladi (2.1c-rasm).

4. Agar $k_1 = -\frac{1}{k_2}$ bo‘lsa, chiziqlar kesishish nuqtasida bir biri bilan 90^0 li burchak hosil qiladi, ya’ni $y_1 \perp y_2$ (2.1d-rasm).



2.1-rasm.

Ikki no’malumli tenglama va tenglamalar sistemasini yechishga doir misollar.

1. $\begin{cases} 2x + 3y = 10 \\ 3x - y = 4 \end{cases}$ tenglamalar sitemasini yeching.

Yechish: *Ikkinchi tenglamani 3 ga ko‘paytirib, birinchi tenglamaga qo‘shamiz, shunda* $11x + 0 = 22$ *bundan* $x = 2$. *Ikkinchi tenglamadan y ni topib, x ninig bu qiymatini qo‘yamiz* $y = 3x - 4 = 3 \cdot 2 - 4 = 2$. *Demak* $y = 2$.

2. Firmadagi tovuq va qo‘ylarning soni 90 ta, ularning oyoqlarining soni 210 ta bo‘lsa, firmadagi tovuq va qo‘ylarning sonini aniqlang.

Yechish: *Firmadagi tovuqlar sonini x va uning oyoqlari 2 bo‘lishini, qo‘ylar sonini y va uning oyoqlari soni 4 ta ekanligini bilgan holda quyidagi tenglamalar sistemasini tuzamiz:* $\begin{cases} x + y = 90 \\ 2x + 4y = 210 \end{cases}$ *birinchi tenglamani 2 ga ko‘paytirib,uni ikkinchi tenglamadan ayiramiz, shunda* $0 + 2y = 30$ *bundan* $y = 15$. *Birinchi tenglamadan x ni topib, y ninig bu qiymatini qo‘yamiz* $x = 90 - y = 90 - 15 = 75$.

Demak firmada 15 ta tovuq, 75 ta qo‘y bor ekan.

3. $\begin{cases} x - 2ay = 7 \\ 2x + y = 4 \end{cases}$ a ning qanday qiymatida tenglamalar sitemasini yechimga ega bo‘lmaydi.

Yechish: *Sistema yechimga ega bo‘lmasligi uchun* $k_1 = k_2$ *bo‘lib,* $b_1 \neq b_2$ *bo‘lmasligi kerak.Burchak koeffitsiyentlarini tenglashtirish uchun birinchi tenglamani ikkala tomonini 2 ga ko‘paytiramiz va y ni oldidagi koeffitsientlarni tenglashtirib , a ni aniqlaymiz:* *Shunda* $-4a = 1$ *bundan* $a = -\frac{1}{4}$.

4. $\begin{cases} ax + y = 6 \\ 2x - 3y = b \end{cases}$ a va b larning qanday qiymatlarida tenglamalar sitemasini cheksiz ko‘p yechimga ega bo‘ladi.

Yechish: *Sistema cheksiz ko‘p yechimga ega bo‘lishi uchun* $k_1 = k_2$ *bo‘lib,* $b_1 = b_2$ *bo‘lishi kerak. Burchak koeffitsiyentlarini tenglashtirish uchun birinchi tenglamani ikkala tomonini 2 ga, ikkinchi tenglamaning ikkala tomonini a ga ko‘paytiramiz; shunda sistema quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:*

$\begin{cases} 2ax + 2y = 12 \\ 2ax - 3ay = ab \end{cases}$ *y oldidagi koeffitsientlarni va ozo‘l hadlarni tenglashtirib, a ni topamiz:* $-3a = 2$ *bundan* $a = -\frac{2}{3}$ *,ozo‘l hadlarni tenglashtirib undan b ni qiymatlarini aniqlaymiz* $ab = 12$*:* $-\frac{2}{3}b = 12$ *bundan* $b = -18$.

2.6. Arifmetik progressiya. Arifmetik progressiya deb, biror o‘zgarmas d (progressiyani ayirmasi) sonni qo‘shishdan yoki ayrishdan hosil bo‘lgan sonlar ketma-ketligiga aytiladi.

Arifmetik progressiyani ayirmasi

$$d = a_2 - a_1 = a_3 - a_2 = a_4 - a_3 = a_n - a_{n-1}$$

M: $-5 - 3 - 1 + 1 + 3 + 5 + 7 + \cdots$ $d = 2$. $3 + 5 + 8 + 11 + 14 + \cdots$ $d = 3$. $9 + 5 + 1 - 3 - 7 - 11 - 15 \ldots$ $d = -4$.

Arifmetik progressiyaning umumiy ifodasi $a_1 + a_2 + a_3 + a_4 + \cdots + a_n$.

Agar progressiyaning birinchi hadi a_1 berilgan bo‘lsa, uning ikkinchi hadi, uchinchi, to‘rtinchi va hokozo *n*- hadlari quyidagicha aniqlanadi:

$a_2 = a_1 + d$; $a_3 = a_2 + d = a_1 + d + d = a_1 + 2d$;

$a_4 = a_3 + d = a_1 + 2d + d = a_1 + 3d$; $a_5 = a_4 + d = a_1 + 3d + d = a_1 + 4d$;

demak arifmetik progressiyaning istalgan hadini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$a_n = a_1 + (n-1) \cdot d. \quad (2.1)$$

Bundan

$$d = \frac{a_n - a_1}{n-1}. \quad (2.2)$$

bu yerda $a_n -$ progressiyaning oxirgi hadi; $a_1 -$ progressiyaning birinchi hadi; $n -$ progressiya hadlarining soni; $d -$ progressiyaning ayirmasi.

Progressiyaning *n* ta hadining yig‘indisi quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$S_n = \frac{a_1 + a_n}{2} \cdot n. \quad (2.3)$$

yoki

$$S_n = \frac{2a_1 + (n-1) \cdot d}{2} \cdot n. \quad (2.4)$$

$$a_n = S_n - S_{n-1}. \quad (2.5)$$

$$a_{n+1} = S_{n+1} - S_n. \quad (2.6)$$

$$a_{n+1} - a_n = a_n - a_{n-1} = d. \quad (2.7)$$

Agar $S_n = n^2$ bo‘lsa, $a_n = n^2 - (n-1)^2$ bo‘ladi (2.8)

Arifmetik progressiyaga doir misollar.

1) 2+4+6+… arifmetik progressiyaning 21-hadini toping.

Yechish: *Berilgan misol va uning shartidan quyidagilarni aniqlaymiz; progressiyaning birinchi hadi* $a_1 = 2$; *ayirmasi* $d = 2$; *hadlarining soni* $n = 21$. *Arifmetik progressiyaning istalgan hadini topish (2.1) formulasidan*

$a_{21} = a_1 + (n-1)\cdot d = 2 + (21-1)\cdot 2 = 42.$

2) Arifmetik progressiyaning o‘nbirinchi hadi 41 ga, ayirmasi 3 ga teng bo‘lsa, uni birinchi hadini toping.

Yechish: *Masala shartiga asosan* $a_{11} = 41,\ d = 3,\ n = 11$. *Arifmetik progressiyaning istalgan hadini topish (1) formulasi* $a_{11} = a_1 + (n-1)\cdot d$ *dan*

$a_1 = a_{11} - (n-1)\cdot d = 41 - (11-1)\cdot 3 = 11.$

3) 1 dan 81 gacha bo‘lgan natural sonlar yig‘indisini toping.

Yechish: *Masala shartiga asosan* $a_1 = 1, a_n = 81, d = 1, n = 81$. *Arifmetik progressiya hadlarining yig‘indisi formulasi (2.3) dan*

$$S_{81} = \frac{a_1 + a_{81}}{2}\cdot 81 = \frac{1+81}{2}\cdot 81 = 3321.$$

4) Agar arifmetik progressiya $a_n + a_{n+1} = 3(1+n)$ bo‘lsa, S_n ni toping.

Yechish: $n = 1$ *da berilgan tenglik* $a_1 + a_2 = 3(1+1) = 6$.

Yoki $a_1 + a_1 + d = 6$. *Bundan* $2a_1 = 6 - d$.

$a_n + a_{n+1} = a_1 + nd - d + a_1 + nd = 3 + 3n.$

$2a_1 + 2nd - d = 3 + 3n;\ \ 6 - d + 2nd - d = 3 + 3n;\ \ 2d(n-1) = 3(n-1).$

Bundan $d = \frac{3}{2};\ \ 2a_1 = 6 - \frac{3}{2} = \frac{9}{2}.$

Shunda $S_n = \frac{2a_1 + (n-1)d}{2}\cdot n = \frac{\frac{9}{2} + (n-1)\frac{3}{2}}{2}\cdot n = \frac{3n(n+2)}{2}.$

2.7. Geometrik progressiya. Geometrik progressiya deb, biror o‘zgarmas q (progressiyani maxraji) songa ko‘paytirshdan yoki bo‘lishdan hosil bo‘lgan sonlar ketma-ketligiga aytiladi. Geometrik progressiyaning maxraji $q \neq 0;\ q \neq 1$.

$$q = \frac{b_2}{b_1} = \frac{b_3}{b_2} = \frac{b_4}{b_3} = \frac{b_n}{b_{n-1}} \qquad (2.9)$$

M: $1 + 2 + 4 + 8 + \cdots;\ \ q = 2.\ \ 3 + 9 + 27 + 81 + \cdots;\ \ q = 3.$

$16 + 4 + 1 + \frac{1}{4} + \frac{1}{16} + \cdots;\ \ q = 4.$

Geometrik progressiyaning umumiy ifodasi $b_1 + b_2 + b_3 + b_4 + \cdots + b_n$.

Agar progressiyaning birinchi hadi b_1 berilgan bo‘lsa, uning ikkinchi hadi, uchinchi, to‘rtinchi va hokozo *n*- hadlari quyidagicha aniqlanadi:

$b_2 = b_1\cdot q;\ \ b_3 = b_2\cdot q = b_1\cdot q\cdot = b_1\cdot q^2;\ b_4 = b_3\cdot q = b_1\cdot q^2\cdot q = b_1\cdot q^3;$ $b_5 = b_4\cdot q = b_1\cdot q^3\cdot q = b_1\cdot q^4;\ b_6 = b_5\cdot q = b_1\cdot q^4\cdot q = b_1\cdot q^5;$ demak geometik pro-gressiyaning istalgan hadini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$b_n = b_1\cdot q^{n-1}\ . \qquad (2.10)$$

bu yerda b_n −progressiyaning oxirgi hadi; b_1 −progressiyaning birinchi hadi; n − progressiya hadlarining soni; q − progressiyaning ayirmasi.

Progressiyaning *n* ta hadining yig‘indisi quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

o‘suvchi $$S_n = \frac{b_1\cdot(q^n - 1)}{q-1}. \qquad (2.11)$$

kamayuvchi $$S_n = \frac{b_1\cdot(1-q^n)}{1-q}. \quad (2.12)$$

$$b_n = S_n - S_{n-1}. \quad (2.13)$$

$$b_{n+1} = S_{n+1} - S_n. \quad (2.14)$$

$$q = \frac{b_{n+1}}{b_n}. \quad (2.15)$$

$$b_1^2 + b_2^2 + b_3^2 + \cdots + b_n^2 = \frac{b_1^2\left((q^n)^2-1\right)}{q^2-1} \quad (2.16)$$

$$\frac{1}{b_1} + \frac{1}{b_2} + \frac{1}{b_3} + \cdots + \frac{1}{b_n} = \frac{\frac{1}{b_1}(1-q^n)}{1-q} \quad (2.17)$$

Geometrik progressiyaga doir misollar.

1) $1+3+9+27+\cdots$ geometrik progressiyaning 6-hadini toping.

Yechish: *Berilgan misol va uning shartidan quyidagilarni aniqlaymiz; progressiyaning birinchi hadi $b_1 = 1$; maxraji $q = 3$; hadlarining soni $n = 6$.*

Geometrik progressiyaning istalgan hadini topish (2.10) formulasidan

$b_6 = 1\cdot 3^{6-1} = 1\cdot 3^5 = 243$.

2) Geometik progressiyaning beshinchi hadi 32 ga, birinchi hadi 2 ga teng bo‘lsa, uni maxrajini toping.

Yechish: *Masala shartiga asosan $b_5 = 32,\ b_1 = 2,\ n = 5$.*

Geometrik progressiyaning istalgan hadini topish (2.10) formulasidan

$32 = 2\cdot q^{5-1} = 2\cdot q^4$. *Bundan* $q = 2$.

3) Geometik progressiyaning beshinchi hadi 4 ga, maxraji 2 ga teng. Shu progressiyaning oltita hadini yig‘indisini toping.

Yechish: *Masala shartiga asosan $b_1 = 5,\ q = 2 > 0,\ n = 6$. O‘suvchi geometrik progressiya hadlarining yig‘indisini topish (2.12) formulasidan* $S_6 = \frac{5\cdot\left(2^6-1\right)}{2-1} = 315$.

4) Geometrik progressiyada $c_n = ak^{n-6}$ va $c_2\cdot c_{10} = 25$ bo‘lsa, koeffitsient a ni toping.

Yechish: *Geometrik progressiyaning hadlari c ga, maxraji esa k ga o‘zgartirilganligini hisobga olib, $c_n = c_1\cdot k^{n-1} = a\cdot k^{n-6}$ va $c_2\cdot c_{10} = c_1k\cdot c_1k^9 = 25$ larni hosil qilamiz. Ikkinchi tenglikdan $c_1k^5 = 5$, bundan $c_1 = \frac{5}{k^5}$.*

Demak $\frac{5}{k^5}\cdot k^{n-1} = a\cdot k^{n-6}$, *bundan* $a = 5$.

2.8. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya deb, maxraji o‘ldiy kasrdan tashkil topgan progressiyaga aytiladi. Cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya hadlarining yig‘indisi quyidagi formulalar orqali aniqlanadi: $S_n = \frac{b_1}{1-q}$ (2.15); $S_n = \frac{b_1^2}{1-q^2}$. (2.18)

Cheksiz kamayyuvchi geometrik progressiyaga doir misollar.

1) $\frac{1}{2}+\frac{1}{4}+\frac{1}{8}+\frac{1}{16}+\frac{1}{32}+\cdots;\ q = \frac{1}{2};\ \ S_n = \frac{1/2}{1-1/2} = 1.$

2) $\frac{1}{3}+\frac{1}{9}+\frac{1}{27}+\frac{1}{81}+\cdots; q=\frac{1}{3};\ S_n=\frac{1/3}{1-1/3}=0{,}5.$

3) $\frac{1}{4}+\frac{1}{16}+\frac{1}{64}+\frac{1}{256}+\cdots; q=\frac{1}{4};\ S_n=\frac{1/4}{1-1/4}=0{,}333\ldots=0,(3).$

$0{,}3333\ldots=0{,}3+0{,}03+0{,}003+0{,}0003+\cdots=\frac{3}{10}+\frac{3}{100}+\frac{3}{1000}+\frac{3}{1000}+\cdots$

Bundan ko‘rinadiki, bu ketma-ketlik maxraji $q=\frac{1}{10}$ ga teng bo‘lgan cheksiz kamayuvchi geometrik progressiyadir. Uning *n* ta hadini yig‘indisi (2.15) formula orqali aniqlanadi:

$$S_n=\frac{3/10}{1-1/10}=\frac{3/10}{9/10}=\frac{3}{9}.$$

Ayrim ketma-ket kelgan sonlarni yig‘indisini topish formulalari:

1) $2+5+13+\cdots+(2^{n-1}+3^{n-1})=2^n-1+\frac{3^n-1}{2}$

2) $1\cdot2+2\cdot3+\cdots+n\cdot(n+1)=\frac{n(n+1)(n+2)}{3}$

3) $1\cdot4+2\cdot7+3\cdot10+\cdots+n\cdot(n+3)=n(n+1)^2$

4) $3\cdot9+5\cdot27+7\cdot81+\cdots+(2n+1)\cdot3^{n+1}=n\cdot3^{n+2}$

5) $1^2+2^2+3^2+\cdots+n^2=\frac{n(n+1)(2n+1)}{6}$

6) $1^2+3^2+5^2+\cdots+(2n-1)^2=\frac{n(4n^2-1)}{3}$

7) $1^3+2^3+3^3+\cdots+n^3=\frac{n^2(n+1)^2}{4}=\left(\frac{n\cdot(n+1)}{2}\right)^2$

8) $1^3+3^3+5^3+\cdots+(2n-1)^3=n^2(2n^2-1)$

9) $1^2-2^2+3^2-4^2+\cdots+(-1)^{n-1}\cdot n^2=(-1)^{n-1}\cdot\frac{n(n+1)}{2}$

2.9. Tengsizlik va qo‘shaloq tengsizliklar. Tengsizlik, bu - maxsus belgi bo‘lib, biron bir ifoda yoki qiymatni katta yoki kichik ekanligini ko‘rsatadi. Bunda agar qiymat belgi ichida bo‘lsa, u katta, belgi uchida bo‘lsa, kichik hisoblanadi. ***Misol*:** $7>5$ yoki $11<17$. Agar tengsizlikni ikkala tomoni biror manfiy songa ko‘paytirilsa yoki bo‘linsa, qiymatlar qarama-qarshi ishoraga, tengsizlik belgisi ham o‘zgaradi.

***Misol*:** $9>5$ ni ikkala tomoni -1 ga ko‘paytirsak $-9<-5$ bo‘ladi.

Qo‘shaloq tengsizliklar, agar bir qiymat boshqa bir qiymatdan katta, yana bir boshqa qiymatdan kichik bo‘lsa, u qo‘shaloq tengsizlikka olinadi.

Misol uchun $7<9<11$.

Qo‘shaloq tengsizlikka doir *misol*. $3\le x-5<7$ tengsizlikni yeching. Buni quyidagi sistema ko‘rinishiga keltiramiz: $\begin{cases}x-5\ge3\\x-5<7\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}x\ge8\\x<12\end{cases};$

$8\le x<12$ yoki [8; 12).

2.10. To‘la kvadrat tenglama. To‘la kvadrat tenglamaning umumiy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi. $ax^2+bx+c=0$; kvadrat tenglama bu parabola tenglamasi bo‘lib, u quyidagi ko‘rinishga ega $y=ax^2+bx+c$.

Bu yerda a, b, c - koeffitsientlar bo‘lib, a- parabola shoxining yo‘nalishini; agar $a > 0$ bo‘lsa, shox yuqoriga, $a < 0$ bo‘lsa, shox pastga yo‘nalgan bo‘ladi. b-parabola shoxining tik yoki yotiqligi, hamda uchining ko‘chishini ko‘rsatadi. c- ozo‘l had bo‘lib, para-bolani OY o‘qi bilan kesishish nuqtasini ko‘rsatadi.

To‘la kvadrat tenglama $ax^2 + bx + c = 0$ ning ildizi, ya’ni OX o‘qi bilan kesishish nuqtalari quyidagi formula orqali aniqlanadi: $x_{1,2} = \frac{-b \pm \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}$. Bunda a va c koeffit-sientlarning qaram-qarshi ishorasi olinadi.

Buni isboti quyidagicha; $ax^2 + bx + c = 0$ tenglikni ikkala tomonini a ga bo‘lib, quyidagi tenglikni hosil qilamiz: $x^2 + \frac{b}{a}x + \frac{c}{a} = 0$. Buni quyidagicha qilib yozamiz: $\left(x + \frac{b}{2a}\right)^2 - \frac{b^2}{4a^2} + \frac{c}{a} = 0$; $\left(x + \frac{b}{2a}\right)^2 = \frac{b^2}{4a^2} - \frac{c}{a} = \frac{b^2 - 4ac}{4a^2}$; Buni ikkala tomonidan kvadrat ildiz olsak, $\left(x + \frac{b}{2a}\right)_{1,2} = \pm \frac{\sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}$.

Bundan $x_{1,2} = -\frac{b}{2a} \pm \frac{\sqrt{b^2 - 4ac}}{2a} = \frac{-b \pm \sqrt{b^2 - 4ac}}{2a}$.

Bu yerda kvadrat ildiz ostidagi ifodaga diskirminant (kvadrat tenglamani ildizini bor yoki yo‘qligini aniqlovchi ko‘rsatkich) deb ataladi. $D = b^2 - 4ac$.

Buni inobatga olib, tenglama ildizlarini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$x_{1,2} = \frac{-b \pm \sqrt{D}}{2a}$$

Diskirminantning xususiy hollari va uning grafiklari 2.2-rasmda ko‘rsatilgan.



2.2-rasm.

1) Agar $D > 0$ bo‘lsa, tenglama haqiqiy ikkita ildizga ega, ya’ni parabola OX o‘qini albatta ikki nuqtasidan kesib o‘tadi (2.2a-rasm).

2) Agar $D = 0$ bo‘lsa, tenglama bitta ildizga ega, ya’ni $x_1 = x_2 = x$ bo‘lib, para-bola OX o‘qining ostida yoki ustida joylashgan bo‘ladi (2.2b-rasm).

3) Agar $D < 0$ bo‘lsa, tenglama ildizga ega emas, ya’ni parabola OX o‘qi bilan kesishmaydi (2.2c-rasm).

Parabola uchining koo‘linatalari. Agar parabola uchini U deb olsak, uning koor-dinatasi $U(x_u; y_u)$ bo‘ladi (2.3-rasn).

Agar (+; + →I), (−;+ → II), (−;− → III), (+;− → IV) bo‘ladi.

Diskriminantni $D = 0$ deb olib, parabolaning x_u uchini topamiz: $x_u = -\frac{b}{2a}$ buni parabola tenglamasidagi x ni o‘rniga qo‘yib, parabolaning y_u uchini topamiz:

$$y_u = a\cdot\frac{b^2}{4a^2} - \frac{b^2}{2a} + c = \frac{b^2}{4a} - \frac{b^2}{2a} + c = c - \frac{b^2}{4a}.$$

Demak $y_u = c - \frac{b^2}{4a}$



2.3-rasm.

2.11. Chala kvadrat tenglamalar. To‘la kvadrat tenglamadan $ax^2 + bx + c = 0$:

1) Agar $a = 0$ bo‘lsa, $bx + c = 0$ bo‘ladi va u bitta ildizga ega bo‘ladi, $x = -\frac{c}{b}$

2) Agar $b = 0$ bo‘lib, $c < 0$ bo‘lsa, $ax^2 - c = 0$, bo‘ladi, parabolaning uchi *OY* (ordinata) o‘qida joylashgan bo‘lib, ildizlari teng va qarama-qarshi ishorali bo‘ladi (2.4-rasm): $x_{1,2} = \pm\sqrt{\frac{c}{a}}$.



2.4-rasm.

Agar $c > 0$ bo‘lsa, tenglama yechimga ega emas.

3) Agar $c = 0$ bo‘lsa, $ax^2 + bx = 0$ bo‘ladi va parabolaning bitta ildizi 0 ga teng bo‘lib, parabola albatta koordinata boshidan o‘tadi (2.5-rasm). Berilgan tenglikni $x\cdot(ax + b) = 0$ ko‘rinishda yozib, ko‘paytmani har birini nolga tenglab, uning ildizlarini aniqlaymiz:

$$x_1 = -\frac{b}{a}\,;\ x_2 = 0.$$



2.5-rasm.

2.12. Keltirilgan kvadrat tenglama. Viyet teoremasi.

Keltirilgan kvadrat tenglama. To‘la kvadrat tenglamani $ax^2 + bx + c = 0$ ikkala tomonini a ga bo‘lib, quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$x^2 + \frac{b}{a}x + \frac{c}{a} = 0.$ $\frac{b}{a} = p,$ $\frac{c}{a} = q$ kabi o‘zgartirishdan so‘ng, tenglama

$x^2 + px + q = 0$ ko‘rinishga ega bo‘ladi, bu esa keltirilgan kvadrat tenglamaning umumiy ko‘rinishi bo‘ladi. Uning ildizlari, ya’ni *OX* o‘qi bilan kesishish nuqtalari quyidagi formula orqali aniqlanadi: $x_{1,2} = -\frac{p}{2} \pm \sqrt{\frac{p^2}{4} - q}$.

Buni isboti quyidagicha; $x^2 + px + q = 0$ tenglikdan quyidagi tenglikni hosil qilamiz: $\left(x + \frac{p}{2}\right)^2 - \frac{p^2}{4} + q = 0$; Buni ikkala tomonidan kvadrat ildiz olamiz:

$\left(x + \frac{p}{2}\right)_{1,2} = \pm\sqrt{\frac{p^2}{4} - q}$. Bundan $x_{1,2} = -\frac{p}{2} \pm \sqrt{\frac{p^2}{4} - q}$.

Viyet teoremasi. Keltirilgan kvadrat tenglama ildizlarining yig‘indisi $x_1 + x_2 = -p$ ga, ko‘paytmasi $x_1\cdot x_2 = q$ ga teng.

Isboti: $x_1 + x_2 = -\frac{p}{2} - \sqrt{\frac{p^2}{4} - q} - \frac{p}{2} + \sqrt{\frac{p^2}{4} - q} = -\frac{2p}{2} = -p.$

$$x_1\cdot x_2 = \left(-\frac{p}{2} - \sqrt{\frac{p^2}{4} - q}\right)\cdot\left(-\frac{p}{2} + \sqrt{\frac{p^2}{4} - q}\right) = \left(-\frac{p}{2}\right)^2 - \left(\sqrt{\frac{p^2}{4} - q}\right)^2 = q.$$

Viyet teoremasiga doir misollar:

1) Ildizlari $x_1 = 3 - \sqrt{2}$ va $x_2 = 3 + \sqrt{2}$ ga teng bo‘lgan tenglama tuzing.

Yechish: *Keltirilgan kvadrat tenglama $x^2 + px + q = 0$ dagi p va q koeffitsient-larni aniqlaymiz:* $p = -(x_1 + x_2) = -\left(3 - \sqrt{2} + 3 + \sqrt{2}\right) = -6.$

$q = x_1 \cdot x_2 = \left(3 - \sqrt{2}\right) \cdot \left(3 + \sqrt{2}\right) = 9 - 2 = 7.$

Bu qiymatlarni o‘rniga qo‘yib, quyidagi tenglamani hosil qilamiz: $x^2 - 6x + 7 = 0.$

2) Agar x_1 va x_2 $x^2 + 6x - a = 0$ tenglamani ildizlari va $\frac{1}{x_1} + \frac{1}{x_2} = \frac{2}{3}$ bo‘lsa, no’malum koeffitsient a ni toping.

Yechish: $\frac{1}{x_1} + \frac{1}{x_2} = \frac{2}{3}$ *ni* $\frac{x_1+x_2}{x_1 \cdot x_2} = \frac{2}{3}$ *ko‘rinishda yozamiz, shunda* $\frac{-6}{-a} = \frac{2}{3}$ *bo‘ladi, bundan* $a = 9$.

3) Agar x_1 va x_2 $x^2 + ax - 6 = 0$ tenglamani ildizlari va $x_1^2 + x_2^2 = 13$ bo‘lsa, no’malum koeffitsient a ni toping.

Yechish: *Berilgan tenglamada* $x_1 \cdot x_2 = -6$ *ga teng.* $a = -(x_1 + x_2)$ *bu tenglikni ikkala tomonini kvadratga oshiramiz:*

$a^2 = x_1^2 + 2x_1x_2 + x_2^2 = 13 + 2(-6) = 1$,*bundan* $a = \pm 1$.

4) $(x^2 - 3x + 3)(x^2 - x + 3) = 3x^2$ tenglamaning ildizlari yig‘indisini toping.

Yechish: *Berilgan tenglamani quyidagi ko‘rinishda yozib, uni kvadrat tenglama shakliga keltiramiz:* $(x^2 - x + 3 - 2x)(x^2 - x + 3) = 3x^2$

$(x^2 - x + 3)^2 - 2x \cdot (x^2 - x + 3) - 3x^2 = 0.$ $(x^2 - x + 3)_{1,2} = x \pm \sqrt{x^2 + 3x^2} = x \pm 2x.$

$(x^2 - x + 3)_1 = x - 2x = -x;$ $x^2 + 3 = 0;$ $x^2 \neq -3.$ $(x^2 - x + 3)_2 =$

$= x + 2x = 3x;$

$x^2 - 4x + 3 = 0.$ *Bundan viyet teoremasiga asosan* $x_1 + x_2 = -p = -(-4) = 4.$

Keltirilgan kvadrat tenglama ildizlarining ishoralari:

- Agar $p > 0,$ $q < 0$ bo‘lsa, tenglama ildizlari turli ishorali bo‘lib, $|-x_1| > x_2$ bo‘ladi (2.6*a*-rasm).
- Agar $p < 0,$ $q < 0$ bo‘lsa, tenglama ildizlari turli ishorali bo‘lib, $|-x_1| < x_2$ bo‘ladi (2.6*b*-rasm).



2.6-rasm.

- Agar $p < 0,$ $q > 0$ bo‘lsa, tenglama ildizlari musbat ishorali bo‘ladi, $x_1 > 0, x_2 > 0$ (2.6*c*-rasm).
- Agar $p > 0,$ $q > 0$ bo‘lsa, tenglama ildizlari manfiy ishorali bo‘ladi, $x_1 < 0, x_2 < 0$ (2.6*d*-rasm).

2.13. Kvadrat uch hadni ko’paytuvchilarga ajratish. Kvadrat uch hadni ko’pay-tuvchilarga ajratish uchun uni shartli ravishda nolga tenglab, ildizlari aniqlanadi va bu ildizlarning qiymatlari teskari ishora bilan bir biriga ko‘paytiriladi.

Kvadrat uch hadni ko'paytuvchilarga ajratishga doir misollar:

$$1)\ x^2+4x-5=(x+5)(x-1).\quad x_{1,2}=-2\pm\sqrt{4+5}=-2\pm 3;$$
$$x_1=-5;\ x_2=1.$$

$$2)\ 2x^2-3x-2=(x-2)(2x+1).\quad x_{1,2}=\frac{3\pm\sqrt{9+4\cdot 2\cdot 2}}{2\cdot 2}=\frac{3\pm 5}{4};$$
$$x_1=2;\ 2x_2=-1.$$

Ko'p hadni ko'p hadga bo'lish. Agar ko'p had koeffitsientlarining yig'indisi 0 ga teng bo'lsa, tenglama ildizlaridan biri 1 ga teng bo'ladi. *Masalan*: $x^3+79x-80=0$.

Tenglama koeffitsientlarining yig'indisi $1+79-80=0$. Demak tenglamaning ildizlaridan biri $x_1=1$ ga teng bo'lib, berilgan ko'p had $x-1$ ga qoldiqsiz bo'linadi.

$$\begin{array}{l|l} x^3+79x-80 & x-1 \\ \underline{x^3-x^2} & \overline{x^2+x+80} \\ \quad x^2+79x-80 & \\ \quad \underline{x^2-x} & \\ \qquad 80x-80 & \\ \qquad \underline{80x-80} & \\ \qquad\quad 0 & \end{array}$$

$$x^3+79x-80=(x-1)(x^2+x+800)$$

$$\begin{array}{l|l} x^4+2x^3-x^2+3x-8 & x^2-x-2 \\ \underline{x^4-x^3-2x^2} & \overline{x^2+3x+4} \\ \quad 3x^3+x^2+3x-8 & \\ \quad \underline{3x^3-3x^2-6x} & \\ \qquad 4x^2+9x-8 & \\ \qquad \underline{4x^2-4x-8} & \\ \qquad\quad 13x & \end{array}$$

$$x^4+2x^3-x^2+3x-8=(x^2-x-2)(x^2+3x+4)+13x$$

Kubik tenglamalar.

Kubik tenglamaning umumiy ko'rinishi $ax^3+bx^2+cx+d=0$.

Agar $a+b+c+d=0$ bo'lsa, tenglama ildizlaridan biri 1 ga teng bo'ladi. Berilgan kubik tenglama $x-1$ ga qoldiqsiz bo'linadi.

Keltirilgan kubik tenglamaning umumiy ko'rinishi $x^3+px^2+qx+r=0$. Bunda tenglamaning ildizlari uning koeffitsiyentlari bilan quyidagicha bog'langan bo'ladi:

$x_1+x_2+x_3=-p;\quad x_1x_2+x_2x_3+x_1x_3=q;\quad x_1\cdot x_2\cdot x_3=-r.$

2.14. Kvadrat tengsizliklar, ularni intervallar metodi bilan yechish.

Kvadrat tengsizliklarni yechish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

1. Kvadrat tengsizlikni shartli ravishda nolga tenglab, ildizlarini, ya'ni *OX* o'qi bilan kesishish nuqtalarini aniqlanadi.
2. Aniqlangan nuqtalar orqali interval (oraliq) lar tuziladi.
3. Intervallardagi ishoralar aniqlanadi.
4. Tengsizlik shartiga asosan javob aniqlanadi.

Agar kvadrat tengsizlik kasr sondan tashkil topgan bo'lsa, uni maxrajini nolga aylantiruvch, hamda noldan farq qiluvchi qiymatlar tengsizlik yechimga kiritilmaydi.

Kvadrat tengsizliklarni yechishga doir misollar:

1) $x^2+6x+5\le 0$ tengsizlikni yeching. Uning ildizlarini aniqlaymiz: $x_{1,2}=-3\pm\sqrt{9-5}=-3\pm 2;\ x_1=-5;\ x_2=-1.$ Bu niqtalar orqali intervallar ajratib, ulardagi ishoralarni aniqlaymiz:



Tengsizlikni yechimi $(-\infty;-5]U[-1;\infty)$

2)) $6x-x^2>0$ tengsizlikni yeching va uning quyidagi qiymatlarini aniqlang.

Uning ildizlarini aniqlaymiz: $x(6-x)>0$ bundan $x_1=0;\ x_2=6$. Bu niqtalar orqali intervallar ajratib, ulardagi ishoralarni aniqlaymiz:



Tengsizlikni yechimi $(0;6)$.

- Nechta butun yechimi bor. 5 ta (1,2,3,4,5)
- Nechta tub yechimi bor. 3 ta (2,3,5)
- Eng katta va eng kichik butun yechimlarining ayirmasini toping. $5 - 1 = 4$.
- Butun yechimlarini o‘rta arifmetigini toping. $O‘ar = \frac{1+2+3+4+5}{5} = 3$.

3) $\frac{3x}{4-x} \leq 0$ tengsizlikni yeching va uning eng kichik musbat butun yechimi bilan eng katta manfiy butun yechimi ayirmasini toping.

Uning ildizlarini aniqlaymiz: $x_1 = 0;\ x_2 = 4$. Bu nuqtalar orqali intervallar ajratib, ulardagi ishoralarni aniqlaymiz:



Tengsizlikni yechimi $(-\infty; 0]U(4; \infty)$.

Tengsizlikni eng kichik musbat butun yechimi 5, tengsizlikni eng katta manfiy butun yechimi -1 bo‘lgani uchun $5 - (-1) = 6$.

4) $\frac{1-x}{x^2-9} \leq 0$ tengsizlikni yeching. Uning ildizlarini aniqlaymiz: $x_1 = -3;\ x_2 = 1$ va $x_3 = 3$. Bu nuqtalar orqali intervallar ajratib, ulardagi ishoralarni aniqlaymiz:



Tengsizlikni yechimi $(-3; 1]U(3; \infty)$.

2.15. Bi kvadrat tenglamalar. $ax^4 + bx^2 + c = 0$ ko‘rinishdagi, ya’ni x^2 ga nisbatan kvadrat tenglamalarga bi kvadrat tenglamalar deb yuritiladi. Uning to‘rtta ildizi, ya’ni egri chiziq *OX* o‘qini to‘rt nuqtasidan kesib o‘tadi.

Uning ildizlari $x_{1,2,3,4} = \pm\sqrt{\frac{-b\pm\sqrt{b^2-4ac}}{2a}}$ ya’ni kvadrat tenglama ildizidan yana bir marta ildiz olinadi.

Misol: $x^4 - 10x^2 + 9 = 0$ tenglama ildizlarini ko‘paytmasini toping. Bu tenglamani x^2 ga nisbatan yechamiz:

$(x^2)_{1,2} = 5 \pm \sqrt{25 - 9} = 5 \pm 4;$

Demak $x_1^2 = 1$ bundan $x_{1,2} = \pm 1$ va $x_2^2 = 9$ bundan $x_{3,4} = \pm 3$. Shunda $x_1 = -3,\ x_2 = -1,\ x_3 = 1,\ x_4 = 3$.

Shartga asosan $x_1 \cdot x_2 \cdot x_3 \cdot x_4 = -3 \cdot (-1) \cdot 1 \cdot 3 = 9$.



2.16. Modulli tenglamalar va tengsizliklar.

O‘lcham yoki qiymatning absalyut qiymatiga uning mo‘luli deb ataladi va u $|a|$ ko‘rinishda ifodalanadi. Bunda $a \in (-\infty; \infty)$ bo‘lib, $|a| \geq 0$ bo‘ladi.

Misol uchun $a = -5$ bo‘lsa, uning mo‘luli $|-5| = 5$ bo‘ladi.

<u>Mo‘lulli tenglamalar</u> deb, mo‘lul ostida no’malum son qatnashgan tenglamalarga aytiladi. Misol: $|x - 3| = 5$ mo‘lulli tenglamani yeching. Buni $x - 3 = \pm 5$; yoki $x = 3 \pm 5$, bundan $x_1 = -2;\ x_2 = 8$; Bundan ko‘rinadiki, mo‘lulli tenglamalarni yechish uchun, mo‘lul ostidagi ifoda, mo‘luldan chiqqan ifodaning qarama-qarshisiga tenglashtirilar ekan.



<u>Mo‘lulli tengsizliklar.</u> Mo‘lulli tengsizliklar ham xuddi kvadrat tengsizliklarniki kabi yechiladi. Misol uchun $|2x + 5| < 7$ tengsizlikni yeching.

Bu tengsizlikni noldan farqli qilib, quyidagi $|2x+5|-7<0$ ko‘rinishda yozamiz.

Tengsizlikni mo‘luldan chiqarib, $2x+5<\pm 7$ yoki $2x<-5\pm 7$ ko‘rinishda yozish mumkin, bundan $x_1=-6;\ x_2=1$.



Bu nuqtalar orqali intervallar ajratib, ulardagi isho-ralarni aniqlaymiz: Tengsizlikni yechimi $(-6;1)$.

2.17. Irratsional tenglamalar va tengsizliklar.

Ildiz ostida no’malum son qatnashgan tenglamalarga, irratsional tenglamalar deb ataladi.

Misol uchun $\sqrt[n]{f(x)}=0$. Agar tenglama ildiz ko‘rsatkichi juft ($n=2;\ n=4;$ $n=6;$) bo‘lgan ildiz ostida bo‘lsa, $f(x)\geq 0$ shartga amal qilish kerak.

Irratsional tenglamalarga doir misollar:

1) $\sqrt{3x-2}=4$ irratsional tenglamani yeching. Tenglikni ikkala tomonini kvadrat-ga oshirsak $3x-2=16$ bo‘ladi, bundan $x=6$.

2) $3\sqrt{x-2}=\sqrt{2x+3}$ irratsional tenglamani yeching. Tenglikni ikkala tomonini kvadratga oshirsak $9x-18=2x+3$ bo‘ladi, bundan $x=3$.

3) $\sqrt[3]{3-x}=3$ irratsional tenglamani yeching. Tenglikni ikkala tomonini kubga oshirsak $3-x=27$ bo‘ladi, bundan $x=-24$.

4) $x-\sqrt{x+1}=1$ tenglamani yeching. Bu tenglamani quyidagi $\sqrt{x+1}=x-1$ ko‘rinishda yozamiz. Bunda tenglamaning ildizi $x-1\geq 0$ yoki $x\geq 1$ bo‘lishi kerak.

Tenglikni ikkala tomonini kvadratga oshirsak $x+1=(x-1)^2$ bo‘ladi, buni soddlashtirib, $x^2-3x=0$. Bundan $x_1\neq 0,\ x_2=3$.

5) $\sqrt{x}+2\sqrt[4]{x}-15=0$ tenglamani yeching.

Bu tenglamani quyidagi $\sqrt[4]{x^2}+2\sqrt[4]{x}-15=0$ ko‘rinishda yozamiz. Tenglamaning ildizi $x\geq 0$ bo‘lishi kerak. Bu tenglamani $\sqrt[4]{x}$ ga nisbatan kvadrat tenglama qilib yechamiz:

$\left(\sqrt[4]{x}\right)_{1,2}=-1\pm\sqrt{1+15}=-1\pm 4$ bo‘ladi. Unda $\left(\sqrt[4]{x}\right)_1\neq -5,\ \left(\sqrt[4]{x}\right)_2=3$ bo‘ladi, bundan $x=81$.

6) $\sqrt{\frac{3-x}{x-1}}+3\sqrt{\frac{x-1}{3-x}}=4$ tenglamani yeching. Tenglamaga quyidagicha o‘zgarti-rish kiritamiz: $t=\sqrt{\frac{3-x}{x-1}}$. Shunda $t+\frac{3}{t}-4=0$ yoki $t^2-4t+3=0$. Bu tenglamani yechib, $t_{1,2}=2\pm 1$ bundan $t_1=1;\ t_2=3$. t ning bu qiymatlarini belgilab olingan joyga qo‘yib, tenglamaning quyidagi yechimlarini hosil qilamiz: $\sqrt{\frac{3-x}{x-1}}=1$. Buni ikkala tomonini kvadratga oshirib, $3-x=x-1$ ni hosil qilamiz.

Bundan $x=2$. $\sqrt{\frac{3-x}{x-1}}=3$. Buni ikkala tomonini kvadratga oshirib,

$3-x=9x-9$ ni hosil qilamiz. Bundan $x=2{,}2$.

Irratsional tengsizliklarga doir misollar:

1) $\sqrt{x+1} < 2$ tengsizlikni yeching. Bunda $x+1 \geq 0$ yoki $x \geq -1$ bo‘lishi kerak.

Tengsizlikni ikkala tomonini kvadratga oshirsak $x+1 < 4$ bo‘ladi, bundan $x < 3$.



Shunda tengsizlikni yechimi $-1 \leq x < 3$ yoki [-1;3)

2) $\sqrt{x+5} > -2$ tengsizlikni yeching. Bunda $x+5 \geq 0$ yoki $x \geq -5$ bo‘lishi kerak.

Shunda tengsizlikni yechimi $x \geq -5$ yoki [-5;∞).



3) $(x-1)\sqrt{x} < 0$ tengsizlikni yeching. Bunda $x \geq 0$ hamda $x < 1$ bo‘lishi kerak.

Shartga asosan $x \neq 0$. Shunda tengsizlikni yechimi $(0; 1)$.

4) $\frac{\sqrt{2x^2+5x-7}}{x+6} > 0$ tengsizlikni yeching. Bunda birinchidan $2x^2+5x-7 \geq 0$, ikkinchidan $x+6 > 0$ bo‘lishi kerak. Birinchi tengsizlikni yechimi quyidagicha aniqlanadi. Uning absissa o‘qi bilan kesishish nuqtalarini aniqlaymiz:

$$x_{1,2} = \frac{-5 \pm \sqrt{25+4\cdot 2\cdot 7}}{2\cdot 2} = \frac{-5 \pm 9}{4}; \;\; x_1 = -3{,}5; \; x_2 = 1.$$

Bu nuqtalar orqali intervallar ajratib, ulardagi ishoralarni aniqlaymiz:



Birinchi tengsizlikni yechimi $(-\infty; -3{,}5]U[1; \infty)$

Ikkinchi tengsizlikni yechimi quyidagicha aniqlanadi: $x > -6$.

Bu tengsizliklarni yechimini birlashtirib, quyidagi umumiy yechimni aniqlaymiz: $(-6; -3{,}5]U[1; \infty)$.

2.18. Koordinatalar sistemasi. Nuqtaning koordinatalari. Simmetirik nuqtalar.

Koordinatalar sistemasi. Matematikada koordinatalar sistemasining ikki turidan foydalaniladi.

Ulardan biri ikki o‘lchamli (tekislikda, Dekard koordinatalar sistemasi *a*-rasm). Ikkinchisi, uch o‘lchamli yoki qutub koordinatalar sistemasi deb yuritiladi (*b*-rasm).







Nuqtaning koordinatalari. Agar nuqta Dekard koordinatalar sistemasida bo‘lsa, x va y o‘qlaridan shu nuqtalarni topib, o‘qlarga paralellar o‘tkazamiz, paralellarning kesishishgan joyida berilgan nuqta joylashgan bo‘ladi. Agar nuqta qutub koordinatalar sistemasida bo‘lsa, x va y o‘qlaridan shu nuqtalarni topib, o‘qlarga paralellar o‘tkazamiz, paralellarning kesishishgan nuqtasidan z o‘qi bo‘ylab uning qiymati qo‘yiladi.

Simmetirik nuqtalar. Bu berilgan nuqtalarni, o‘qlardan tuzilgan tekislikka nisbatan akslantirishdan hosil bo‘lgan nuqtadir. Agar berilgan nuqtani koordinata boshiga nisbatan akslantirilsa, uning barcha qiymatlari qarama-qarshi ishorasiga o‘zgaradi.

2.19. Funksiya, uning xossalari (grafigi, aniqlanish sohasi, qiymatlar (o‘zgarish) sohasi, juft va toqliligi, teskari funksiya).

Funksiya deb, o‘zgaruvchi erkli omil x argumentning qabul qilishi mumkin bo‘lgan sonlar to‘plamiga aytiladi. Funksiya, bu erksiz o‘zgaruvchi omil bo‘lib, u y bilan belgilanadi.

Funksiyaning umumiy ko‘rinishi $y = f(x)$. Misol uchun fizikada S yo‘lni funksiya, vaqt o‘zgarishi t ni argument deb qabul qilingan.

Funksiyaning xossalari: Funksiyaning xossalari 17 tadan ortiq. Shulardan ayrimlarini ko‘rsatib o‘tamiz:

1. Funksiyaning grafigi. To‘g‘ri chiziq va parabolaning grafiklari ushbu qo‘llanmaning 8, 16, 20 betlarida berilgan, shuningdek, ayrim funksiyalarning grafiklari qo‘llanmaning ilova qismida ham berilgan.

2. Funksiyaning aniqlanish sohasi. Argument x ning qabul qilishi mumkin bo‘lgan sonlar to‘plamidir va u $D(f)$ deb belgilangan. O‘latda deyarli barcha funksiyalarning aniqlanish sohasi $(-\infty;\infty)$ oraliqda bo‘ladi. Ayrim funksiyalar bundan mustasno. Agar funksiya kasr ko‘rinishda berilgan bo‘lsa, uni maxrajini nolga aylantiruvchi qiymat aniqlanish sohasiga kiritilmaydi. Misol uchun $y = f(x) = \frac{3}{x-2}$ funksiyaning aniqlanish sohasi, $x \neq 2$ ekanligini hi-sobga olgan holda $D(f) = (-\infty; 2)\text{U}(2;\infty)$ bo‘ladi.

3. Funksiyaning qiymatlar (o‘zgarish) sohasi. Funksiyaning o‘zi, ya’ni y ni qabul qilishi mumkin bo‘lgan sonlar to‘plamidir va u $E(f)$ deb belgilangan. O‘latda deyarli barcha fungsiyalarning qiymatlar sohasi $(-\infty;\infty)$ oraliqda bo‘ladi. Ayrim funksiyalar bundan mustasno. Misol uchun $y = ax^2 + bx + c$ parabola ko‘rinishidagi funksiyalarda, parabola shoxining yuqori yoki pastga yo‘nalishiga qarab, parabola uchining ordinatasiga bog‘liq bo‘ladi.

Misol uchun (20 betdagi rasmlarga qarang)

$$(-\infty; -y_u);\quad (-\infty; y_u);\quad (-y_u;\infty);\quad (y_u;\infty).$$

4. Funksiyaning juft yoki toqligi. Agar funksiya o‘zining aniqlanish sohasidagi biron bir manfiy qiymatida musbat $f(-x) = f(x)$ bo‘lsa, yoki funksiyaning grafigi simmetrik bo‘lib, OY o‘qi bo‘yicha qatlaganda ustma-ust tushsa bunday funksiyalar juft funksiyalar deb ataladi.

Misol uchun: $y = x^2$ funksiya o‘z aniqlanish sohasining manfiy qiymati $x = -1$ da funksiya $y = 1$ musbat bo‘lishini ko‘rish mumkin. Yoki yning grafigi (rasmga qarang) simmetrik bo‘lib, OY o‘qi bo‘yicha qatlaganda ustma-ust tushadi (a-rasim).



Agar funksiya o'zining aniqlanish sohasidagi biron bir manfiy qiymatida manfiy $f(-x) = -f(x)$ bo'lsa, yoki funksiyaning grafigi simmetrik bo'lib, *OY* o'qi bo'yicha qatlaganda ustma-ust tushmasa bunday funksiyalar toq funksiyalar deb ataladi (b-rasim).

Misol uchun: $y = x^3$ funksiya o'z aniqlanish sohasining manfiy qiymati $x = -1$ da funksiya $y = -1$ manfiy bo'lishini ko'rish mumkin.

Yoki uning grafigi (rasmga qarang) simmetrik bo'lib, *OY* o'qi bo'yicha qatlaganda ustma-ust tushmaydi.



5. Teskari funksiya. Berilgan funksiyaga teskari bo'lgan funksiyani topish uchun, uni x ga nisbatan yechib, so'ngra x va y larning o'rni almashtiriladi. Masalan $y = 3x$ bundan $x == \frac{1}{3}y$ agar *x* va *y* larning o'rni almashtirsak $y = \frac{1}{3}x$.

2.20. Ikki nuqta orasidagi masofa va undan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi.

Agar tekslikda ikki nuqta va ularning koordinatalari berilgan bo'lsa, ular orasidagi masofani (rasmga qarang) Pifagor teoremasiga asosan topish mumkin.



2.7-rasm.

To'g'ri burchakli uchburchak *ABD* da $AB = d$ gipotenuza (*A* va *B* nuqtalar orasidagi masofa, 2.7-rasm), $AD = x_2 - x_1$ va $BD = y_2 - y_1$lar katetlardir. Bu masofa Pifagor teoremasiga asosan

$AB = d = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y)^2}$ bo'ladi.

Agar nuqta uch o'lchamli sistemada bo'lsa, unda ular orasidagi masofa

$AB = d = \sqrt{(x_2 - x_1)^2 + (y_2 - y_1)^2 + (z_2 - z_1)^2}$.

Chizmadagi *C* nuqta *AB* kesmaning o'rtasi bo'lsa, uning koordinatalarini $C(x_{o'r}; y_{o'r})$ bo'ladi. $x_{o'r} = \frac{x_1+x_2}{2}$, bundan $x_2 = 2x_{o'r} - x_1$; $y_{o'r} = \frac{y_1+y_2}{2}$, bundan $y_2 = 2y_{o'r} - y_1$; $z_{o'r} = \frac{z_1+z}{2}$, bundan $z_2 = 2z_{o'r} - z_1$.

AB nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi $\frac{y-y_1}{y_2-y_1} = \frac{x-x_1}{x_2-x_1} = \frac{z-z_1}{z_2-z_1}$ ko'rinishda bo'ladi.

Misol: $A(-2;3)$ va $B(4;-5)$ nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasini tuzing.

$\frac{y-3}{-5-3} = \frac{x-(-2)}{4-(-2)}$. Buni hisoblab, $y = -\frac{4}{3}x + \frac{1}{3}$ ni hosil qilamiz.

2.21. Aylana tenglamasi. Markazi koordinata boshida bo'lgan aylananing tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi $x^2 + y^2 = R^2$ (2.8-rasm). Bu yerda R aylananing radiusi. Buni, chizmadagi to'g'ri burchakli uchburchak *ABO* dan Pifagor teoremasiga asosan isbotlash mumkin.

Agar aylana markazi $M(a;b)$ koordinata boshidan a va b masofaga ko'chirilgan bo'lsa, uning tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi $(x-a)^2 + (y-b)^2 = R^2$ (2.9-rasm).



2.8-rasm.

Buni, chizmadagi to‘g‘ri burchakli uchburchak ABO_1 dan Pifagor teoremasiga asosan isbotlash mumkin. Aylana markazining $M(a;b)$ choraklarda joylashishi: $M(a;b)$ I - chorak; $M(-a;b)$ II - chorak; $M(-a;-b)$ III - chorak; $M(a;-b)$ IV - chorak.

Misol: $x^2+y^2+6x-8y+21=0$ tenglama bilan berilgan aylanani standart shaklga keltiring.

Berilgan tenglamani quyidagi ko‘rinishda yozamiz: $x^2+6x+9+y^2-8y+16-4=0$ bundan, aylananing standart ko‘rinishini quyidagicha yozish mumkin:

$$(x+3)^2+(y-4)^2=2^2.$$



2.9-rasm.

Bundan quyidagilarni aniqlash mumkin:

- Aylananing rariusi $R=2$.
- Aylana markazining koo‘linatalari $M(-3;4)$.]
- Aylana markazi II chorakda joylashgan.

2.22. Ko‘rsatkichli funksiya, tenglama va tengsizliklar.

Ko‘rsatkichli funksiya deb, darajasida no’malum qatnashgan funksiyalarga aytiladi.

Funksiyaning umumiy ko‘rinishi $y=a^x$. Bu yerda a asos bo‘lib, $a\neq 0$; $a\neq 1$. Daraja haqidagi formulalarning barchasi ko‘rsatkichli funksiya uchun ham o‘rinli bo‘ladi.

Agar $a>1$ bo‘lsa, funksiya o‘suvchi (2.10a-rasm), $0<a<1$ bo‘lsa, funksiya kamayuvchi (2.10b-rasm) bo‘ladi (grafikka qarang).



2.10-rasm.

$y=a^x$ tenglikda $x=0$ bo‘lsa, $y=1$ bo‘ladi. Demak funksiyaning grafigi OY o‘qining bir birligidan kesib o‘tadi (chizmaga qarang).

Ko‘rsatkichli funksiyaning **aniqlanish sohasi,** barcha haqiyqiy sonlar to‘plamidan iborat. $E(f)\rightarrow(-\infty;\infty)$.

Ko‘rsatkichli funksiyaning **qiymatlar (o‘zgarish) sohasi,** barcha musbat haqiyqiy sonlar to‘plamidan iborat. $D(f)\rightarrow(0;\infty)$.

Ko‘rsatkichli funksiya **juft ham toq ham** emas. Agar funksiya $y=a^x+a^{-x}$ ko‘rinishda berilgan bo‘lsa, u juft funksiya bo‘ladi.

Ko‘rsatkichli funksiyaga **teskari** funksiya, logarifmik funksiyadir.

$y=a^x\rightarrow y=log_a x$.

Ko‘rsatkichli tenglama va tengsizliklarga doir misollar.

Quyidagi ko‘rsatkichli tenglamalarni yeching:

1) $7^{x-2}=1$, yechimi $7^{x-2}=7^0$ bundan $x-2=0\rightarrow x=2$.
2) $9^{3-x}=\frac{1}{27}$, yechimi $3^{6-2x}=3^{-3}$ bundan $6-2x=-3\rightarrow x=4{,}5$.
3) $3^{5x-2}=9^{2x}$, yechimi $3^{5x-2}=3^{4x}$ bundan $5x-2=4x\rightarrow x=2$.
4) $2\cdot 9^x-3^{x+1}-9=0$, buni quyidagicha yozish mumkin

$$2\cdot 3^{2x}-3\cdot 3^x-9=0.$$

Bu esa 3^x ga nisbatan kvadrat tenglamadir buni yechamiz:

$(3^x)_{1,2} = \frac{3\pm\sqrt{9+4\cdot2\cdot9}}{2\cdot2} = \frac{3\pm9}{4}$ bundan $(3^x)_1 \neq -1{,}5;\ (3^x)_2 = 3; x = 1.$

Quyidagi ko‘rsatkichli tengsizliklarni yeching:

1) $5^{x-3} < \frac{1}{25}$ yechimi $5^{x-3} < 5^{-2}$ bundan $x - 3 < -2 \to x < 1$ yoki $(-\infty; 1)$.

2) $0{,}8^{x^2+3x} \geq 1$ yechimi $0{,}8^{x^2+3x} \geq 0{,}8^0$ yoki $x^2 + 3x \leq 0$ bundan $-3 \leq x \leq 0$ yoki $[-3; 0]$.

3) $\left(\frac{1}{8}\right)^{7-3x} \leq 64$ yechimi $8^{-7+3x} \leq 8^2$ bundan $-7 + 3x \leq 2 \to x \leq 3$ yoki $(-\infty; 3)$.

4) $5^{\sqrt{x-2}} > 5^{1-\sqrt{x-2}} + 4$ yechimi, bunda $x - 2 \geq 0 \to x \geq 2$, tengsizlikni quyida-gi ko‘rinishda yozamiz: $5^{\sqrt{x-2}} > \frac{5}{5^{\sqrt{x-2}}} + 4$ bundan

$\left(5^{\sqrt{x-2}}\right)^2 - 4 \cdot 5^{\sqrt{x-2}} - 5 > 0$ bu esa $5^{\sqrt{x-2}}$ ga nisbatan kvadrat tenglama uni yechamiz: $\left(5^{\sqrt{x-2}}\right)_{1,2} = 2 \pm \sqrt{4+5} = 2 \pm 3$; $\left(5^{\sqrt{x-2}}\right)_1 \neq -1$, $\left(5^{\sqrt{x-2}}\right)_2 = 5$ bundan $\sqrt{x-2} = 1$, yoki $x = 3$.



Quyidagicha intervalni tuzib, undgi ishoralarni aniqlaymiz: yechim $[3; \infty)$.

2.23. Logarifmik funksiya, tenglama va tengsizliklar.

$y = log_a x$ ko‘rinishdagi funksiyalarga logarifmik funksiyalar deb ataladi. Bu yerda x - logarifmning argumenti, a - logarifmning asosi bo‘lib, u har doim musbat, hamda $a \neq 0$; $a \neq 1$ bo‘lishi kerak. Agar $a > 1$ bo‘lsa, funksiya o‘suvchi, agar $0 < a < 1$ bo‘lsa, funksiya kamayuvchi bo‘ladi (grafikka qarang).

$y = log_a x$ tenglikda $x = 1$ bo‘lsa, $y = 0$ bo‘ladi. Demak funksiyaning grafigi OX o‘qining bir birligidan kesib o‘tadi (chizmaga qarang).

Logarifmar o‘nli, ya’ni asosi $a = 10$, bunda asos yozilmaydi, masalan lgx; natural, uning asosi $e = 2{,}71$ bo‘lib, u ham yozilmaydi, masalan lnx.



2.11-rasm.

Bu funksiyalar bir biridan grafiklari bilan farq qiladi.

Logarifmik funksiyaning **aniqlanish sohasi,** barcha musbat haqiyqiy sonlar to‘plamidan iborat. $D(f) \to (0; \infty)$.

Logarifmik funksiyaning **qiymatlar (o‘zgarish) sohasi,** barcha haqiyqiy sonlar to‘plamidan iborat. $E(f) \to (-\infty; \infty)$.

Logarifmik funksiya **juft ham toq ham** emas.

Logarifmik funksiyaga **teskari** funksiya, ko‘rsatkichli funksiyadir.

$y = log_a x \to y = a^x$

Logarifmik formulalar.

1) Logarifm har qanday asosga ko‘ra 1 nolga teng; $log_a 1 = 0$.

M: $log_3 1 = 0,\ log_{0,5} 1 = 0,\ lg1 = 0,\ ln1 = 0.$

2) Logarifmning asosi va argument teng bo‘lsa u 1 ga teng bo‘ladi.

$M: log_2 2 = 1,\ lg10 = 1,\ lne = 1.$

3) $log_a x^n = nlog_a x.$ $M: log_3 x^4 = 4log_3 x.$

4) $a^{log_b c} = c^{log_b a}.$ $M:\ 7^{log_3 5} = 5^{log_3 7}.$

5) $a^{log_a b} = b.$ $M:\ 3^{log_3 5} = 5.$

6) $log_a x = b \to x = a^b.$ $M: log_3 x = 2 \to x = 3^2 = 9.$

7) Ko‘paytmani yig‘indiga keltirish $log_a(x \cdot y) = log_a x + log_a y.$

$M: log_3(9x) = log_3 9 + log_3 x = log_3 3^2 + log_3 x = 2log_3 3 + log_3 x = 2 + log_3 x.$

8) Bo‘linmani ayirmaga keltirish $log_a \frac{x}{y} = log_a x - log_a y.$

$M:\ log_2 \frac{x}{8} = log_2 x - log_2 8 = log_2 x - log_2 2^3 = log_2 x - 3log_2 2 = log_2 x - 3.$

9) $log_a x = log_a y \to x = y.$

10) Bir asosdan boshqa asosga o‘tish formulasi $log_a b = \frac{log_c b}{log_c a}$.

$M: log_8 x = \frac{log_2 x}{log_2 8} = \frac{log_2 x}{log_2 2^3} = \frac{log_2 x}{3log_2 2} = \frac{log_2 x}{3} = \frac{1}{3}log_2 x.$

Logarifmik tenglama va tengsizliklarga doir misollar.

Quyidagi logarifmetik tenglamalarni yeching:

1) $log_3(2x-1) = 2$, yechimi (6) formuladan foydalanib, $2x - 1 = 3^2$ ekanligi aniqlanadi va bundan $2x = 10 \to x = 5.$

2) $log_5(x-10) = 2 + log_5 2$, yechimi bu tenglamani quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$log_5(x-10) = 2log_5 5 + log_5 2,\ \ log_5(x-10) = log_5 5^2 + log_5 2 =$
$= log_5 25 + log_5 2 == log_5 50$, (9) formuladan foydalanib, $x - 10 = 50 \to x = 60.$

3) $lg(3-x) - lg(x+2) = 2lg2,$ bu tenglamaning aniqlanish sohasi

$(-2 < x < 3)$ oraliqda bo‘ladi, tenglamani chap tomonini (8) va o‘ng tomonini (3) formuladan foydalanib, quyidagi ko‘rinishda yozamiz: $lg\frac{3-x}{x+2} = lg2^2 = lg4$, (9) for-mulaga asoslanib, bu tenglikni quyidagicha yozamiz:

$\frac{3-x}{x+2} = 4$ yoki $3 - x = 4x + 8 \to x = -1.$

4) $log_5\sqrt{2x+3} = log_{25}7$, bu tenglamaning aniqlanish sohasi $(x > 1{,}5)$.

Tenglikning chap tomonini (10) formuladan foydalanib, 5 asosga o‘tamiz:

$log_{25}7 = \frac{log_5 7}{log_5 25} = \frac{log_5 7}{log_5 5^2} = \frac{1}{2}log_5 7 = log_5\sqrt{7}.$ (9) formulaga asoslanib, bu tenglikni quyidagicha yozamiz: $\sqrt{2x+3} = \sqrt{7}$ yoki $2x + 3 = 7 \to x = 2.$

5) $log_3^2(27x) = log_3 x^6,$ bu tenglamani quyidagicha yozamiz;

$(log_3 27 + log_3 x)^2 = 6log_3 x \to (3 + log_3 x)^2 - 6log_3 x = 0$ yoki,
$9 + 6log_3 x + log_3^2 x - 6log_3 x = 0.$ Bundan $log_3^2 x \neq -9$, demak temglama yechimga ega emas.

6) $log_2\left(16 \cdot 4^{3(1-x)+1}\right) + 1 = 0.$ $log_2\left(2^4 \cdot 2^{2(3(1-x)+1)}\right) + 1 = 0,$
$log_2(2^{4+6-6x+2}) + 1 = 0,\ log_2(2^{12-6x}) + 1 = 0,\ 2^{12-6x} = 2^{-1}$ bundan $x = 2\frac{1}{6}$

7) $4 \cdot 2^{lgx^2} + 11 \cdot 2^{lgx} = 3.$ $\quad 4 \cdot \ (2^{lgx})^2 + 11 \cdot 2^{lgx} - 3 = 0$, bundan $(2^{lgx})_{1,2} = \frac{-11 \pm \sqrt{121+4\cdot4\cdot3}}{8} = \frac{-11\pm13}{8}$ $\ (2^{lgx})_1 \neq -3, \quad (2^{lgx})_2 = \frac{1}{4} = 2^{-1}$ $lgx = -1$ bundan $x = 0{,}01$.

8) $\left(\sqrt{3}\right)^{2log_{0,01}(x^2+1)} = \frac{1}{3\cdot 3^{log_{0,01}(x^2+1)}}$ tenglamaning eng katta ildizini toping.

Tenglamani quyidagi ko‘rinishga keltiramiz; $3^{log_{0,01}(x^2+1)} = 3^{-(log_{0,01}(x^2+1)+1)}$ yoki, $2log_{0,01}(x^2+1) + 1 = 0$, bo‘ladi, $x^2 + 1 = 0{,}01^{-\frac{1}{2}}$ bundan $x^2 = 10 - 1 = 9$, $x = \pm 3$, tenglamaning eng katta ildizini 3 ga teng bo‘ladi.

9) $log_2(x-1) + log_{(x-1)}\frac{1}{4} = 1$ tenglama ildizlarining yig‘indisini toping. $x \neq 1$

$log_2(x-1) + \frac{log_2 2^{-2}}{log_2(x-1)} - 1 = 0, \ \ log_2^2(x-1) - log_2(x-1) - 2 = 0.$

$\left(log_2(x-1)\right)_{1,2} = \frac{1}{2} \pm \frac{3}{2}$; $\ \left(log_2(x-1)\right)_1 = -1 \to x_1 = \frac{3}{2}$, $\left(log_2(x-1)\right)_2 = 2 \to$ $x_2 = 5$ demak. $x_1 + x_2 = \frac{3}{2} + 5 = 6\frac{1}{2}$.

<u>Quyidagi logarifmik tengsizliklarni yeching:</u>

1) $log_3(x-2) \leq 2$, aniqlanish sohasi $x - 2 > 0 \to x > 2$. $(x-2) \leq 3^2$ yoki $x \leq 11$.

Tengsizlikni yechimi $2 < x \leq 11$.

2) $log_{\frac{1}{4}}(x+1) > -\frac{3}{2}$, aniqlanish sohasi $x + 1 > 0 \to x > -1$. $(x+1) < \left(\frac{1}{4}\right)^{-\frac{3}{2}}$ yoki $\quad x < 7$. Tengsizlikni yechimi $-1 < x < 7$.

3) $5^{log_5(2x-1)} < 7$, aniqlanish sohasi $2x - 1 > 0 \to x > 0{,}5$. (5) formuladan foydalanib, $5^{log_5(2x-1)} = 2x - 1$ ekanligini aniqlaymiz. Shunda berilgan tengsizlik quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi: $2x - 1 < 7$ yoki $x < 4$.

Tengsizlikni yechimi $0{,}5 < x < 4$.

4) $log_3^2(x-1) - 2log_3(x-1) > 3. \ \ log_3^2(x-1) - 2log_3(x-1) - 3 > 0.$ Bu tengsizlikni shartli ravishda nolga tenglab, uni *ox* o‘qi bilan kesishish nuqtalarini topiib, ulardan intervallar tuzamiz: $x - 1 > 0$ yoki $x > 1$.



$\left(log_3(x-1)\right)_{1,2} = 1 \pm 2$; $\ \left(log_3(x-1)\right)_1 = -1 \to$ $x_1 = \frac{4}{3}$, $\left(log_3(x-1)\right)_2 = 3 \to x_2 = 28.$ Uechim $\left(1; \frac{4}{3}\right) \cup (28; \infty)$.

5) $(x-3)^{log_{(x-3)}(49-x^2)} \leq 13.$ $x - 3 > 0 \ \to x > 3, \ 49 - x^2 > 0, 49 - x^2 \leq 13$, yoki $x^2 - 36 \geq 0$.

Bu tengsizlikni shartli ravishda nolga tenglab, uni *ox* o‘qi bilan kesishish nuqtalarini topiib, ulardan intervallar tuzamiz:



Chizmadan tengsizlikning yechimi $[6; 7)$

3. GEOMETRIYA



3.1-rasm.

3.1. Burchak, uning turlari va o‘lchov birliklari. *A* nuqtadan chiqqan *AB* va *AC* nurlar orasida burchak б hosil bo‘ladi, uni o‘latda $\angle BAC$ deb yoziladi. Demak burchakni yozishda bur-chak uchidagi harf o‘rtaga olib yozilar ekan (3.1-rasm).

Burchakning turlari. 1) O‘tkir burchak $0 < б < 90^0$ (3.2*a*-rasm).

2) Burchakni teng ikkiga bo‘luvchi kesmaga ***bissektrisa*** (3.2*a*-rasm) deb ataladi $д = б/2$.

3) To‘g‘ri burchak $б = 90^0$ (3.2*b*-rasm). 4) O‘tmas burchak $90^0 < б < 180^0$ (3.2*c*-rasm).

5) Qo‘shni va qarama-qarshi burchaklar (3.2*d*-rasm).

Qo‘shni burchaklarning yig‘indisi $б + в = 180^0$ ga teng bo‘ladi.



3.2-rasm.

Agar ikkita *a* va *b* parallil to‘g‘ri chiziqlarni uchinchi to‘g‘ri chiziq kesib o‘tsa, ular-ning barcha qarama-qarshi borchaklari teng bo‘ladi (3.2*e*-rasm).

Burchakning o‘lchov birligi. Burchaklar gradus yoki radianda o‘lchanadi.

Ikki nurdan biri to‘liq bir marta aylansa 360^0 yoki 2p radian masofa bosadi. Demak $360^0 = 2p$ yoki $180^0 = p$. Bundan $1_{rad} = \frac{180^0}{p} = \frac{180^0}{3{,}14} = 57^0 3' 25''$.

Radiandan gradusga, gradusdan radianga o‘tish. Berilgan $б^0$dagi burchakdan radianga o‘tish uchun uni $\frac{p}{180^0}$ ga ko‘paytirish kerak. Misol uchun 120^0 li burchakni radianga aylantiring. $120^0 \cdot \frac{p}{180^0} = \frac{2p}{3}$ radian. Berilgan $б_{rad}$ dagi burchakdan gradusga o‘tish uchun uni $\frac{180^0}{p}$ ga ko‘paytirish kerak. Misol uchun $\frac{5p}{3}$ radianli burchakni gradus-ga aylantiring. $\frac{5p}{3} \cdot \frac{180^0}{p} = 300^0$.

Qo‘shni burchaklarga doir masalalar:

1) Ikki parallel to`g`ri chiziqni 3-to`g`ri chiziq kesib o`tganda hosil bo`lgan ichki bir tomonli burchaklardan biri ikkinchisidan 100^0 ga kichik bo`lsa, shu burchaklardan kattasini toping.

Yechish: *Qo‘shni burchaklarning yig‘indisi* $\alpha + \beta = 180^0$ *ga teng. Masala shartiga asosan* $\alpha = \beta - 100^0$ *yoki* $\alpha - \beta = -100^0$ *bularni birgalikda sistema qilib yechamiz:*

$$\begin{cases} \alpha + \beta = 180^0 \\ \alpha - \beta = -100^0 \end{cases}$$ *tengliklarni bir biridan ayirsak,* $2\beta = 280^0 \rightarrow \beta = 140^0$.

2) Qo‘shni burchaklardan biri ikkinchisidan 52^{o} ga katta bo‘lsa, shu burchaklardan kichigini toping.

Yechish: *Qo‘shni burchaklarning yig‘indisi* $б + в = 180^0$ *ga teng. Masala shartiga asosan* $б = в + 52^0$ *yoki* $б - в = 52^0$ *bularni birgalikda sistema qilib yechamiz:*

$\begin{cases} б + в = 180^0 \\ б - в = 52^0 \end{cases}$ *tengliklarni bir biridan ayirsak,* $2в = 128^0 \rightarrow в = 64^0$.

3) Qo‘shni burchaklardan biri ikkinchisidan 4 marta katta bo‘lsa, shu burchaklardan kichigini toping.

Yechish: *Qo‘shni burchaklarning yig‘indisi* $б + в = 180^0$ *ga teng. Masala shartiga asosan* $б = 4в$ *buni α ni o‘rniga qo‘ysak,* $4в + в = 180^0$*yoki* $в = 36^0$.

3.2. Aylana va doira ularning asosiy ko‘rsatkichlari.



3.3-rasm.

Aylana deb, markaz deb ataluvchi bir (0) nuqtadan baravar uzoqlikda joylashgan nuqtalarning geometrik o‘rniga aytiladi (3.3-rasm). Aylananing markaziy burchagi $б + ц = 360^0$ ga teng.

Aylananing ixtiyoriy ikki *AB* nuqtasini birlashtiruvchi chiziq ***vatar*** deb ataladi.

Markazdan o‘tgan vatar $(BC = D)$ga ***diametr***, diametrning yarmiga $R = \frac{D}{2}$ ***radius*** deb ataladi.

Aylananing uzunligi $\ell = р \cdot D = 2рR$ ga teng. (3.1)

Har qanday aylana uzunligini, uning diametriga nisbati o‘zgarmas kattalik bo‘lib, u $р = \frac{\ell}{D} = 3{,}14$ ga teng.

Aylananing *AB* vatari uni ikkita б burchakka tiralgan kichik va ц burchakka tiralgan katta yoylarga ajratadi (yoy, hariflar ustida maxsus yoysimon belgi qo‘yish $(\widetilde{AB})$ orqali ifodalash).

AB vatar, katta yoyning ixtiyoriy *D* nuqtasidan в burchak ostida ko‘rinadi.

Uni quyidagicha aniqlash mumkin, $в = \frac{б}{2}$, *AB* vatar, kichik yoyning ixtiyoriy *E* nuqtasidan г burchak ostida ko‘rinadi. Uni quyidagicha aniqlash mumkin,

$$г = \frac{360^0 - б}{2} = 180^0 - \frac{б}{2}.$$

Agar aylananing radiusi va yoy tiralgan burchak berilgan bo‘lsa, bu yoyning uzunligini quyidagicha aniqlash mumkin: $\widetilde{AB} = \check{\ell} = \frac{рR}{180^0} \cdot б$ (3.2)

Aylananing vatarlari kesishgan nuqtasidagi bo‘laklarining nisbati.



3.4-rasm.

Aylananig *AB* va *CD* vatarlari kesishgan *E* nuqtada tegishli ravishda uzunliklari *n*, *m* va *x*, *y* kesmalarga ajralgan bo‘lsa (3.4-rasm), bu kesmalarning ko‘paytmasi bir biriga teng bo‘ladi. $n \cdot m = x \cdot y$ (3.3)

Isbot: *3.4-rasidagi uchburchak* AEC, *uchburchak* BED *ga o‘xshashligidan foydalanib,* $\frac{m}{x} = \frac{y}{n}$ *bundan* $n \cdot m = x \cdot y$

Masala: *AB vatarning uzunligi $\ell = 16\ sm$, CD vatar AB vatar bilan E nuqtada kesishadi va kesishish nuqtasi AB vatarni $m = 6\ sm$, $n = 8\ sm$ kesmalarga ajratadi (3.4-rasm). AB vatarni E nuqta ajratgan bo'laklari x va y uzunliklarini toping.*

<u>Yechish:</u> $\ell = x + y = 16\ sm$ *dan* $y = 16 - x$ *bu qiymatlarni (3.3) formulaga qo'yib, quyidagi tenlamani hosil vqilamiz:*

$8 \cdot 6 = x(16 - x)$ *yoki* $x^2 - 16x + 48 = 0$, *bu tenlamani yechib,* $x_1 = 4$ *va* $x_2 = 12.\ y_1 = 16 - 4 = 12\ va\ y_2 = 16 - 12 = 4.$ *Demak* $x = 4\ sm, y = 12\ sm.$

Aylanaga o'tkazilgan urunmalar.

R radiusli aylana tashqarida yotgan *A* nuq-tadan uning *B* va *C* nuqtalariga urunmalar o't-kazilgan bo'lsin (3.5-rasm). Aylananing marka-zi *D* nuqtada bo'lsin. Unda *DB* va *DC* kesma-lar, tegishli ravishda *AB* va *AC* kesmalarga per-pendikulyar bo'ladi.



3.5-rasm.

Chizmadan $AB = AC$. $2б + в + 90^0 + 90^0 = = 360^0 \to 2б = 180^0 - в$.

$в + г = 360^0 = 2б + в + 180^0 \to 180^0 = \frac{г+в}{2}$

$2б = 180^0 - в = \frac{г+в}{2} - в$ yoki $2б = \frac{г-в}{2}$ bundan $б = \frac{г-в}{4}$ (3.4)

Aylananing ikkita vatari aylanadagi *B* nuqtada uchrashib, qolgan uchlari aylananing *A* va *B* uchlarida yotgan bo'lsin. Agar aylana markazi *O* nuqtada bo'lsa, *ABCO* to'rt-burchakda б, в, г va ц burchaklarni hosil qilamnz (3.6*a*-rasm).

3.6*b*-rasmdan $AO = OB = OC = R$.



3.6-rasm.

Rasmdan $360^0 = 360^0 - 2(б + г) + ц$. Bundan $ц = 2(б + г)$. (3.5)

<u>Doira</u> deb, tekislikning aylana bilan chegaralangan qismiga aytiladi. Doiraning yuzi quyidagi formula orqali aniqlanadi: $S = \frac{pD^2}{4} = \frac{p(2R)^2}{4} = \frac{4pR^2}{4} = pR^2$. (3.6)

Doiraning bir bo'lagiga **sektor** deb ataladi. Sektorning yuzi quyidagi formula orqali aniqlanadi: $S_{sek} = \frac{pR^2}{360^0} \cdot б$. (3.7)

Bu yerda б ning qiymati gradusda qo'yiladi.

Halqa - bu ma’lum qalinlikka ega bo‘lgan, silindr simon materialning o‘qiga nisbatan o‘tkazilgan perpendikulyar kesim yuzasidan hosil bo‘lgan shakldir (3.7-tasm). Uning yuzasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$S_h = \frac{\text{p}}{4}\cdot\ (D_1^2 - D_2^2).$ (3.8)

$S_h = \text{p}(R^2 - r^2).$ (3.9)

Strelkali soatnini soat va minut strelka-lari orasidagi burchakni aniqlash.



3.7-rasm.

$$ц = \frac{(60\cdot S + M)360^0}{12\cdot 60} - \frac{M\cdot 360^0}{1\cdot 60} = \frac{60\cdot S - 11M}{2}$$

3.3. To‘rtburchak, uning turlari va asosiy ko‘rsatkichlari. To‘rtburchak deb, istalgan uchta nuqtasi bir to‘g‘ri chiziqda yotmaydigan, to‘rtta nuqtani ketma-ket tutash-tiruvchi kesmadan tashkil topgan geometrik shaklga aytiladi.

To‘rtburchakning quyidagi **turlari** mavjud: ixtiyoriy (3.8*a*-rasm), to‘g‘ri burchakli (3.8*b*-rasm), kvadrat (3.8*c*-rasm), parallelogramm (3.8*d*-rasm), romb (3.8*e*-rasm), trapetsiya (3.8*f*-rasm).

To‘rtburchakning qarama-qashi uchlarini tutashtiruvchi kesmaga **diaganali** deb ataladi va u *d* harfi bilan belgilanadi.

Ixtiyoriy to‘rtburchakning asosiy ko‘rsatkichlari (3.8*a*-rasm):

1. Perimetri (tomonlari uzunliklarining yig‘indisi) $p = a + b + c + e$.
2. Ichki burchaklarining yig‘ndisi $\Sigma б_i = б + в + г + д = 360^0$.
3. Tashqi burchaklarining yig‘ndisi $\Sigma б_t = б_1 + в_1 + г_1 + д_1 = 360^0$.
4. Bitta ichki va bitta tashqi burchaklarining yig‘ndisi $б + б_1 = 180^0$.
5. To‘rtburchakning yuzi:

Asosi va balandligi berilganda $S = a \cdot h$; diagonallari d_1, d_2 va ular orasidagi burchak ц berilganda $S = \frac{1}{2} d_1 \cdot d_2 \cdot sinц$.





3.8-rasm.

6. To‘rtburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusi R. Agar to‘rtburchak, qarama-qarshi burchaklarining yig‘indisi $б + г = 180^0$ yoki $в + д = 180^0$ bo‘lsa, unga tashqi aylana chizish mumkin. $a \cdot c + b \cdot e = d_1 \cdot d_2$ $(Ptolomey\ teoremasi)$.

To‘rtburchakning tomonlari va yuzasi berilganda uni tashqi chizilgan aylananing radiusi quyidagi formula orqali aniqlanadi $R = \frac{1}{4S} \cdot \sqrt{(ab + ce)(ac + be)(ae + bc)}$.

7. To‘rtburchakka ichki chizilgan aylananing radiusi r. Agar to‘rtburchak, qarama-qarshi tomonlarining yig‘indisi $a + c = b + d$ bo‘lsa, unga ichki aylana chizish mumkin.

To‘rtburchakning perimetri va unga ichki chizilgan aylananing radiusi berilganda uning yuzi $S = p \cdot r$; tomonlari berilganda esa $S = \sqrt{p(p - a)(p - b)(p - c)(p - e)}$ formulalar orqali aniqlanadi. Bu yerda $p -$ to‘rtburchakning yarim perimetri.

To‘rtburchakning **bimedianasi** - bu to‘rtburchak tomonlarini o‘rtalarini tutashtiruv-chi kesmadir. Unga doir **Varinyon** teoremasi mavjud.

Teorema-qavariq ko‘pburchak tomonlarining o‘rtalarini birlashtiruvchi chiziqlardan hosil bo‘lgan shakl parallelogramm bo‘ladi va uning yuzi berilgan to‘rtburchak yuzasi-ning yarmiga tengdir.

To‘g‘ri burchakli to‘rtburchakning asosiy ko‘rsatkichlari (3.8*b*-rasm):

1. Perimetri (tomonlari uzunliklarining yig‘indisi) $p = 2a + 2b = 2(a + b)$.
2. Ichki burchaklarining yig‘ndisi $\Sigma б_i = 360^0$. Chunki $б = в = г = д = 90^0$.
3. Tashqi burchaklarining yig‘ndisi $\Sigma б_t = 360^0$.
Chunki $б_1 = в_1 = г_1 = д_1 = 90^0$.
4. Bitta ichki va bitta tashqi burchaklarining yig‘ndisi $б + б_1 = 180^0$.
5. To‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi:
Asosi va balandligi berilganda $S = a \cdot h$; diagonallari d_1, d_2 (bunda diagonallar biri briga teng bo‘ladi) va ular orasidagi burchak ц berilganda $S = \frac{1}{2} \cdot d^2 \cdot sinц$.
6. To‘g‘ri to‘rtburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusi
$R = \frac{d}{2} = \frac{1}{2} \cdot \sqrt{a^2 + b^2}$.
7. To‘g‘ri to‘rtburchakka ichki chizilgan aylananing radiusi r.
Qarama-qarshi tomonlarining yig‘indisi teng bo‘lmagani uchun unga ichki aylana chizish mumkin emas.



Kvadratning asosiy ko‘rsatkichlari (3.8*c*-rasm):

1. Perimetri (tomonlari uzunliklarining yig‘indisi) $p = 4a,\ \ a = \frac{p}{4}$.
2. Ichki burchaklarining yig‘ndisi $\Sigma б_i = 360^0$. Chunki $б = в = г = д = 90^0$.
3. Tashqi burchaklarining yig‘ndisi $\Sigma б_t = 360^0$.
Chunki $б_1 = в_1 = г_1 = д_1 = 90^0$.
4. Bitta ichki va bitta tashqi burchaklarining yig‘ndisi $б + б_1 = 180^0$.
5. Kvadtatning yuzi: Asosi balandligiga teng bo‘lgani uchun $S = a^2$; diagonallari d_1, d_2 (bunda diagonallar biri biriga teng bo‘ladi) va ular orasidagi burchak, bunda $ц = 90^0$ bo‘lgani uchun $S = \frac{1}{2} \cdot d^2$ bo‘ladi. Perimetri berilganda $S = \frac{1}{16} \cdot p^2$.
6. Kvadratga tashqi chizilgan aylananing radiusi uning diagonalining yarmiga teng.

$$R=\frac{d}{2}=\frac{1}{2}\cdot\sqrt{a^2+a^2}=\frac{\sqrt{2}}{2}\cdot a.$$

7. Kvadratga ichki chizilgan aylananing radiusi $r=\frac{a}{2}$.



Parallelogrammning asosiy ko‘rsatkichlari (3.8*d*-rasm):

1. Perimetri (tomonlari uzunliklarining yig‘indisi) $p=2a+2b=2(a+b)$.

2. Ichki burchaklarining yig‘ndisi $\Sigmaб_i=360^0$. Chunki $2б+2в=360^0$.

3. Tashqi burchaklarining yig‘ndisi $\Sigmaб_t=360^0$. Chunki $2б_1+2в_1=360^0$.

4. Bitta ichki va bitta tashqi burchaklarining yig‘ndisi $б+б_1=180^0$.

5. Parallelogrammning yuzi:



Agar asoslari va ularga tushirilgan balandligi berilgan bo‘lsa, $S=a\cdot h_2$; $S=b\cdot h_1$ bu yuzalarni tenglashtirsak, $\frac{a}{b}=\frac{h_1}{h_2}$.

$\frac{h_1}{a}=sinб$ bundan $a=\frac{h_1}{sinб}$ $S=S=a\cdot h_2=\frac{h_1}{sinб}h_2=\frac{h_1h_2}{sinб}$

Diagonallari d_1, d_2 va ular orasidagi burchak ц berilganda $S=\frac{1}{2}d_1\cdot d_2\cdot sinц$. Ikki tomoni va ular orasidagi burchak berilganda $S=a\cdot b\cdot sinб$.

Parallelogrammning diagonali, uni yuzini teng ikkiga, diagonallari esa uni yuzini teng to‘rt bo‘lakka bo‘ladi. Parallelogrammning bissiktrisalari 90^0 li bur-chak ostida kesishadi.

6. Parallelogrammga tashqi aylana chizish mumkin emas, chunki, qarama-qarshi bur-chaklarining yig‘indisi 180^0 ga teng emas.

7. Parallelogrammga ichki aylana chizish mumkin emas, chunki, qarama-qarshi tomonlarining yig‘indisi teng emas.

Rombning asosiy ko‘rsatkichlari (3.8*e*-rasm):



1. Perimetri (tomonlari uzunliklarining yig‘indisi) $p=4a$.

2. Ichki burchaklarining yig‘ndisi $\Sigmaб_i=360^0$. Chunki $2б+2в=360^0$.

3. Tashqi burchaklarining yig‘ndisi $\Sigmaб_t=360^0$. Chunki $2б_1+2в_1=360^0$.

4. Bitta ichki va bitta tashqi burchaklarining yig‘ndisi $б+б_1=180^0$.

5. Rombning yuzi: Asosi va balandligi berilganda $S=a\cdot h$; diagonallari d_1, d_2 va ular orasidagi burchak, bunda $ц=90^0$ bo‘lgani uchun $S=\frac{1}{2}d_1\cdot d_2$. Ikki tomoni va ular orasidagi burchak berilganda $S=a^2\cdot sinб$.

6. Rombga tashqi aylana chizish mumkin emas, chunki, qarama-qarshi burchaklari-ning yig‘indisi 180^0 ga teng emas.

7. Rombga ichki chizilgan aylananing radiusi $r=\frac{h}{2}=\frac{S}{2a}=\frac{1}{2}\cdot a\cdot sinб$.

Trapetsiya. Trapetsiya deb, ikki tomoni parallel, qolgan ikki tomoni parallel bo‘lma-gan to‘rtburchakka aytiladi (3.8*f*-rasm).

Uning ixtiyoriy, teng yonli va to‘g‘ri burchakli turlari bor.

Trapetsiyaning asosiy ko‘rsatkichlari:

Ixtiyoriy trapetsiya uchun.

1. Perimetri (tomonlari uzunliklarining yig‘indisi) $p = a + b + c + e$.
2. Ichki burchaklarining yig‘ndisi $\Sigma б_i = б + в + г + д = 360^0$.
3. Tashqi burchaklarining yig‘ndisi $\Sigma б_t = б_1 + в_1 + г_1 + д_1 = 360^0$.
4. Bitta ichki va bitta tashqi burchaklarining yig‘ndisi $б + б_1 = 180^0$.
5. Trapetsiyaning yuzi ustki va ostki asoslari yig‘indisining yarmi bilan balandligining ko‘paytmasiga teng: $S = \frac{a+b}{2} \cdot h$. Bu yerda $\frac{a+b}{2} = \ell -$ trapetsiyaning o‘rta chizig‘i bo‘ladi. Demak, uning yuzini o‘rta chizig‘i orqali $S = \ell \cdot h$ deb yozish mumkin. Diagonallari d_1, d_2 va ular orasidagi burchak ц berilganda uning yuzi

$$S = \frac{1}{2} d_1 \cdot d_2 \cdot sinц.$$

6. Trapetsiyaga tashqi chizilgan aylananing radiusi *R*. Agar trapetsiyaning qarama-qarshi burchaklarining yig‘indisi $б + г = 180^0$ yoki $в + д = 180^0$ bo‘lsa, unga tashqi aylana chizish mumkin.
7. Trapetsiyaga ichki chizilgan aylananing radiusi *r*. Agar trapetsiyaning qarama-qarshi tomonlarining yig‘indisi $a + b = c + e$ bo‘lsa, unga ichki aylana chizish mumkin.
8. Asoslarining o‘rtalarini tutashtiruvchi kesma uzunligi $\ell_{o‘r}$ berilganda, hamda asosidagi burchaklarning yig‘indisi $б + в = 90^0$ bo‘lsa, $a = \ell - \ell_{o‘r}$; $b = \ell + \ell_{o‘r}$ bo‘ladi. $EF = \ell -$ trapetsiyaning o‘rta chizig‘i bo‘lgani uchun $MF = \frac{b}{2}, EM = FN = \frac{a}{2}$ ga teng.

$MN = \ell - 2EM = \frac{a+b}{2} - 2 \cdot \frac{a}{2} = \frac{b-a}{2}$.

$d_1^2 + d_2^2 = c^2 + e^2 + 2ab$.

$S_2 = S_4 = \sqrt{S_1 \cdot S_3}$. $S_1 \cdot S_3 = S_2 \cdot S_4$.

$$S = \left(\sqrt{S_1} + \sqrt{S_2}\right)^2.$$





Teng yonli trapetsiya uchun.

1. Perimetri (tomonlari uzunliklarining yig‘indisi) $p = a + b + 2c$.
2. Ichki burchaklarining yig‘ndisi $\Sigma б_i = 2б + 2в = 360^0$.
3. Tashqi burchaklarining yig‘ndisi $\Sigma б_t = 2б_1 + 2в_1 = 360^0$.
4. Bitta ichki va bitta tashqi burchaklarining yig‘ndisi $б + б_1 = 180^0$.
5. Teng yonli trapetsiyaning asosidagi burchaklari teng bo‘ladi.
6. Teng yonli trapetsiyaning yuzi ustki va ostki asoslari yig‘indisining yarmi bilan balandligining ko‘paytmasiga teng: $S = \frac{a+b}{2} \cdot h$. Bu yerda $\frac{a+b}{2} = \ell -$ trapetsiyaning o‘rta chizig‘i bo‘ladi. Demak, uning yuzini o‘rta chizig‘i orqali $S = \ell \cdot h$ deb yozish mumkin.

Diagonallari d_1, d_2 (bunda diagonallar biri biriga teng bo‘ladi) va ular orasidagi bur-chak ц berilganda uning yuzi $S = \frac{1}{2} \cdot d^2 \cdot sinц$.

7. Teng yonli trapetsiyaga tashqi chizilgan aylananing radiusi *R*.

Agar uning qarama-qarshi burchaklarining yig‘indisi $б + в = 180^0$ bo‘lsa, unga tashqi aylana chizish mumkin.

8. Teng yonli trapetsiyaga ichki chizilgan aylananing radiusi *r.* Agar uning qarama-qarshi tomonlarining yig‘indisi $a + b = c + e$ bo‘lsa, unga ichki aylana chizish mumkin.



Teng yonli trapetsiyada:

$AE = DF = \frac{b-a}{2}$; $AF = DE = \frac{a+b}{2}$;

$h = \frac{1}{2} \cdot \sqrt{b^2 - a^2}$. $a \cdot b = d^2 - c^2$.

Teng yonli trapetsiyaga aylana ichki chizilgan bo‘lsa, $a + b = 2c$ va $h = 2r$ bo‘ladi.

Chizmadan $h = \sqrt{c^2 - (AE)^2} = \sqrt{\left(\frac{a+b}{2}\right)^2 - \left(\frac{b-a}{2}\right)^2} = \sqrt{a \cdot b}$.

Agar teng yonli trapetsiyaning diagonallari o‘zaro perpendkul-yar bo‘lsa, $h = \frac{a+b}{2} = \ell$; Yuzasi $S = \ell \cdot h = \frac{a+b}{2} \cdot \frac{a+b}{2} = \left(\frac{a+b}{2}\right)^2 = \ell^2$.

$S = \frac{1}{2} \cdot d^2 = h^2$ bo‘ladi.

Agar teng yonli trapetsiyaning diagonallari yon tomoniga perpendkulyar bo‘lsa, $h = \sqrt{\frac{a+b}{2} \cdot \frac{a+b}{2}} = \frac{1}{2}\sqrt{b^2 - a^2}$. Yuzasi $S = \frac{a+b}{2} \cdot \frac{1}{2}\sqrt{b^2 - a^2} = \frac{a+b}{4}\sqrt{b^2 - a^2}$.

To‘g‘ri burchakli trapetsiyga ichki chizilgan aylananing radiusi $r = \frac{ab}{a+b}$.

Isboti:

To‘g‘ri burchakli trapetsiyga aylana ichki chizilgani uchun $2r + c = a + b$ bundan $c = a + b - 2r$.



Chizmadadi to‘g‘ri burchakli uchburchakdan $c = \sqrt{(2r)^2 + (b - a)^2}$ buni c ning o‘rniga qo‘yib, uni ikkala tomonini kvadratga oshirib, quyidagi tenglikni hosil qilamiz:

$4r^2 + b^2 - 2ab + a^2 = a^2 + 2ab + b^2 - 4(a + b)r + 4r^2$

yoki $4(a + b)r = 4ab$ bundan $r = \frac{ab}{a+b}$.

3.4. Uchburchak, uning turlari va asosiy ko‘rsatkichlari. Uchburchak deb, istalgan uchta nuqtasi bir to‘g‘ri chiziqda yotmaydigan, uchta nuqtani ketma-ket tutashtiruvchi kesmadan tashkil topgan geometrik shaklga aytiladi.

Uchburchakning quyidagi **turlari** mavjud: ixtiyoriy (3.9*a*-rasm), teng yonli (3.9*b*-rasm), teng tomonli (3.9*c*-rasm), to‘gr‘i birchakli (3.9*d*-rasm).

Ixtiyoriy uchburchakning asosiy ko‘rsatkichlari (3.9*a*-rasm):

1. Uchburchak mavjud bo‘lishi uchun, uning ixtiyoriy ikki tomon uzunliklarining yig‘indisi uchunchi tomon uzunligidan katta bo‘lishi kerak:

$$\begin{cases} a + b > c > |a - b| \\ b + c > a > |b - c| \\ a + c > b > |a - c| \end{cases}$$

2. Perimetri (tomonlari uzunliklarining yig‘indisi) $p = a + b + c$.

3. Ichki burchaklarining yig‘ndisi $\Sigma б_i = б + в + г = 180^0$.

4. Tashqi burchaklarining yig‘ndisi $\Sigma б_t = б_1 + в_1 + г_1 = 360^0$.

5. Bitta ichki va bitta tashqi burchaklarining yig‘ndisi $б + б_1 = 180^0$.

6. Uchburchakning yuzi, tomonlari uzunligini ularga tegishli balandliklarga bo‘lgan ko‘paytmasining yarmiga teng: $S = \frac{1}{2} \cdot b \cdot h_b$; $S = \frac{1}{2} \cdot a \cdot h_a$; $S = \frac{1}{2} \cdot c \cdot h_c$.



3.9-rasm.

Agar uchburchakning ikki tomoni va ular orasidagi burchak berilgan bo‘lsa, uning yuzi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$S = \frac{1}{2} \cdot b \cdot c \cdot sinб; \; S = \frac{1}{2} \cdot a \cdot c \cdot sinв; \; S = \frac{1}{2} \cdot a \cdot b \cdot sinг.$$

Agar uchburchakning barcha tomonlari berilgan bo‘lsa, uning yuzi Geron formulasi orqali aniqlanadi: $S = \sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)}$. Bu yerda $\frac{a+b+c}{2} = p -$ uchburchak perimetrining yarimi.

7. Uchburchakning o‘rta chizig‘i, uchburchak tomonlariga parallel bo‘lib, uning tegishli tomonini yarmiga teng bo‘ladi: $\ell_a = \frac{a}{2}$; $\ell_b = \frac{b}{2}$; $\ell_c = \frac{c}{2}$.

8. Uchburchakning bissiktrisalari. Bissiktrisa, uchburchak uchidagi burchakni teng ikkiga bo‘lib, shu uchi bilan unga qarshi tomonni birlashtiruvchi kesmadir:

$$д_b = \sqrt{a \cdot c - AE \cdot CE}. \quad д_b = \frac{2 \cdot a \cdot c \cdot cos\frac{в}{2}}{a+c}; \; д_a = \frac{2 \cdot b \cdot c \cdot cos\frac{б}{2}}{b+c}; \; д_c = \frac{2 \cdot a \cdot b \cdot cos\frac{г}{2}}{a+b}.$$

<u>Isbot:</u> *Uchburchakning B uchidagi* в *burchakni bissiktrisa teng ikkiga,* $\frac{в}{2}$ *bo‘ladi (3.9a-rasm). ABC uchburchakning yuzini quyidagicha aniqlaymiz:*

$$S = \frac{1}{2} \cdot a \cdot c \cdot sinв = \frac{1}{2} \cdot д_b \cdot c \cdot sin\frac{в}{2} + \frac{1}{2} \cdot д_b \cdot a \cdot sin\frac{в}{2} = \frac{1}{2} \cdot д_b \cdot sin\frac{в}{2} \cdot (a+c).$$

$$\frac{1}{2}\cdot a\cdot c\cdot 2sin\frac{\beta}{2}\cdot cos\frac{\beta}{2}=\frac{1}{2}\cdot \delta_b\cdot sin\frac{\beta}{2}\cdot\left(a+c\right).$$

Yoki $2\cdot a\cdot c\cdot cos\frac{\beta}{2}=\delta_b\cdot(a+c).$ *Bundan* $\delta_b=\frac{2\cdot a\cdot c\cdot cos\frac{\beta}{2}}{a+c}.$

9. Sinuslar teoremasi. ***Teorema***-uchburchak tomoni o‘z qarshisida yotgan burchak sinusiga proporsionaldir (3.9*a*-rasm). $\frac{a}{sin\text{б}}=\frac{b}{sin\text{в}}=\frac{c}{sin\text{г}}=2R.$

bu yerda *R*-uchburchakka tashqi shizilgan aylananing radiusi.

Isbot: *Uchburchakning berilgan tomonlari va burchaklaridan foydalanib, uni yuzini topamiz:*

$$S=\frac{1}{2}\cdot b\cdot c\cdot sin\text{б}=\frac{1}{2}\cdot a\cdot c\cdot sin\text{в}=\frac{1}{2}\cdot a\cdot b\cdot sin\text{г}$$

yoki $b\cdot sin\text{б}=a\cdot sin\text{в}=c\cdot sin\text{г}$ *bundan* $\frac{a}{sin\text{б}}=\frac{b}{sin\text{в}}=\frac{c}{sin\text{г}}.$

10. Kosinuslar teoremasi. ***Teorema*** - uchburchak tomonining kvadrati, qolgan ikki tomon kvadratlarining yig‘indisidan, shu ikki tomon va ular orasidagi burchak kosinusining ikkilanganligini ayrishga tengdir. $a^2=b^2+c^2-2\cdot b\cdot c\cdot cos\text{б}.$



3.10-rasm.

Isbot: *To‘g‘ri burchakli uchburchak ABD dan (3.10-rasm) Pifagor teoremasiga asosan* $a^2=(c+x)^2+h^2$ *bo‘ladi.*

BCD uchburchakdan $h=b\cdot\sin(180^0-\text{б})=$
$=b\cdot sin\text{б}$ *va* $x=b\cdot cos(180^0-\text{б})=-b\cdot cos\text{б}.$

$a^2=c^2+2cx+x^2+h^2=$
$=c^2-2\cdot b\cdot c\cdot cos\text{б}+b^2\cdot cos^2\text{б}+b^2\cdot sin^2\text{б}.$

Bunda $sin^2\text{б}=1-cos^2\text{б}$ bo‘lganini hisobga olsak, unda tenglik quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi: $a^2=c^2-2\cdot b\cdot c\cdot cos\text{б}+b^2\cdot cos^2\text{б}+b^2(1-cos^2\text{б})$ buni soddlashtirib, quyidagiga ega bo‘lamiz: $a^2=b^2+c^2-2\cdot b\cdot c\cdot cos\text{б}.$

11. Uchburchakning medianalari. Mediana, uchburchak uchidan qarshi tomonining o‘rtasiga tushirilgan kesmadir:

$$m_a=\frac{1}{2}\sqrt{2(b^2+c^2)-a^2};\ m_b=\frac{1}{2}\sqrt{2(a^2+c^2)-b^2};\ m_c=\frac{1}{2}\sqrt{2(a^2+b^2)-c^2}.$$

Isbot: *Uchburchakning B uchidan AC tomoniga tushirilgan mediana unit eng ikkiga,* $\frac{b}{2}$ *bo‘ladi (3.9a-rasm). Kosinuslar teoremasidan foydalanib, quyidagilarni aniqlaymiz:* $c^2=m_b^2+\left(\frac{b}{2}\right)^2-2m_b\cdot\frac{b}{2}\cdot cos\text{ц};$ $a^2=m_b^2+\left(\frac{b}{2}\right)^2+2m_b\cdot\frac{b}{2}\cdot cos\text{ц}.$

Bularni hadma had qo‘shib, quyidagini hosil qilamiz: $2(a^2+c^2)-b^2=4m_b^2.$ *Bundan* $m_b=\frac{1}{2}\sqrt{2(a^2+c^2)-b^2}.$

Uchburchakning medianalari berilganda uni tomonlari va yuzasini topish:

$$a=\frac{2}{3}\sqrt{2(m_b^2+m_c^2)-m_a^2};\ b=\frac{2}{3}\sqrt{2(m_a^2+m_c^2)-m_b^2};\ c=\frac{2}{3}\sqrt{2(m_a^2+m_b^2)-m_c^2}.$$

$S=\frac{4}{3}\sqrt{m(m-m_a)(m-m_b)(m-m_c)}.$ Bu yerda $m=\frac{m_a+m_b+m_c}{2}$ yarim mediana.

Medianalar kesishgan nuqta, ularning mos uzunliklarini 1:2 kabi nisbatdagi kesmalarga ajratadi. Uchburchak medianalari o‘zaro kesishib, berilgan uchburchakni yuzalari bir biriga teng bo‘lgan 6 ta uchburchakka ajratadi, demak ularni yuzi berilgan uchburchak yuzining oltidan bir qismiga teng. $S_1 = S_2 = S_3 = S_4 = S_5 = S_6 = \frac{1}{6} \cdot S$.

Uchburchak medianalari kesishgan nuqtaning koordinatalari: $x_m = \frac{x_1+x_2+x_3}{3}$; $y_m = \frac{y_1+y_2+y_3}{3}$; $z_m = \frac{z_1+z_2+z_3}{3}$. Agar $m_b \perp m_c$ bo‘lsa, $m_a = \sqrt{m_b^2 + m_c^2}$.

12. Uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusi. Uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusini markazini topish uchun uning tomonlari o‘rtasidagi nuqtalardan shu tomonlarning o‘ziga perpendikulyar kesmalar o‘tkaziladi, ularning kesishish nuqtasi uchburchakka tashqi chizilgan aylananing markazi bo‘ladi (3.11-rasm). Tashqi chizilgan aylana radiusi quyidagi formuladan aniqlanadi $R = \frac{abc}{4S}$.



3.11-rasm.

Isbot: *ABC uchburchakning (a-rasm) yuzi* $S = 1/2 \cdot b \cdot c \cdot sin\text{б}$ *ga teng. Sinuslar teoremasiga asosan* $sin\text{б} = \frac{a}{2R}$ *buni formulaga qo‘yamiz:* $S = \frac{1}{2} \cdot b \cdot c \cdot \frac{a}{2R}$ *. Bundan:* $R = \frac{abc}{4S}$ ·

13. *ABC* uchburchak uchlarining koordinatalari $A(x_1;y_1)$, $B(x_2;y_2)$ va $C(x_3;y_3)$ berilganda unga tashqi chizilgan aylana markazining koordinatalarini $M(a;b)$ aniqlash uchun quyidagi sistemani yrechish kerak.

$$\begin{cases} 2a(x_2 - x_1) + 2b(y_2 - y_1) = (x_2 - x_1)(x_2 + x_1) + (y_2 - y_1)(y_2 + y_1) \\ 2a(x_3 - x_1) + 2b(y_3 - y_1) = (x_3 - x_1)(x_3 + x_1) + (y_3 - y_1)(y_3 + y_1) \end{cases}$$

14. Uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusi. Uch-burchakka ichki chizilgan aylana radiusini markazini topish uchun uning uchidagi burchaklaridan bissiktrisalar o‘tkaziladi va ularning kesishish nuqtasi uchburchakka ichki chizilgan aylananing markazi bo‘ladi (3.12-rasm). Ichki chizilgan aylana radiusi quyidagi formuladan aniqlanadi $r = \frac{2S}{a+b+c}$.



3.12-rasm.

Isbot: *Chizmada bissiktrisalarning kesishish nuqtasida uchburchak uchta uchburchakka ajralgan.*

Ularning yuzi $S = \frac{1}{2} \cdot a \cdot r + \frac{1}{2} \cdot b \cdot r + \frac{1}{2} \cdot c \cdot r = \frac{1}{2} \cdot r(a + b + c)$. $r = \frac{2S}{a+b+c}$ ·

15. Bir uchburchakka tashqi va ichki chizilgan aylanalar markazi orasidagi masofa. $L = \sqrt{R^2 - 2Rr}$.

Isbot: *Masala sharti va chizmaga asosan* $L = y + r$ *ni topish talab qilinadi (3.13-rasm). Chizmadan* $x^2 = R^2 - y^2 = (R - y)(R + y)$,



3.13-rasm.

$tg\text{б} = \frac{r}{x}$ *va* $tg2\text{б} = \frac{R-y}{x} = \frac{2tg\text{б}}{1-tg^2\text{б}} = \frac{2\cdot\frac{r}{x}}{1-\frac{r^2}{x^2}} = \frac{2rx}{x^2-r^2}$ ·

Buni so‘ldalashtirsak $(R-y)(x^2-r^2)=2rx^2=2r(R-y)(R+y)$;
$x^2-r^2=2r(R+y)$; $R^2-y^2-r^2=2Rr+2ry$; $R^2-2Rr=$
$=y^2+r^2+2ry; R^2-2Rr=(y+r)^2=L^2$. *Bundan* $L=\sqrt{R^2-2Rr}$.

16. Uchburchaklarning tenglik alomatlari.

- Agar bir uchburchakning ikki tomoni va ular orasidagi burchagi ikkinchi uchburchakning ikki tomoni va ular orasidagi burchagiga mos ravishda teng bo‘lsa, bunday uchburchaklar teng bo‘ladi.
- Agar bir uchburchakning bir tomoni va unga yopishgan burchaklari, ikkinchi uchburchakning mos tomoni va unga yopishgan burchaklariga teng bo‘lsa, bunday uchburchaklar teng bo‘ladi.
- Agar bir uchburchakning uchta tomoni ikkinchi uchburchakning uchta tomoniga mos ravishda teng bo‘lsa, bunday uchburchaklar teng bo‘ladi.

16. Uchburchaklarning o‘xshashlik alomatlari.

- Agar uchburchakning uchta tomoni, ikkinchi uchburchakning mos tomonlariga proporsional bo‘lsa bunday uchburchaklar o‘xshash bo‘ladi.
- Agar bir uchburchakning ikkita burchagi ikkinchi uchburchakning ikkita burchagiga teng bo‘lsa, bunday uchburchaklar o‘xshash bo‘ladi.
- Agar bir uchburchakning ikki tomoni ikkinchi uchburchakning ikki tomoniga proporsinal va bu tomonlar orasidagi burchagi teng bo‘lsa, bunday uchburchaklar o‘xshash bo‘ladi.

Agar tomonlari *a, b, c* bo‘lgan uchburchak, tomonlari a_1, b_1, c_1 bo‘lgan uchburchakka o‘xshash bo‘lsa, ularni birini ikkinchisi ustiga qo‘yganda ustma ust tushishi kerak (3.14-rasm). Shunda $\frac{a}{a_1}=\frac{b}{b_1}=\frac{c}{c_1}$.

Agar ular mos tushmasa bu uchburchaklar o‘xshash emasdir. O‘xshash shakllar yuzalarining nisbati, ularning mos chiziqli o‘lchovlari nisbatining kvadratiga neng: $\frac{S}{S_1}=k^2$.



3.14-rasm.

bu yerda k- proporsionallik koeffitsienti bo‘lib, chiziqli o‘lchamlar nisbatidir:

$$k=\frac{a}{a_1}=\frac{h}{h_1}=\frac{p}{p_1}\cdot$$

Teng yonli uchburchakning asosiy ko‘rsatkichlari (3.9*b*-rasm): Bunda uchburchakning asosidagi burchaklari va asosiga tushirilgan balandlik, bissiktrisa va medianalar bir biriga teng bo‘ladi: $h_a=д_a=m_a$; yon tomoniga tushirilgan balandlik, bissiktrisa va medianalar esa quyidagi tartibda bo‘ladi: $h_b<д_b<m_b$.

Teng tomonli (muntazam) uchburchakning asosiy ko‘rsatkichlari (3.9*c*-rasm): Uning barcha tomonlari va ichki burchaklari bir biriga teng bo‘lib, ular $б=60^0$ dan bo‘ladi. Unga ichki va tashqi chizilgan aylana markazlari bir nuqtada joylashgan bo‘ladi. Unga tashqi chizilgan aylana radiusi $R=\frac{2}{3}\cdot h=\frac{2}{3}\cdot\frac{\sqrt{3}}{2}\cdot a=\frac{\sqrt{3}}{3}\cdot a$, Unga ichki chizilgan aylana radiusi $r = \frac{1}{3} \cdot h = \frac{1}{3} \cdot \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot a = \frac{\sqrt{3}}{6} \cdot a.$

Barcha tomonlariga tushirilgan balandlik, bissiktrisa va medianalar bir biriga teng bo‘ladi. $h = д = m = \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot a.$

Muntazam uchburchakning yuzi: $S = \frac{1}{2} \cdot a^2 \cdot sin60^0 = \frac{1}{2} \cdot a^2 \cdot \frac{\sqrt{3}}{2} = \frac{\sqrt{3}}{4} \cdot a^2.$

To‘g‘ri burchakli uchburchakning asosiy ko‘rsatkichlari (3.9*d*-rasm): Bunda uning bitta burchagi 90^0 bo‘lib, uning qarshisida gipotenuza yotadi, qolgan ikkitasi o‘tkir bur-chak bo‘ladi va ularning qarshisida katetlar joylashgan bo‘ladi. Uning gipotenuzasiga tushirilgan balandlik gipotenuzani c_1 va c_2 kesmalarga ajratadi. Agar bu kesmalar beril-gan bo‘lsa, gipotenuzaga tushirilgan balandlik quydagi formula orqali aniqlanadi:

$$h = \sqrt{c_1 \cdot c_2}.$$

To‘g‘ri burchakli uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusi gipotenizaning yar-miga teng bo‘ladi. $R = \frac{c}{2} \cdot$ Yoki $c = 2R$.



3.15-rasm.

Pifagor teoremasi faqat to‘g‘ri burchakli uchburchak uchun qo‘llaniladi. Pifagor teoremasi.

Teorema - to‘g‘ri burchakli uchburchak gipote-nuzasining kvadrati uning katetlari kvadratlarining yig‘indisiga teng. $c^2 = a^2 + b^2$.

Bundan $c = \sqrt{a^2 + b^2},\ a = \sqrt{c^2 - b^2},\ b = \sqrt{c^2 - a^2}.$

Isbot: *3.15-rasmdan* $c = c_1 + c_2;\ \frac{c_1}{a} = cosб = \frac{a}{c}.$

Bundan $c_1 = \frac{a^2}{c}.\ \ \frac{c_2}{b} = cosв = \frac{b}{c}.$ *Bundan* $c_2 = \frac{b^2}{c}.$ *Shunda*

$c = c_1 + c_2 = \frac{a^2}{c} + \frac{b^2}{c}.$ *Bundan* $c^2 = a^2 + b^2.$

To‘g‘ri burchakli uchburchakda katetlarining yi-g‘indisi, unga tashqi va ichki chizilgan aylana radius-lari yig‘indisining ikkilanganiga teng;

$a + b = 2(R + r)$ o‘rinlidir.



3.16-rasm.

Isbot; *3.16-rasmdan* $c = a + b - 2r$. *Bundan*

$a + b = c + 2r = 2R + 2r = 2(R + r).$

Aylana, to‘rtburchak va uchburchaklar qatnashgan shakillar bo‘yich qo‘shim-cha ma’limotlar:

1) R radiusli aylanaga ichki chizilgan kvadratning yuzi (3.17*a*-rasm) $S_{kv} = 2R^2$ va unga ichki chizilgan muntazam uchburchakning yuzi (3.17*a*-rasm) $S_\Delta = \frac{3\sqrt{3}}{4} \cdot R^2.$

2) *r* radiusli aylanaga tashqi chizilgan muntazam uchburchakning yuzi (3.17*b*-rasm) $S_\Delta = 3\sqrt{3} \cdot r^2.$

3) Tomonlati *a, b* va *c* bo‘lgan uchburchakning uchlaridan boshlab uning tomonlar *k:x, y:z* va *n:m* kabi nisbatda bo‘lingan (3.17*c*-rasm), shu bo‘lingan nuqtalarni birlash-

tirishdan hosil bo‘lgan uchburchak yuzi S_x ni berilgan uchburchak yuziga bo‘lgan nisbati quyidagich aniqlanadi: $\frac{S_x}{S}=\frac{k\cdot y\cdot m+x\cdot z\cdot n}{a\cdot b\cdot c}$.

4) Aylanadan tashqaridagi nuqta *B* dan, unga *BA* urunma va uni kesib o‘tuvchi *BD* kesma o‘tkazilgan bo‘lsa (3.17d-rasm), $(AB)^2 = BD\cdot BC$ bo‘ladi.

5) Yon tomoni b ga teng bo‘lgan teng yunli uchburchakning uchidan tushirilgan balandlik va uni yon tomonlarini hamda asosining o‘rtalarini tutashtiruvch kesmalar teng bo‘lsa (3.17e-rasm), uni yuzasi quyidagi formula orqali aniqlanadi: $S=\frac{\sqrt{3}}{4}\cdot b^2$.



3.17-rasm.

6) To‘g‘ri burchakli uchburchakka *r* radiusli aylana ichki chizilgada (3.17*f*-rasm) uni yuzasi quyidagi formula orqali aniqlanadi: $S=\frac{n\cdot c\cdot(n+r)}{n-r}$.

Agar perimetri berilgan bo‘lsa, uni yuzasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$S=\frac{p\cdot(p-2c)}{4}.$$

7) To‘g‘ri burchakli uchburchakning bissiktrissa va medianasi orasidagi shtrixlangan yuza (3.17g-rasm).

$S_k=\frac{a\cdot b\cdot(b-a)}{4(a+b)}$, gippotenuzaga tushirilgan balandlik va medianalarning nisbati berilganda, katetlarining nisbati:

$$\frac{a}{b}=\frac{\frac{h}{m}}{1+\sqrt{1-\left(\frac{h}{m}\right)^2}}=\frac{r+1}{R-1}.$$

8) Uchburchakning balandligi h, uni asosini $x\!:y=k$ nisbatdagi kesmalarga ajratadi, uni yuzasini teng ikkiga ajratish uchun shu balandlikka parallel bo‘lgan qanday balandlikdagi kesma olish kerak (3.17h-rasm). $h_1=h\sqrt{\frac{k+1}{2}}$.

Agar (3.9a-rasm) $a^2+b^2=c^2$ bo‘lsa, uchburchak no‘g‘ri burchakli; $a^2+b^2>c^2$ bo‘lsa, uchburchak o‘tkir burchakli; $a^2+b^2<c^2$ bo‘lsa, uchburchak o‘tmas burchakli bo‘ladi.

Tekslikni kesib o‘tuvchi va unda yotmaydigan to‘g‘ri chiziq, nuqtadan tekslikka tushirilgan og‘ma va perpendikulyarga doir masalalar.

1) Tekslikni kesib o‘tuvch ℓ uzunlikdagi kesmaning uchlari tekslikdan a va b masofada joylashgan bo‘lsa (3.17i-rasm), kesmaning o‘rtasi tekislikdan qanday x masofada joylashgan bo‘ladi. $x=\frac{b-a}{2}$.

2) Tekslikni kesib o‘tmaydigan *AB* to‘g‘ri chiziqning uchlari tekslikdan a va b masofada joylashgan bo‘lsa (3.18-rasm), uni tekslik bilan tashkil qilgan burchagining sinusini toping.

$$sinб=\frac{b-a}{AB}.$$



3.18-rasm.

3) *A* nuqtadan tekslikka *AB* og‘ma va *AC* perpendikulyar tushirilgan.

Og‘maning uzunligi 8, perpendikulyar va og‘ma orasidagi burchak $б=arcsin\,0{,}75$ bo‘lsa, perpendikulyarning uzunligini aniqlang (3.19-rasm).



3.19-rasm.

Yeshish: *Masala shartiga asosan* $sinб=0{,}75=\frac{3}{4}$. *Rasmdan* $\frac{AC}{AB}=sinб$. *Bundan* $AC=AB\cdot sinб=8\cdot\frac{3}{4}=6$.

4) *A* nuqtadan tekslikka *AB* og‘ma va *AC* perpendikulyar tu-shirilgan (3.20-rasm), og‘maning uzunligi 10, tekslik va og‘ma orasidagi burchak $б=arccos\,0{,}3$ bo‘lsa, perpendikulyarning uzunligini aniqlang.



3.20-rasm.

Yeshish: *Masala shartiga asosan* $cosб=0{,}6=\frac{3}{5}$.

Chizmadan $\frac{AC}{AB}=sinб=\sqrt{1-cos^2б}==\sqrt{1-\frac{9}{25}}=\frac{4}{5}$.

Bundan $AC=AB\cdot sinб=10\cdot\frac{4}{5}=8$.

5) *A* nuqtadan tekslikka *AB* va *AC* og‘malar tushirilgan (3.21-rasm). Agar *AD* perpendikulyarning uzunligi 5, og‘malarning uzunliklari mos ravisha 7 va 9 ga teng bo‘lsa, og‘malarning tekslikdagi proeksiyalarini toping.



3.21-rasm.

Yeshish: *Masala shartiga asosan AB va AC og'malarning tekslikdagi proeksiyalari BD va CD ni Pifagor teoremasidan foydalanib aniqlaymiz:*

$$BD = \sqrt{7^2 - 5^2} = \sqrt{49 - 25} = 2\sqrt{6}; \quad CD = \sqrt{9^2 - 5^2} = \sqrt{81 - 25} = 2\sqrt{14}.$$

3.5. Ko'pburchak, uning turlari va asosiy ko'rsatkichlari.

Ko'pburchak deb, istalgan uchta nuqtasi bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan, besh va undan ortiq nuqtalarni ketma-ket tutashtiruvchi kesmadan tashkil topgan geometrik shaklga aytiladi. Ko'pburchakning quyidagi **turlari** mavjud: ixtiyoriy (3.22a-rasm), tomonlari teng bo'lgan yoki muntazam ko'pburchak (3.22b-rasmda muntazam oltiburchak; 3.22c-rasmda muntazam sakkizburchaklar ko'rsatilgan).

Ko'pburchak ichki burchaklaridan eng kattasi 180^0 dan kichik bo'lishi kerak. Bun-day ko'pburchaklarga ***qavariq*** ko'pburchak deb ataladi.



3.22-rasm.

Ko'pburchakning asosiy ko'rsatkichlari.

1. Perimetri, agar ixtiyoriy ko'pburchak bo'lsa (3.22a-rasm), $p = a + b + c + d + e$. Agar muntazam ko'pburchak bo'lsa (3.22b,c-rasm), $p = n \cdot a$. bu yerda n - ko'pburchak tomonlarining soni.

2. Ichki burchaklarining yig'indisi $\Sigma \text{б}_i = \text{p} \cdot (n - 2)$.

3. Tashqi burchaklarining yig'indisi $\Sigma \text{б}_t = 360^0$.

4. Diagonallarining soni $d_n = \frac{n \cdot (n-3)}{2}$.

5. Bir uchidan chiqqan diagonallarining soni (3.22c-rasm) $d_{uch} = n - 3$.

6. Bitta tashqi burchagi $\text{б}_t = \frac{360^0}{n}$.

7. Bitta ichkqi burchagi $\text{б}_i = \frac{\text{p} \cdot (n-2)}{n} = \frac{180^0 \cdot (n-2)}{n}$.

8. Eng katta va eng kichik diagolali orasidagi burchak (n juft bo'lganda)

$$d_{max} \wedge d_{min} = \frac{\text{p}}{2n} \cdot (n - 4).$$

9. Muntazam ko'pburchakning yuzi, asosining perimetri bilan, unga ichki chizilgan aylana radiusi ko'paytmasining yarmiga teng: $S = \frac{1}{2} \cdot p \cdot r = \frac{1}{2} \cdot a \cdot h \cdot n$.

10. Ko'pburchakka tashqi chizilgan aylana radiusi $R = \frac{a}{2cos\frac{\text{б}_i}{2}}$.

11. Ko‘pburchakka ichki chizilgan aylana radiusi $r = \frac{a}{2} . tg \frac{б_i}{2}$.

AYLANA, DOIRA, TO‘RTBURCHAK, UCHBURCHAK VA KO‘P BURCHAKLARGA DOIR MASALALAR.

1) Aylananing MN varari $б = 110^0$ li yoyni tortib turibdi, bu varar o‘zi tortib turgan kichik yoyning ixtiyoriy nuqtasidan qanday burchak ostida ko‘rinadi.

Yechish: *Agar MN vatarning o‘zi tortib turgan kichik yoyning ixtiyoriy nuqtasidagi burchakni* г *deb belgilasak* $г = 180^0 - \frac{б}{2} = 180^0 - \frac{110^0}{2} = 180^0 - 55^0 = 125^0$.



2) To‘g‘ri to‘rtburchakning diagonali uni perimetrlari 25 va 27 ga teng bo‘lgan ikkita uchburchakka ajratadi (rasmga qarang). Agar to‘rtburchakning perimetri 36 ga teng bo‘lsa, derilgan diagonal uzunligini toping.

Yechish: *Masala shartiga asosan berilgan to‘rtburchakning perimetri* $a + b + c + e = 36$.

Chizma va masala shartiga asosan $a + b + d = 25$; $c + e + d = 27$.

Bu tengliklarni hadma had qo‘shsak, $2d + a + b + c + e = 25 + 27 = 52$ *yoki* $2d + 36 = 52$*hosil bo‘ladi. Bundan* $d = 8$.



3) Parallelogrammning diagonallari $d_1 = 7$ va $d_2 = 24$ ga teng (rasm). Uning barcha tomonlari yig‘indisini toping.

Yechish: *Kosinuslar teoremasini qo‘llab, quyidagilarni aniqlaymiz:*

$a^2 + b^2 - 2 \cdot a \cdot b \cdot cosб = 7^2$; $a^2 + b^2 - 2 \cdot a \cdot b \cdot cosв = 24^2$.

$в = 180^0 - б$ *ekanligini hisobga olib, quyidagi sistemani tuzamiz:*

$\begin{cases} a^2 + b^2 - 2 \cdot a \cdot b \cdot cosб = 49 \\ a^2 + b^2 + 2 \cdot a \cdot b \cdot cosб = 576 \end{cases}$ *bularni hadma had qo‘shsak*$2a^2 + 2b^2 = 625$.



4) Parallelogrammning diagonallari tomonlari bilan $б = 20^0$ va $в = 30^0$ li burchak hosil qiladi (rasm). Parallelogrammning katta burchagini toping.

Yechish: *Parallelogramning qarama-qarsh burchaklarining yig‘indisi* $2б + 2в = 360^0$ *yoki* $б + в = 180^0$.

Chizmadan $б = x + 20^0, в = y + 30^0$ *yoki* $б + в = 180^0 = x + y + 50^0$.

Bundan; $x + y = 130^0$.

5) *ABCD* parallelogrammning uchlari $A(4; 1)$, $B(6; 3)$, $D(7; \sqrt{171} - 1)$ nuqtalar bo‘lsa, *AC* diagonalning uzunligini toping (rasmga qarang).

Yechish: *Parallelogramning A va B nuqtalari orqali* $\overrightarrow{AB}[(6 - 4); (3 - 1)] =$
$= \overrightarrow{AB}(2; 2)$ *hamda A va D nuqtalari orqali*
$\overrightarrow{AD}[(7 - 4); \ (\sqrt{171} - 1 - 1)] = \overrightarrow{AD}(3; \sqrt{171} - 2)$ *vektorlarni tuzamiz.*
$\overrightarrow{AB}$ *va* $\overrightarrow{AD}$ *vektorlarning skalyar ko‘paytmasini aniqlaymiz:*
$\overrightarrow{AB} \cdot \overrightarrow{AD} = 2 \cdot 3 + 2\sqrt{171} - 4 = 2(1 + \sqrt{171})$.



Bu vektorlarni uzunliklarini aniq-laymiz:

$$\left|\overrightarrow{AB}\right| = \sqrt{2^2+2^2} = 2\sqrt{2};\ \left|\overrightarrow{AD}\right| = \sqrt{3^2+\left(\sqrt{171}-2\right)^2} =$$
$$= 2\sqrt{46-\sqrt{171}}.$$

Parallelogramning AC diagonali, $\overrightarrow{AB}$ *va* $\overrightarrow{AD}$ *vektorlarning yig'ndisidan tashkil topgan* $\overrightarrow{AC}$ *vektorning uzunligiga teng bo'ladi,* $\left|\overrightarrow{AC}\right| = \sqrt{\left(\overrightarrow{AB}\right)^2 + 2\overrightarrow{AB}\cdot\overrightarrow{AD} + \left(\overrightarrow{AD}\right)^2} =$

$$= \sqrt{\left(2\sqrt{2}\right)^2 + 2\cdot 2\cdot\left(1+\sqrt{171}\right) + \left(2\sqrt{46-\sqrt{171}}\right)^2} = 14.$$



6) Rombning tomoni $a = 10$ ga, unga ichga aylananing radiusi $r = 3$ ga teng (rasm). Rombning o`tkir burchagi kosinusini toping.

Yechish: *Romning balandligi unga ichki chizilgan aylana radiusining ikkilanganiga teng.*

Chizmadan $sinб = \frac{h}{a} = \frac{2r}{a} = \frac{2\cdot 3}{10} = \frac{3}{5}\cdot$

Masala shartiga ko'ra rombning o`tkir burchagi kosinusini topish talab etiladi.

$$cosб = \sqrt{1-sin^2б} = \sqrt{1-\left(\frac{3}{5}\right)^2} = \frac{4}{5}.$$

7) Rombning yuzi 120, diagonallaridan biri 24 ga teng bo'lsa, uni tomonini toping.

Yechish: *Diagonallari orqali rombning yuzi* $S = (1/2)d_1\cdot d_2$ *bo'lgani uchun, bun-dan* $d_1 = \frac{2S}{d_2} = \frac{2\cdot 120}{24} = 10.\ a = \frac{1}{2}\cdot\sqrt{d_1^2+d_2^2} = \frac{1}{2}\cdot\sqrt{10^2+24^2} = 13.$

8) Teng yonli trapetsiyaning asoslari $a = 10$ va $b = 18$, asosidagi burchagi $б = 60^0$ bo'lsa, uni yuzini toping.



Yechish: *Chizmadan* $\frac{b-a}{2} = \frac{18-10}{2} = 4.$

$h = tgб = tg60^0 = \sqrt{3}.$

Trapetsiyaning yuzi $S = \frac{a+b}{2}\cdot h = \frac{10+18}{2}\cdot\sqrt{3} = 14\sqrt{3}.$

9) Uchburchak burchklari o`zaro 1:1:2 nisbatda. Uchburchakning katta tomoni 12 ga teng. Katta tomonga tushirilgan balandlikni toping.

Yechish: *Uchburchak ichki bir burchagini* б *deb olsak, unda uning ichki burchak-larining yig'indisi* $б + б + 2б = 180^0 \to б = 45^0.$ *Demak, uchburchak teng tomonli va to'g'ri burchakli ekan.* $h = \frac{12}{2} = 6.$

10) Ikki tomonining yig'indisi 1,8 ga, ular orasidagi burchak $б = 120^0$ ga teng bo'lgan uchburchaklar ichida yuzasi eng katta bo'lgan uchburchakni yuzini toping.



Yechish: *Masala shartiga ko'ra* $a + b = 1{,}8.$

Bundan $b = 1{,}8 - a.$ *Uchburchak yuzi*

$$S=\frac{1}{2}\cdot a\cdot b\cdot sinб=\frac{1}{2}\cdot a\cdot(1{,}8-a)\cdot sin120^0=\frac{\sqrt{3}}{4}\cdot(1{,}8\cdot a-a^2).$$

Buni argumenti a bo‘lgan funksiya deb qaraymiz va bu funksiya o‘zining maksimum qiymatiga birinchi tartibli hosilasi nolga teng bo‘lganda erishadi.

$S'(a)=\frac{\sqrt{3}}{4}\cdot(1{,}8-2a)=0.$ *Bundan* $a=0{,}9.$ $b=1{,}8-0{,}9=0{,}9.$

$$S=\frac{\sqrt{3}}{4}\cdot a\cdot b=\frac{\sqrt{3}}{4}\cdot 0{,}9\cdot 0{,}9=\frac{81\sqrt{3}}{400}.$$

11) To`g`ri burchakli uchburchakning tomonlari 24; 32; 40 ga teng. Uchburchakka ichki chizilgan aylananing markazi bilan tashqi chizilgan aylananing markazi orasidagi masofani toping.

<u>Yechish:</u> *Geron formulasidan foydalanib berilgan uchburchakni yuzini aniqlaymiz: buni uchun yarim perimetrini topamiz* $p=\frac{P}{2}=\frac{24+32+40}{2}=48.$

$$S=\sqrt{p\cdot(p-a)\cdot(p-b)\cdot(p-c)}=\sqrt{48\cdot(48-24)\cdot(48-32)\cdot(48-40)}=$$
$$=384.$$

Uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusi $R=\frac{a\cdot b\cdot c}{4\cdot S}=\frac{24\cdot 32\cdot 40}{4\cdot 384}=20.$

Uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusi $r=\frac{2\cdot S}{a+b+c}=\frac{2\cdot 384}{24+32+40}=8.$

Uchburchakka ichki chizilgan aylananing markazi bilan tashqi chizilgan aylananing markazi orasidagi masofa $L=\sqrt{R^2-2Rr}=\sqrt{20^2-2\cdot 20\cdot 8}=$
$=\sqrt{400-320}=4\sqrt{5}.$

12) To`g`ri burchakli uchburchak katetining gipotenuzadagi proyeksiyasi 16 ga, gipotenuzasi $c=25$ ga teng. Shu uchburchakning yuzini toping.

<u>Yechish:</u> *Gipotenuzasiga tushirilgan balandlik* $h=\sqrt{(25-16)\cdot 16}=12.$ *Uchburchakning yuzini* $S=\frac{1}{2}\cdot c\cdot h=\frac{1}{2}\cdot 25\cdot 12=150.$

13) Teng yonli uchburchakning asosi $a=40$ sm, balandligi $h=21$ sm bo‘lsa (rasm), uni yon tomonini toping.



<u>Yechish:</u> *Teng yonli uchburchakning balandligi uni asosini teng ikkiga bo‘lishini hisobga olib, Pifagor teoremasidan foydalanib,uchburchakni yon tomonini topamiz:*

$$b=\sqrt{h^2+\left(\frac{a}{2}\right)^2}=\sqrt{21^2+\left(\frac{40}{2}\right)^2}=29.$$

14) ABC uchburchakda (rasm) $\angle A=б=30^0$, $AB=\sqrt{3}$, $AC=6$ ga teng bo‘lsa, A uchidan tushirilgan balandlikni toping.



<u>Yechish:</u> *ABC uchburchakning yuzini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:*

$$S=\frac{1}{2}\cdot AC\cdot AB\cdot sinб=\frac{1}{2}\cdot 6\cdot\sqrt{3}\cdot sin30^0=\frac{3\sqrt{3}}{2}.$$

Kosinuslar teoremasidan $BC=\sqrt{(AC)^2+(AB)^2-2\cdot AC\cdot AB\cdot cosб}=$

$$=\sqrt{(6)^2+\left(\sqrt{3}\right)^2-2\cdot 6\cdot\sqrt{3}\cdot cos30^0}=\sqrt{21}.$$

Uchburchak asosiga tushirilgn balandlik $h = \frac{2S}{BC} = \frac{2\cdot 3\sqrt{3}}{2\cdot\sqrt{21}} = \frac{3\sqrt{7}}{7}$.

15) Aylananing *ABCD* nuqtalaridan tashkil topgan yoylarning uzunliklari mazraji 3 ga teng bo‘lgan geometrik progressiyadan iborat bo‘lgan bo‘laklarga ajratilgan (rasm).

Shu nuqtalarni ketma-ket tutashtirishdan hosil bo‘lgan to‘rtburchak diagonallari ora-sidagi kichik burchakni toping.

Yechish: *ABCD nuqtalaridan tashkil topgan yoy burchaklarining* $б + 3б + 9б + +27б = 360^0$. *Bundan* $б = 9^0$.

Markaziy burchagi $3б$ *bo‘lgan* $\overset{\frown}{BC}$ *kichik yoy, katta yoyning ixtiyoriy D nuqtasidan* $\angle D = \frac{3}{2}\cdot б$ *burchak ostida ko‘rinadi. Markaziy burchagi* $27б$ *bo‘lgan* $\overset{\frown}{AD}$ *kichik yoy, katta yoyning ixtiyoriy C nuqtasidan* $\angle C = \frac{27}{2}\cdot б$ *burchak ostida ko‘rinadi.*



Izlanayotgan burchakni chizmadan foydalanib, quyidagicha aniqlaymiz: $ц = 180^0 - (\angle D + \angle C) =$
$= -180^0 - \left(\frac{3}{2}\cdot б + \frac{27}{2}\cdot б\right) = 180^0 - 15б.$

$ц = 180^0 - 15\cdot 9^0 = 45^0.$

16) Aylananing *A* nuqtasiga o‘tkazilgan urunma va *AB* vatar orasidagi burchak $б = 15^0$ ga teng (rasmga qarang). Agar aylananing radiusi $R = 3$ bo‘lsa, vatar ajratgan kichik yoyning uzunligini toping.



Yechish: *Chizmadan* $\angle A = \angle B = 90^0 - б = 90^0 - 15^0 = 75^0$.

$\angle O = 180^0 - 2\cdot 75^0 = 30^0 = \frac{р}{6}$. $\overset{\frown}{AD} = б\cdot R = \frac{р}{6}\cdot 3 = \frac{р}{2}$.

17) Uchlari $A(4;5;1), B(2;2;0)$ va $C(2;1;-3)$ nuqtalarda joylashgan uchburchak-ning *BD* medianasi uzunligini toping.



Yechish: *D nuqta AC nuqtalarning o‘rtasi bo‘ladi (rasmga qarang). D(x;y) nuqtaning koordinatalarini aniqlaymiz:*

$x = \frac{4+2+2}{2} = 4;$

$y = \frac{5+2+1}{2} = 4;\quad z = \frac{1+0-3}{2} = -1.\quad D(4;4;-1).$

BD mediana uzunligi B va D nuqtalar orasidagi masofaga teng bo‘lgani uchun shu masofani topamiz: $|BD| = \sqrt{(4-2)^2 + (4-2)^2 + (-1-0)^2} = \sqrt{4+4+1} = 3.$

18) Uchburchakning tomonlari *a, b* va *c* ga teng bo‘lib, $a^2 = b^2 + c^2 + \sqrt{2}bc$ tenglikni qanoatlantirsa, uzunligi *a* ga teng bo‘lgan tomoni qarshisidagi burchakni toping.

Yechish: *Uzunligi a ga teng bo‘lgan tomoni qarshisidagi burchakni* $б$ *deb olamiz va kosinuslar teremasidan* $a^2 = b^2 + c^2 - 2bc\cdot cosб$ *ekanligini bilgan holda* a^2 *ni o‘rniga berilgan qiymatni qo‘ysak, quyidagi tenglik hosil bo‘ladi:*

$$a^2 = b^2 + c^2 - 2bc\cdot cosб = b^2 + c^2 + \sqrt{2}bc.$$

Bundan $cos б = -\frac{\sqrt{2}}{2}\cdot$ *Yoki* $б = 135^0$.

19) To‘g‘ri to‘rtburchakning bir tomoni kvadratning tomonidan 8 *sm* ga kichik, ikkinchi tomno esa kvadrat tomonidan ikki marta uzun. Agar ularning yuzalari teng bo‘lsa, to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetrini toping.

Yechish: *Kvadratning tomonini a desak, uni yuzi* $S = a^2$ *bo‘ladi.*

Unda masala shartiga asosan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi $S = (a - 8)\cdot 2a = a^2$.

Bundan $a = 16\ sm$.

To‘rtburchakning perimetri $p = 2(a - 8) + 2\cdot 2a = 2a - 16 = 80\ sm$.

20) To‘g‘ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylananing uzunligi 10p ga, gipotenuzasi esa 25 ga teng bo‘lsa, uni yuzini toping.

Yechish: *To‘g‘ri burchakli uchburchakka ichki chizilgan aylananing uzunligidan, unga ichki chizilgan aylananing radiusini topamiz:* $\ell = 10\text{p} = 2\text{p}r$. *Bundan* $r = 5$. *To‘g‘ri burchakli uchburchakda gipotenuza* $c = 2R = 25$. *Bundan* $R = \frac{25}{2}$. *To‘g‘ri burchakli uchburchak katetlarining yig‘indisi* $a + b = 2(R + r) = 2\left(\frac{25}{2} + 5\right) = 35$.

Uchburchakni yuzi $S = \frac{r(a+b+2R)}{2} = \frac{5\cdot(35+25)}{2} = 150$.

21) Aylanaga tashqi chizilgan teng yonli trapetsiyaning o‘rta chizig‘i $\ell = 8$ ga teng bo‘lsa, uni yon tomonini uzunligini toping.



Yechish: *Aylanaga tashqi chizilgan teng yonli trapetsiyaning yon tomonlarining yig‘indisi uning asoslari yig‘indisiga teng bo‘ladi.* $2c = a + b = 2\ell$.

Bundan $c = \ell = 8$.

22) Teng yonli trapetsiyaning diagonali uning o‘rta chizi-g‘ini 1,5 va 7,5 ga teng kesmalarga ajratadi. Agar trapetsiyaning yuzi 72 ga teng bo‘lsa, uni yon tomonini toping (rasmga qarang).



Yechish: *Chizmadan* $a = 2\cdot 1{,}5 = 3$; $b = 2\cdot 7{,}5 = 15$.

Trapetsiyaning yuzi $S = \frac{a+b}{2}\cdot h = 72 = \frac{3+15}{2}\cdot h$.

Bundan $h = 8$. $\frac{b-a}{2} = \frac{15-3}{2} = 6$ $c = \sqrt{8^2 + 6^2} = 10$.

23) Teng yonli trapetsiyaning asosidagi burchagining sinusi 0,6 ga, asoslarining ayirmasi esa $b - a = 4$ ga teng bo‘lsa, uni yon tomonini toping (rasmga qarang).

Yechish: *Masala shartidan* $sin б = 0{,}6$. *Bundan* $cos б = 0{,}8$.

Chizmadan $b - a = 2\cdot c\cdot cos б$.

Bundan $c = \frac{b-a}{2\cdot cos б} = \frac{4}{2\cdot 0{,}8} = 2{,}5$.

24) *ABCD* to‘g‘ri burchakli trapetsiyaning yuzi $S = 14 sm^2$ga, $AB = 8\ sm$; $DC = 6\ sm$ bo‘lsa, uning $\angle ADC$ ni toping.

Yechish: *Chizmadan* $AE = AB - DC = 8 - 6 = 2\ sm$. *Trapetsiyaning yuzi* $S = \frac{DC+AB}{2}\cdot h = 14 = \frac{6+8}{2}\cdot h$. *Bundan* $h = 2$.

Demak, trapetsiyaning asosidagi o‘tkir burchagi 45^0 *bo‘ladi.*



Unda $\angle ADC = 45^0 + +90^0 = 135^0$ *ga teng bo'ladi.*

25) Teng yonli uchburchakning yon tomoni $b = 20\ sm$.

Agar uning asosi yon tomo-nining 60% ni tashkil qilsa, unga tashqi chizilgan aylana radiusini toping.

<u>Yechish:</u> *Teng yonli uchburchakning asosi* $a = 0{,}6 \cdot 20 = 12\ sm$ *ga teng bo'ladi.*

Uchburchakning balandligi $h = \sqrt{20^2 - 6^2} = 2\sqrt{91}$ *bo'ladi. Uchburchakning yuzi* $S = \frac{1}{2} \cdot a \cdot h = \frac{1}{2} \cdot 12 \cdot 2\sqrt{91} = 12 \cdot \sqrt{91}$. *Teng yonli uchburchakka tashqi chizilgan ayla-na radiusi* $R = \frac{ab^2}{4S} = \frac{12 \cdot 20^2}{4 \cdot 12 \cdot \sqrt{91}} = \frac{100}{\sqrt{91}} = \frac{100 \cdot \sqrt{91}}{91}$.

26) Rasmda berilgan yarim doira ichidagi shtrixlan-gan yuzani toping. $AO = OB = 2$. $\overset{\frown}{AD} = \overset{\frown}{DC} = \overset{\frown}{BC}$.



<u>Yechish:</u> $\overset{\frown}{AD} = \overset{\frown}{DC} = \overset{\frown}{BC}$ *yoylar teng bo'lgani uchun, ulardan tuzilgan* $AD = DC = BC$ *vatarlar ham teng bo'la-di.Masala shartiga ko'ra, shrixlangan yuza yarim doira ichida joylashgan, hamda vatarlarning bir biriga tengligi, doiraga ichki chizilgan muntazam oltiburchak hisoblanadi.*

Shuningdek, OA *doiraning radiusi. Demak, vatar, radiusga* $AD = OA$ *teng bo'ladi. Shunda* $\angle ADC = б = 120^0$ *ni tyashkil qiladi.*

Shrixlangan yuza $S = \frac{1}{2} \cdot AD \cdot CD \cdot sin б$. $S = \frac{1}{2} \cdot 2 \cdot 2 \cdot sin 120^0 = \sqrt{3}$.

27) Rasmda berilganiga ko'ra, *AD* kesma uzunligini *AB* kesma uzunligiga bo'lgan nisbatini toping.

<u>Yechish:</u> *Chizmadan* $OB = OD$. $\frac{OD}{AD} = tg 30^0 = \frac{1}{\sqrt{3}}$.

$AD = \sqrt{3} \cdot OD$. $\frac{OD}{AB + OD} = ain 30^0 = \frac{1}{2}$.

$2OD = AB + OD$; $AB = OD$.

Masala shartiga asosan $\frac{AD}{AB} = \frac{\sqrt{3} \cdot OD}{OD} = \sqrt{3}$.



28) Radiuslari $r = 1\ sm$ va $R = 3\ sm$ bo'lgan ayla-nalat tashqi ravishda *D* nuqtada urinadi. Shu nuqtadan ularning umumiy urunmalari bo'lmish *AC* to'g'ri chiziq-qacha bo'lgan masofani toping (rasmga qarang).



<u>Yechish:</u> *Masala shartiga asosan* $BD = r + x$ *masofani topish kerak. Chizmadan* $\frac{x}{r} = \frac{R-r}{R+r}$.

Bundan $x = \frac{r(R-r)}{R+r}$, *bo'ladi.*

Izlanayotgan masofa $BD = r + \frac{r(R-r)}{R+r} = 1 + \frac{1 \cdot (3-1)}{3+1} = 1{,}5$.

29) Teng yonli uchburchakning uchidagi burchagi б ga teng (rasmga qarang). Shu uchburchakka ichki va tashqi chizildan doiralar radiuslari-ning nisbatini toping.



Yechish: *Uchburchakning yuzi* $S = \frac{1}{2} \cdot b^2 \cdot sin б$. *Chizmadan uchburchak asosini aniqlaymiz:* $a = 2 \cdot b \cdot sin\frac{б}{2} \cdot$ *Uchburchakka ichki chizilgan doiraning radiusi*

$$r = \frac{2S}{b+b+a} = \frac{2 \cdot 1/2 \cdot b^2 \cdot sin б}{b+b+2 \cdot b \cdot sin\frac{б}{2}} = \frac{b \cdot sin б}{2(1+sin\frac{б}{2})} \cdot$$

Uchburchakka tashqi chizilgan doiraning radiusi:

$$R = \frac{b \cdot b \cdot a}{4S} = \frac{b^2 \cdot 2 \cdot b \cdot sin\frac{б}{2}}{4 \cdot 1/2 \cdot b^2 \cdot sin б.} = \frac{b \cdot sin\frac{б}{2}}{sin б} \cdot \quad \frac{r}{R} = \frac{b \cdot sin б}{2(1+sin\frac{б}{2})} \cdot \quad \frac{sin б}{b \cdot sin\frac{б}{2}} = \frac{2 \cdot sin\frac{б}{2} \cdot cos\frac{б}{2} \cdot sin б}{2(1+sin\frac{б}{2}) \cdot sin\frac{б}{2}} ==$$

$$\frac{cos\frac{б}{2} \cdot sin б}{1+sin\frac{б}{2}} = \frac{\frac{1-tg^2\frac{б}{4}}{1+tg^2\frac{б}{4}} \cdot sin б}{1+\frac{2tg\frac{б}{4}}{1+tg^2\frac{б}{4}}} = \frac{\frac{1-tg^2\frac{б}{4}}{1+tg^2\frac{б}{4}} \cdot sin б}{\frac{tg^2\frac{б}{4}+2tg\frac{б}{4}+1}{1+tg^2\frac{б}{4}}} = \frac{\frac{1-tg^2\frac{б}{4}}{1+tg^2\frac{б}{4}} \cdot sin б}{\frac{\left(1+tg\frac{б}{4}\right)^2}{1+tg^2\frac{б}{4}}} = \frac{(1-tg^2\frac{б}{4}) \cdot sin б}{\left(1+tg\frac{б}{4}\right)^2} =$$

$$= \frac{(1-tg\frac{б}{4}) \cdot sin б}{1+tg\frac{б}{4}} = tg\,\frac{\text{p}-б}{4} \cdot sin б.$$

30) *XOY* teksligida markazi $O_1(2;3)$ nuqtada bo‘lgan aylana rasmdagidek chizilgan. Aylana *OY* o‘qini *A* va *B* nuqtalarida kesib o‘tadi. *A* nuqtaning ordinatasi *y* ni toping.



Yechish: *Chizmada aylana abssissa o‘qiga uringanligi uchun uning radiusi* $R = 3$ *ga teng bo‘ladi. A nuqtaning koordinatalari A(0;y). Aylana markazining koordinatalari* $O_1(2;3)$.

Chizmadan $AO_1 = R$.

A va O_1 *nuqtalar orasidagi masofani topish formulasini qo‘l-lab, quyidagi muno-sabatni yozamiz:*

$3^2 = (2-0)^2 + (3-y)^2$.

Buni so‘ldalashtirib, $y^2 - 6y + 4 = 0$ *tenglamani hosil qilamiz, bundan* $y_1 = 3 - \sqrt{5}$ *va* $y_2 = 3 + \sqrt{5}$ *larga teng. Bunda birinchi yechim A nuqtaga tegishli bo‘lgani uchun masalaning javobi* $3 - \sqrt{5}$ *bo‘ladi.*

31) To‘g‘ri burchakli uchburchakning to‘g‘ri burchagidan gipotenuzaga tushirilgan bissektrissa uni *a* va *b* teng bo‘lgan kes-malarga ajratadi (rasmga qarang). Uchburchakning yuzini toping.



Yechish: *Bissektrissa to‘g‘ri burchakni teng ikkiga ajratib, berilgan uchburchakni o‘xshash uchburchaklarga ajratadi.*

O‘xshash uchburchaklarning qoidasidan foydalanib,quyidagi tenglikni tuzamiz:

$\frac{m}{n} = \frac{a}{b} \cdot$ *Bundan* $m = \frac{a}{b} \cdot n$.

Pifagor teoremasidan foydalanib, $(a+b)^2 = \left(\frac{a}{b} \cdot n\right)^2 + n^2$ *tenglikni hosil qilamiz.*

Bundan $n = \frac{b(a+b)}{\sqrt{a^2+b^2}}$ *bo'ladi. Unda* $m = \frac{a}{b} \cdot n = \frac{a}{b} \cdot \frac{b(a+b)}{\sqrt{a^2+b^2}} = \frac{a(a+b)}{\sqrt{a^2+b^2}}$.

Berilgan uchburchakning yuzi $S = \frac{1}{2} \cdot m \cdot n = \frac{1}{2} \cdot \frac{a(a+b)}{\sqrt{a^2+b^2}} \cdot \frac{b(a+b)}{\sqrt{a^2+b^2}} = \frac{ab(a+b)^2}{2(a^2+b^2)}$.

32) Agar $\angle ACD = 70^0$, $\angle DEF = 30^0$ va $\angle BOC = 110^0$ bo'lsa, $\angle CAF$ ni toping (rasmga qarang).

Yechish: *Chizmada* $OB = OC = OD$, *hamda* $\angle BOC = 110^0$ *bo'lgani uchun* $\angle OCB = \angle OBC = 35^0$, $\angle OCD = \angle OCD = 70^0 - 35^0 = 35^0$.

Demak $\angle COD = 110^0$, $\angle DEF = 30^0$ *bo'lgani uchun*

$\angle OED = \angle ODE = \angle DOE = 90^0 - 30^0 = 60^0$.

$\angle BOE = 360^0 - (\angle BOC + \angle COD + \angle DOE) =$
$360^0 - (110^0 + 110^0 + 60^0) = 80^0$.

$\angle OBA = 180^0 - \angle OBC = 180^0 - 35^0 = 145^0$.

$\angle CAF = 360^0 - (90^0 + \angle BOE + \angle OBA) =$
$= 360^0 - (90^0 + 80^0 + 145^0) = 45^0$.



33) Yon tomoni $b = 20$ ga teng bo'lgan teng yonli uchburchak *ABC* ning asosai $a = 24$ ga teng.

Uning medianalarining kesishish nuqtasi bilan, unga ichki chizilgan aylana markazi orasidagi masofa ℓ ni toping (rasmga qarang).



Yechish: *Uchburchakning balandligi*

$h = \sqrt{b^2 - (a/2)^2} = \sqrt{20^2 - (24/2)^2} = 16$.

Uchburchakning yuzi $S = \frac{1}{2} \cdot a \cdot h = \frac{1}{2} \cdot 24 \cdot 16 = 192$.

Uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusi $r = \frac{2S}{b+b+a} = \frac{2 \cdot 192}{20+20+24} = 6$.

AE mediana uzunligini aniqlaymiz:

$AE = \frac{1}{2} \cdot \sqrt{2b^2 + 2a^2 - b^2} = \frac{1}{2} \cdot \sqrt{2a^2 + b^2} = \frac{1}{2} \cdot \sqrt{2 \cdot (24)^2 + 20^2} = 2\sqrt{97}$.

AE mediana katta bo'lagining uzunligi $AF = \frac{2}{3}AE = \frac{2}{3} \cdot 2\sqrt{97} = \frac{4}{3} \cdot \sqrt{97}$.

Chizmadan $y = \sqrt{(AF)^2 - (a/2)^2} = \sqrt{\left(\frac{4}{3} \cdot \sqrt{97}\right)^2 - (24/2)^2} = \frac{16}{3}$.

Markazi orasidagi masofa $\ell = r - y = 6 - \frac{16}{3} = \frac{2}{3}$.

34) Uchburchaning bir burchagi 60^0 ga eng bo'lib, unga tashqi chizilgan aylananing radiusi $\frac{7}{\sqrt{3}}$ ga, ichki chizilgan aylananing radiusi $\sqrt{3}$ ga teng bo'lsa, uni yuzini toping.

Yechish: 60^0 *burchak qrshisidagi tomonni c desak, sinuslar teoremasidan* $c = 2Rsin60^0 = 2 \cdot \frac{7}{\sqrt{3}} \cdot \frac{\sqrt{3}}{2} = 7$. *Cosinuslar teoremasiga asosan* $7^2 = a^2 + b^2 -$ $-2abcos60^0$ *yuki* $a^2 + b^2 = 49 + ab$. *Uchburchakka tashqi chizilgan aylananing* *radiusi* $\frac{7}{\sqrt{3}} = \frac{7ab}{4S}$ *; uchburchakka ichki chizilgan aylananing radiusi* $\sqrt{3} = \frac{2S}{a+b+7}$ *bulardan* $\frac{ab}{2} = a + b + 7$ *bundan* $a + b = \frac{ab}{2} - 7$ *bu tenlikni ikkala tomonini kvadratga oshirib. Quyidagini hosil qilamiz:*

$a^2 + b^2 = \left(\frac{ab}{2}\right)^2 - 7ab + 49 - 2ab = 49 + ab.$ *Bundan* $\left(\frac{ab}{2}\right)^2 = 10ab.$ *Yuki* $ab \cdot \left(\frac{ab}{4} - 10\right)$. *Bundan* $ab \neq 0$ *va* $ab = 40$. *Berilgan uchburchakning yuzi*

$$S = \frac{1}{2}absin60^0 = \frac{1}{2}40 \cdot \frac{\sqrt{3}}{2} = 10\sqrt{3}.$$

34) To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri 30 sm, uning ikki qo‘shni tomonlariga chizilgan kvadratlar yuzalarining yig‘indisi 137 sm^2 ga teng bo‘lsa (rasmga qarang), berilgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini toping.



Yechish: *Chizmada hosil qilingan kvadratlar yuzalarining yi-g‘indisi* $a^2 + b^2 = 137$ *ga, masala shartiga asosan berilgan to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri* $p = 2(a + b) = 30$ *yoki* $a + b = 15$. *Bundan* $b = 15 - a$. *Shunda* $a^2 + (15 - a)^2 = = 137$. *Bu tenglamani yechib,* $a = 11\, sm$ *ekanligini aniqlaymiz.* $b = 15 - 11 = 4\, sm$. *Berilgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi* $S = a \cdot b = 11 \cdot 4 = 44\, sm^2$.

35) Muntazam oltiburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusi $R = 4\sqrt{3}$ ga teng bo‘lsa, uning kichik diagonali d_{ki} ni toping.

Yechish: *Ko‘pburchak muntazam oltiburchak bo‘lgani uchun uning bitta ichki burchagi, ya’ni qo‘shni tomonlari orasidagi burchak* $б_i = 120^0$ *ga va uning tomoni unga tashqi chizilgan aylana radiusiga* $a = R$ *ga teng bo‘ladi. Kichik diagonal esa shu burchak qarshisidasgi kesma uzunligidir. Kichik diagonalni kosinuslsr teoremasidan foydalanib aniqlaymiz:*

$$d_{ki} = \sqrt{R^2 + R^2 - 2 \cdot R \cdot R \cdot cosб} = \sqrt{2R^2(1 - cosб)} =$$
$$= \sqrt{2\left(4\sqrt{3}\right)^2(1 - cos120^0)} = 12.$$

36) Diagonallarining soni tomonlarining sonidan 1,5 marta ko‘p bo‘lgan qavariq muntazam ko‘pburchakning ichki burchaklari va bitta tashqi burchagining yig‘indisini toping.

Yechish: *Ko‘pburchak diagonallarining soni* $d_n = \frac{n(n-3)}{2} \cdot$ *Masala shartiga ko‘ra* $\frac{n(n-3)}{2} = \frac{3n}{2} \cdot$ *Bundan* $n = 6$. *Ya’ni berilgan ko‘pburchak muntazam oltiburchak ekan. Uning bitta ichki burchagi* $б_i = 120^0$ *ga, bitta tashqi burchagi* $б_t = 60^0$ *ga teng bo‘ladi. Muntazam oltiburchakning ichki burchaklarining yig‘indisi*

$\Sigma б_i = 180^0(6 - 2) = 720^0$.

Masala shartiga ko‘ra $\Sigma б_i + б_t = 720^0 + 60^0 = 780^0$.

37) Muntazam oltiburchakning tomoni $a = \sqrt{108}\, sm$ ga teng. Unga tashqi va ichki chizilgan aylana radiuslarining nisbatini toping.

Yechish: *Muntazam oltiburchakning tomoni unga tashqi chizilgan aylana radiusiga* $a = R$ *va radiuslari hamda tomonidan tuzilgan uchburchak muntazam bo'lib ular orasidagi burchak* $б = 60^0$ *ga teng bo'ladi.*

Unga ichki chizilgan aylana radiusi $r = R \cdot sinб = R \cdot sin60^0 = \sqrt{108} \cdot \frac{\sqrt{3}}{2} = 9 \cdot \frac{R}{r} = \frac{\sqrt{108}}{9} = \frac{6\sqrt{3}}{9} = \frac{2\sqrt{3}}{3}$.

38) Aylanaga ichki chizilgan muntazam oltiburchakning tomoni 12 ga teng. Shu aylanaga kvadrat ham ichki chizilgan (rasmga qarang). Shu kvadratga ichki chizilgan doiraning yuzini toping.

Yechish: *Masala shartiga asosan, muntazam oltiburchakka aylana tashqi chizilgan, demak,* $a = R = 12.$ *Aylanaga ichki chizilgan kvadratning diagonali aylana diametriga teng bo'ladi* $d = 2R$.

Bu diagonalning uzunligi $(2R)^2 = b^2 + b^2$.



Bundan kvadratning tomoni $b = \sqrt{2}R = 2r$. *Kvadratga ichki chizilgan doiraning radiusi* $r = \frac{\sqrt{2}}{2} \cdot R$ *ga teng bo'ladi. Kvadratga ichki chizilgan doiraning yuzi*

$$S = p \cdot \left(\frac{\sqrt{2}}{2} \cdot R\right)^2 = p \cdot \left(\frac{\sqrt{2}}{2} \cdot 12\right)^2 = 72p.$$

3.6. Fazoviy jismlar.

3.6.1. Prizma, uning turlari va asosiy ko'rsatkichlari. Prizma deb, asosi ko'pburchakdan (*ABCDE*) qolgan yon yoqlari parallelgramlardan (A_1A E_1E) tashkil topgan geometrik shaklga aytiladi. Ikki yoqli tomonini kesishgan qismiga qirra (*AB*, A_1A) deb ataladi.

To'g'ri prizmalarda yon qirra, prizmaning balandligiga $AA_1 = H$ teng bo'ladi.

a-rasmda $DB_1 = d -$ diaganolali, $AC = d_{as} -$ asosining diagonali.

Uning quyidagi turlari mavjud:

1) Ixtiyoriy (3.23*a*-rasm).

2) Uchburchakli (3.23*b*-rasm).

3) To'rtburchakli, uni o'latda parallelepiped deb ham ataladi (3.23*c*-rasm), barcha qirralari teng bo'lgan parallelepipedga kub deb ataladi (3.23*d*-rasm).

4) Muntazam prizma, ya'ni asosi muntazam uchburchakli, muntazam to'rtburchakli, muntazam beshburchakli (3.23*e*-rasm), muntazam oltiburchakli (3.23*f*-rasm).

5) Og'ma prizma (3.23*g*-rasm).

3) To'rtburchakli, uni o'latda parallelepiped deb ham ataladi (3.23*c*-rasm), barcha qirralari teng bo'lgan parallelepipedga kub deb ataladi (3.23*d*-rasm).

4) Muntazam prizma, ya'ni asosi muntazam uchburchakli, muntazam to'rtburchakli, muntazam beshburchakli (3.23*e*-rasm), muntazam oltiburchakli (3.23*f*-rasm).

5) Og'ma prizma (3.23*g*-rasm).



Ixtiyoriy prizmaning asosiy ko'rsatkichlari:

1. Prizmaning hajmi, asosining yuzi bilan balandligining ko'paytmasiga teng: $V = S_{as} \cdot H,$ kub birlik.

2. Prizma yon sirtining yuzi, asosining perimtri bilan balandligining ko'paytmasiga teng: $S_{yon} = p \cdot H.$



Buni isbotlash uchun prizmaning AA_1 qirrasini qirqib (3.23a-rasm) yoyamiz (rasmga qarang).

Prizma yon sirtining yuzi chizmadagi beshta to'g'ri
Burchakli to'rtburchakning yuziga teng:
$S_{yon} = (AB + BC + CD + DE + EA) \cdot H = p \cdot H.$

3. Prizmaning to'la sirti, uning yon sirti yuzi bilan ikkita asosi yuzalarining yig'indisiga teng:

$S_{t.srt} = S_{yon} + 2S_{as}.$

4. Prizmaning diagonallari soni quyidagicha aniqlanadi $n(n-3)$.

Parallelepipedning asosiy ko'rsatkichlari:

1. Parallelepipedning hajmi, asosining yuzi bilan balandligining ko'paytmasiga teng: $V = S_{as} \cdot H,$ kub birlik.

2. Parallelepiped yon sirtining yuzi, asosining perimtri bilan balandligining ko'-paytmasiga teng: $S_{yon} = p \cdot H.$

3. Parallelepipedning to'la sirti, uning yon sirti yuzi bilan ikkita asosi yuzalarining yig'indisiga teng: $S_{t.srt} = S_{yon} + 2S_{as}.$

Og'ma prizmaning hajmi, ko'ndalang kesm yuzasini yon qirrasi ko'paytmasiga teng.

$V = S_k \cdot \ell$. Bu yerda S_k - og‘ma prizma o‘qiga perpendikulyar o‘tkazilgan tekislikdan hosil bo‘lgan yuza; ℓ - og‘ma prizmaning qirrasi. Agar prizma gorizontga nisbatan б *burchak tashkil qilsa (g-rasm), $\ell = \frac{H}{sin б}$ bo‘ladi.*

Unda og‘ma prizmaning hajmi $V = S_k \cdot \frac{H}{sin б}$.

Kubning asosiy ko‘rsatkichlari:

1. Kubning hajmi, asosining yuzi bilan balandligining ko‘paytmasiga teng:

$$V = S_{as} \cdot H = a^2 \cdot a = a^3, \text{ kub birlik.}$$

2. Kub yon sirtining yuzi, asosining perimtri bilan balandligining ko‘paytmasiga teng: $S_{yon} = p \cdot H = 4 \cdot a^2$.

3. Kubning to‘la sirti, uning yon sirti yuzi bilan ikkita asosi yuzalarining yig‘indisiga teng:

$$S_{t.srt} = S_{yon} + 2S_{as} = 4 \cdot a^2 + 2 \cdot a^2 = 6 \cdot a^2.$$

3.6.2. Piramida, kesik piramida.

Piramida deb, asosi ko‘pburchakdan, qolgan yon yoqlari uchburchakdan iborat bo‘lib, umumiy bir uchga birlashgan geometrik shaklga aytiladi (3.24*a, b, c-rasmlar*).

Piramida uchidan asosining tomoniga tishirilgan perpendikulyar kesmaga apofema deb ataladi (3.24*a*-rasm). Agar piramida muntazam bo‘lsa, uning asosini tomonlari teng bo‘ladi (3.24*c*-rasm).

Piramidaning asosiy ko‘rsatkichlari:

1. Piramidaning hajmi, asosining yuzi bilan balandligining ko‘paytmasining uchdan bir qismiga teng: $V = \frac{1}{3} \cdot S_{as} \cdot H,$ kub birlik.



3.24-rasm.

2. Piramidaning yon sirtining yuzi, asosining perimtri bilan apofemasi ko‘paytmasining yarmiga teng (3.24*d*-rasm): $S_{yon} = \frac{1}{2} \cdot p \cdot a_f$.

3. Piramidaning to‘la sirtining yuzi, uning yon sirti yuzi bilan asosi yuzasining yig‘indisiga teng (3.24*d*-rasm): $S_{t.srt} = S_{yon} + S_{as}$.

4. Uchburchakli piramida qirralari ℓ o‘zaro perpendikulyar bo‘lsa, uni hajmi quyidagicha aniqlanadi: $V = \frac{1}{6} \cdot \ell_1 \cdot \ell_2 \cdot \ell_3$.

Tetraedr: Barcha qirralari teng bo‘lgan muntazam pira-midaga **tetraedr** deyiladi (rasmga qarang).



1. To‘la sirti: $S_{t.s} = \sqrt{3}a^2$. 2. Balandligi: $H = \frac{\sqrt{6}}{3} \cdot a$.

3. Hajmi: $V = \frac{\sqrt{2}}{12} \cdot a^3$. 4. Tashqi chizilgan aylana radiusi:

$R = \frac{\sqrt{6}}{4} \cdot a$. 5. Ichki chizilgan aylana radiusi:

$r = \frac{\sqrt{6}}{12} \cdot a$.

Oktaedr: Barcha sakkizta yoqlari teng bo‘lgan muntazam piramidaga **oktaedr** deyiladi (rasmga qarang). Uning 6 ta uchi va 12 ta qirrasi bo‘ladi.



1. To‘la sirti: $S_{t.s} = 2\sqrt{3}a^2$. 2. Hajmi: $V = \frac{\sqrt{2}}{3} \cdot a^3$.

3. Tashqi chizilgan aylana radiusi: $R = \frac{\sqrt{2}}{2} \cdot a$.

4. Ichki chzilgan aylana radiusi: $r = \frac{\sqrt{6}}{6} \cdot a$.

Tetraedr va oktaedrning tomonlari muntazam uchburchakdan tashkil topgan bo‘la-di, uning yon tomoni balandligi, medianasi va bissiktrissasi teng bo‘ladi: $h = m = д = \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot a$.

Kesik piramida: Piramidaning uchidan ma’lum masofada asosiga parallel ravishda qirqilsa, kesik piramida hosil bo‘ladi, shunda uning yon yoqlari trapetsiyalardan tashkil topgan bo‘lib, uning ostki Q va ustki q asoslari bo‘ladi (3.25a, b-ramlar). Agar kesik piramida muntazam bo‘lsa, uning asoslarining tomonlari teng bo‘ladi (3.25b-rasm), diagonal kesimi teng yonli trapetsiyadan (3.25c-rasm) tashkil topadi.

Kesik piramidaning asosiy ko‘rsatkichlari:

1. Kesik piramidaning hajmi: $V = \frac{1}{3} \cdot H\left(Q + \sqrt{Qq} + q\right)$, kub birlik.

2. Kesik piramidaning yon sirtining yuzi ostki va ustki asoslari perimetrlari yig‘indisi bilan apofemasi ko‘paytmasining yarmiga teng (3.25d-rasm):

$$S_{yon} = \frac{1}{2} \cdot (p_{osa} + p_{uas}) \cdot a_f.$$

3. Kesik piramidaning to‘la sirtining yuzi, uning yun sirti yuziga ostki va ustki asoslari yuzalari qo‘shiladi (3.25d-rasm): $S_{t.srt} = S_{yon} + 2S_{as}$.



3.25-rasm.

3.6.3. Silindr. Silindr deb, to‘g‘ri to‘rtburchani yon tomoni atrofida aylantirishdan hosil bo‘lgan geometrik shakl (3.26a-rasm) ga aytiladi.



3.26-rasm.

Silindrning asosiy ko‘rsatkichlari:

1. Silindrning hajmi asosining yuzi bilan balandligining ko‘paytmasiga teng: $V = \text{p}R^2H$.

2. Silindrning yon sirti asos aylanasi uzunligi bilan balandligining ko‘paytmasiga teng (3.26b-rasm): $S_{yon} = 2\text{p}RH$.

3. Silindrning to‘la sirti yon sirti yuzi bilan asoslari yuzalarining yig‘indisiga teng:

$$S_{t.srt} = S_{yon} + 2S_{as} = 2\text{p}RH + 2\text{p}R^2 = 2\text{p}R(H + R).$$

3.6.4. Konus, kesik konus. Konus deb, to‘g‘ri burchakli uchburchani biror kateti atrofida aylantirishdan hosil bo‘lgan geometrik shakl (3.27a-rasm) ga aytiladi.

Konusning asosiy ko‘rsatkichlari:

1. Konusning hajmi asosining yuzi bilan balandligi ko‘paytma-sining uchdan bir qismiga teng: $V = \frac{1}{3} \cdot \text{p}R^2 \cdot H$.

2. Konusning yon sirti asos aylanasi uzunligi bilan yasovchisi ko‘paytmasining yarmiga teng (3.27b-rasm):

$S_{yon} = \frac{1}{2} \cdot 2\text{p}R \cdot L = \text{p}RL$.



3.27-rasm.

3. Konusning to‘la sirti, yon sirti va asosi yuzasining yig‘indisiga teng:

$$S_{t.srt} = S_{yon} + S_{as} = \text{p}RL + \text{p}R^2 = \text{p}R(L + R).$$



Konusning hajmi keltirib chiqarish: *Buning uchun, tekslikdan biror bir A nuqtani olib, uni koordinata boshi bilan tutashtiramiz, bunda hosil bo‘lgan OA to‘g‘ri chiziq abssissa o‘qi bilan* б *burchakni tashkil qiladi.*

Agar OA to‘g‘ri chiziqni OX o‘qi atrofida aylantirsak, konus hosil bo‘ladi (chizmaga qarang). Shunda H konusning balandligi, R konus asosining radiusi.

Koordinata boshidan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziqning tenglamasi $y = kx$ *ga teng. Bu yer-da k, to‘g‘ri chiziqning burchak koeffiitsiyenti bo‘lib, u* $k = \frac{R}{H}$ *ga teng.*

Konusning hajmini aniq integral formulasidan foydalanib aniqlash mumkin:

$$V = \text{p}\int_a^b f^2(x)dx = \text{p}\int_0^H (kx)^2 dx = \text{p}\frac{R^2}{H^2}\int_0^H (x)^2 dx = \text{p}\frac{R^2}{H^2}\cdot\frac{x^3}{3} =$$

$$= \text{p}\frac{R^2 \cdot H^3}{3H^2} = \frac{1}{3}\cdot \text{p}R^2H.$$

Kesik konus: Kesik konus deb, ten yonli trapetsiyaning vertikal o‘qi atrofida aylan-tirishdan hosil bo‘lgan geometrik shaklga aytiladi (3.28a-rasm).



3.28-rasm.

Kesik konusning asosiy ko‘rsatkichlari:

1. Kesik konusning hajmi: $V = \frac{\text{p}}{3}\cdot H(R^2 + Rr + r^2)$, kub birlik.

2. Kesik konusning yon sirti, ostki va ustki aylana uzunliklarining yarmiga yasov-chisining ko‘paytmasiga teng (3.28b-rasm):

$$S_{yon} = \frac{1}{2}\cdot(2\text{p}R + 2\text{p}r)\cdot L = \text{p}L(R + r).$$

3. Kesik konusning to‘la sirti, yon sirti va ostki hamda ustki asoslari yuzalarining yig‘indisiga teng (b-rasm): $S_{t.srt} = S_{yon} + S_{oas} + S_{uas} = \text{p}L(R + r) + \text{p}R^2 + \text{p}r^2$.

3.6.5. Shar va uning bo‘laklari.

Shar, sfera deb ham yuritiladi.

Yarim doirani diametri atrofidan aylantirishdan hosil bo‘lgan geometrik shaklga shar deb ataladi.



Uni doiradan farq qilishi uchun uning belbog‘i ko‘rsatiladi (3.29*a*-rasm).

Uning bo‘laklariga segment (3.29*b*-rasm) va sektor (3.29*c*-rasm) lar kiradi.

Sharning asosiy ko‘rsatkichlari:

1. Sharning hajmi: $V = \frac{4}{3} \cdot \text{p}R^3$.

2. Sharning sirti: $S = 4\text{p}R^2$.

Shar hajmi formulasini keltirib chiqarish:

Buning uchun, yarim doirani markazini koordinata markaziga qo‘yib, uni OX o‘qi atrofida aylantirsak, shar hosil bo‘ladi (chizmaga qarang).

Aylana tenglamasi $y = \sqrt{R^2 - x^2}$ *ga teng. Sharning hajmini aniq integral formulasidan foydalanib aniqlash mumkin:*



3.29-rasm.

$$V = \text{p}\int_a^b f^2(x)dx = \text{p}\int_{-R}^{R}\left(\sqrt{R^2 - x^2}\right)^2 dx = \text{p}\int_{-R}^{R}(R^2 - x^2)dx = R^2x - \frac{x^3}{3} = \frac{4}{3} \cdot \text{p}R^3.$$

Shar segmentining ko‘rsatkichlari:

1. Segmentning radiusi: $r = \sqrt{H(2R - H)}$.

bu yerda *R*-sharning radiusi, *H*-segmentning balandligi (3.29*b*-rasm).

2. Segmentning yon sirti: $S_{yon} = 2\text{p}RH = \text{p}(r^2 + H^2)$.

3. Segmentning to‘la sirti: $S_{t.srt} = \text{p}(r^2 + 2RH)$.

4. Segmentning hajmi: $V_{seg} = \text{p}H^2\left(R - \frac{H}{3}\right)$.

Shar sektorining ko‘rsatkichlari:

1. Sektorning yon sirti: $S_{yon} = \text{p}Rr$.

2. Sektorning to‘la sirti: $S_{t.srt} = \text{p}Rr + 2\text{p}RH = \text{p}R(2H + r)$.

3. Sektorning hajmi: $V_{sek} = \frac{2}{3} \cdot \text{p}R^2 \cdot H$.

O‘xshash bo‘lgan ikki jism hajimlarining nisbati ularning mos chiziqli o‘lchamlari nisbatining kubiga teng: $\frac{V_1}{V_2} = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3 = \left(\frac{h_1}{h_2}\right)^3 = \left(\frac{p_1}{p_2}\right)^3$.

3.6.6. Fazoviy shakllarga ichki (3.30*a*-rasm) va tashqi (3.30*b*-rasm) chizilgan sharlar.



3.30-rasm.

Fazoviy jismlarga shar ichki chizilgan bo‘lsa, uni o‘q kesimi bo‘yicha qirqilsa, u teng yonli uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusi *r*, shar ichki chizilgan shar radiusi r_{sh} ga teng bo‘ladi (3.31a-rasm). Fazoviy jismlarga shar tashqi chizilgan bo‘lsa, uni o‘q kesimi bo‘yicha qirqilsa, u teng yonli uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiusi *R*, shar ichki chizilgan shar radiusi R_{sh} ga teng bo‘ladi (3.31b-rasm).



3.31-rasm.

FAZOVIY SHAKLLARGA DOIR MASALALAR.

1) Muntazam to‘rtburchakli prizmaning asosi $a = 8$ ga, balandligi $H = 12$ ga teng (rasmga qarang). Prizma parallel yon yoqlarining o‘zaro ayqash diagonallari orasidagi o‘tkir burchakni toping.



<u>Yechish:</u> *Yon yoqlarining* ***ayqash*** *diagonallar A_1B va C_1D lardir. A_1B ni parallel ko‘chirib, D_1C ni hosil qilamiz. Masala shartiga asosan* б *burchakni topish talab qilinadi. Buni uchun D_1C va C_1D diagonallar orasidagi burchakni topish kerak.*

Chizmadan $C_1D = \sqrt{H^2 + a^2} = \sqrt{12^2 + 8^2} = 4\sqrt{13}$.

Kosinuslar teoremasidan foydalanib;

$$a^2 = \left(\frac{C_1D}{2}\right)^2 + \left(\frac{C_1D}{2}\right)^2 - 2\left(\frac{C_1D}{2}\right)^2 cos\text{б};$$

yoki $8^2 = 2\left(\frac{4\sqrt{13}}{2}\right)^2 (1 - cos\text{б})$: *Bundan* $cos\text{б} = \frac{5}{13}\cdot H$. $\text{б} = arccos\,\frac{5}{13}$.

2) Qirrasi $a = 12$ ga teng bo‘lgan kub yoqlarining markazlarini tutashtirishdan hosil bo‘lgan jismni hajmini toping.

<u>Yechish:</u> *Kub yoqlarining markazlarini tutashtirilganda qirrasi b ga teng bo‘lgan oktaedr hosil bo‘ladi.* $b = \frac{\sqrt{2}}{2}\cdot a = \frac{\sqrt{2}}{2}\cdot 12 = 6\sqrt{2}$. *Oktaedrning hajmi:*

$$V = \frac{\sqrt{2}}{3}\cdot b^3 = \frac{\sqrt{2}}{3}\cdot\left(6\sqrt{2}\right)^3 = 288.$$

3) Barcha qirralari teng bo‘lgan muntazam uchburchakli prizma asosining medianasi $m = 6\sqrt{3}$ ga teng. Shu prizmaning hajmini toping.

Yechish: *Prizmaning qirralari teng bo‘lgani uchun uning balandligi asosining tomoniga teng bo‘ladi* $a = H$. *Prizmaning asosi muntazam uchburchakdan tashkil topgani uchun asosining medianasi, asosining balandligiga teng bo‘ladi*

$$m = h = \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot a.$$

Bundan $a = \frac{2}{\sqrt{3}} \cdot m = \frac{2}{\sqrt{3}} \cdot 6\sqrt{3} = 12.$ *Prizma asosining yuzi:* $S_{as} = \frac{\sqrt{3}}{4} \cdot a^2.$

Prizmaning hajmi: $V = S_{as} \cdot H = \frac{\sqrt{3}}{4} \cdot a^2 \cdot a = \frac{\sqrt{3}}{4} \cdot a^3 = \frac{\sqrt{3}}{4} \cdot (12)^3 = 432\sqrt{3}.$

4) Uchburchakli piramida qirralari o‘zaro perpendikulyar bo‘lib, ularning uzunliklari mos ravishda $\sqrt{70}$, $\sqrt{99}$ va $\sqrt{126}$ ga teng bo‘lsa, uni hajmini toping.

Yechish: *Qirralari o‘zaro perpendikulyar bo‘lgan uchburchakli piramidaning hajmi:*

$$V = \frac{1}{6} \cdot \ell_1 \cdot \ell_2 \cdot \ell_3 = \frac{1}{6} \cdot \sqrt{70} \cdot \sqrt{99} \cdot \sqrt{126} = 21\sqrt{55}.$$

5) Muntazam uchburchakli piramidaning balandligi asosining tomonidan olti marta kichik. Piramidaning yon yog‘i asos tekisligi bilan qanday burchak tashkil qiladi.



Yechish: *Masala shartiga asosan* $H = \frac{1}{6} \cdot a.$

Chizmadan $h = \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot a.$ $\frac{1}{3} \cdot h = \frac{1}{3} \cdot \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot a = \frac{\sqrt{3}}{6} \cdot a.$

$$tgб = \frac{\frac{1}{6}a}{\frac{\sqrt{3}}{6}a} = \frac{1}{\sqrt{3}} \cdot \quad б = 30^0.$$

6) Teng yonli *ABC* uchburchakning $AB = AC$. *A* uchidan uzunligi $AD = 32$ ga teng bo‘lgan *AD* perpendikulyar o‘tkazildi.

D nuqtadan *BC* tomongacha bo‘lgan masofa $DE = 40$ bo‘lsa (rasmga qarang), uchburchak asosining balandligini toping.



Yechish: *Chizmadan DAE uchburchak to‘g‘ri burchakli uchburchak.*

$$AE = \sqrt{(DE)^2 - (AD)^2} = \sqrt{(40)^2 - (32)^2} = 24.$$

7) Tetraedrning qirrasi *a* ga teng. Uning yon qirrasini 2:1 nisbatda bo‘luvchi nuqta va shu qirra qarshisidagi asosini tomo-nini kesib o‘tuvchi tekislik o‘tkazildi (rasmga qarang). Kesim yuzini toping.



Yechish: *Tekslik kesib o‘tgan kesim yon tomoni x ga teng bo‘lgan teng yonli uchburchakdir. Tetraedrning tomonlari muntazam uchburchaklarni va tomonlari orasidagi burchak,* 60^0*ni tashkil qiladi. Kesimni yon tomonini kosinuslar teoremasidan:*

$$x = \sqrt{a^2 + \left(\frac{a}{3}\right)^2 - 2a \cdot \frac{a}{3} \cdot cos60^0} = \frac{\sqrt{7}}{3} \cdot a.$$

Kesimni balandligi: $h_k = \sqrt{x^2 - \left(\frac{a}{2}\right)^2} = \sqrt{\left(\frac{\sqrt{7}}{3}a\right)^2 - \left(\frac{a}{2}\right)^2} = \frac{\sqrt{19}}{6} \cdot a.$

Kesimning yuzi: $S_k = \frac{1}{2} \cdot б \cdot h_k = \frac{1}{2} \cdot б \cdot \frac{\sqrt{19}}{6} \cdot a = \frac{\sqrt{19}}{12} \cdot a^2.$

8) Muntazam to‘rtburchakli piramidaning hajmi $V = 19200$ ga, balandligi $H = 9$ ga teng bo‘lsa, uni apofemasini toping.

Yechish: *Piramida muntazam to‘rtburchakli bo‘lgani uchun uning asosi kvadratdan tashkil topgan bo‘ladi, shunda uni hajmi* $V = \frac{1}{3} \cdot a^2 \cdot H.$

Demak, $19200 = \frac{1}{3} \cdot 9 \cdot a^2$. *Bundan* $a^2 = 6400.$

Yoki $a = 80$. Piramidaning apofemasi $a_f = \sqrt{H^2 + \left(\frac{a}{2}\right)^2} = \sqrt{9^2 + \left(\frac{80}{2}\right)^2} = 41.$

9) Muntazam to‘rtburchakli piramidaning yon sirti $S_{yon} = 324\sqrt{2}$, asosidagi ikki yoqli burchak $p/4$ ga teng bo‘lsa, piramida hajmini toping.

Yechish: *Piramida muntazam to‘rtburchakli bo‘lgani uchun uning asosi kvadratdan tashkil topgan bo‘ladi. Masala shartiga asosan asosidagi ikki yoqli burchak* 45^0*ga teng bo‘lgani uchun piramidaning balandligi asosi tomonining yarmiga* $H = a/2$ *ga teng bo‘ladi. Piramidaning yon sirti:*

$S_{yon} = \frac{1}{2} \cdot 4a \cdot a_f$. *Apofema* $a_f = \sqrt{\left(\frac{a}{2}\right)^2 + \left(\frac{a}{2}\right)^2} = \frac{\sqrt{2}}{2} \cdot a.$

Shunda $324\sqrt{2} = \sqrt{2}a^2$. *Bundan* $a = 18.$

Piramidaning hajmi $V = \frac{1}{3} \cdot a^2 \cdot H = \frac{1}{6} \cdot a^3 = \frac{1}{6} \cdot (18)^3 = 972.$



10) Muntazam to‘rtburchakli piramidaning balandligi $H = 9$ ga, diagonal kesmi-ning yuzi $S_k = 54$ ga teng bo‘lsa (rasmga qa-rang), uni hajmini toping.

Yechish: *Piramida muntazam to‘rtburchakli bo‘lgani uchun uning asosi kvadratdan tashkil topgan bo‘ladi.*

Asosining diagonali $d_{as} = \sqrt{a^2 + a^2} = \sqrt{2}a$ *ga teng bo‘ladi.*

Kesimning yuzi: $S_k = \frac{1}{2} \cdot d_{as} \cdot H = \frac{1}{2} \cdot \sqrt{2}a \cdot H$. *Bundan* $a = \frac{\sqrt{2}S}{H}.$

Piramidaning hajmi: $V = \frac{1}{3} \cdot a^2 \cdot H = \frac{1}{3} \cdot \frac{2S^2}{H^2} \cdot H = \frac{2}{3} \cdot \frac{S^2}{H} = \frac{2}{3} \cdot \frac{54^2}{9} = 216.$

11) Muntazam to‘rtburchakli piramida asosining $a = 5$ ga, to‘la sirti esa $S_{t.s} = 65$ ga teng bo‘lsa, uni yon yog‘i asos tekisligi bilan qanday bur-chak hosil qiladi (rasm).



Yechish: *Piramidaning to‘la sirti* $S_{t.s} = 2a \cdot a_f + a^2$ *ga teng.*

Yoki $65 = 2 \cdot 5 \cdot a_f + 25$. *Bundan* $a_f = 4.$

Chizmadan $\frac{a/2}{a_f} = cosб$. *Yoki* $cosб = 5/8$. *Bundan* $б = arccos\, 5/8.$

12) Muntazam to‘rtburchakli kesik piramida asoslarining tomonlari 3 va 5 *sm* ga, diagonali esa $2\sqrt{17}$ ga teng bo‘lsa, uni balandligi necha *sm*.



Yechish: *Kesik piramidaning diagonal kesimidan unig balandligini (rasmga qarang) topamiz:*

$$H = \sqrt{d^2 - \left(\sqrt{2}(a+b)/2\right)^2}.$$

$$H = \sqrt{\left(2\sqrt{17}\right)^2 - \left(\sqrt{2}(5+3)/2\right)^2} = 6.$$

13) Silindrning balandligi va asosining radiusi $H = R = 8$ ga teng. Yuzi silindrning to‘la sirtiga teng bo‘lgan doiraning radiusini toping.

Yechish: *Silindrni to‘la sirti* $S_{t.s} = 2\text{p}R^2 + 2\text{p}RH = 4\text{p}R^2 = \text{p}R_d^2$.

Bundan $R_d = 16$.

14) Balandligi *H* bo‘lgan silindr o‘qidan *a* masofada unga parallel ravishda o‘tkazilgan tekislik uni asosidan ц kattalikdagi yoyni ajratdi. Tekislikning silindrdan ajratgan kesim yuzini toping (rasmga qarang).



Yechish: *Tekislikning silindrdan ajratgan kesim yuzi* $S_k = H \cdot x$.

Chizmadan $x = 2 \cdot a \cdot tg\frac{\text{ц}}{2}$. *Demak,* $S_k = 2 \cdot a \cdot H \cdot tg\frac{\text{ц}}{2}$.

15) Konus ichiga, balandligi konus asosining radiusiga teng silindr chizilgan. Silindr to‘la sirtining konus asosining yuzasiga nisbati 3:2 bo‘lsa, konus o‘qi bilan yasovchisi orasidagi burchakni toping.



Yechish: *Agar konus va silindrlarni o‘q kesimini qarasak (rasmga qarang),teng yonli uchburchakka to‘g‘ri to‘rtburchak ichki chizilgan. Silindrning to‘la sirti:*

$S_{t.s} = 2\text{p}rR + 2\text{p}r^2 = 2\text{p}r(R + r)$.

Konus asosining yuzi: $S_{as} = \text{p}R^2$.

Masala shartiga asosan $\frac{S_{t.s}}{S_{as}} = \frac{3}{2} = \frac{2\text{p}r(R+r)}{\text{p}R^2} = \frac{r(R+r)}{R^2}$.

Bundan $r = \frac{1}{2} \cdot R$. *Talab qilinayotgan burchak:* $tg\text{б} = \frac{R-r}{R} = \frac{R-0{,}5R}{R} = 0{,}5$.

Yoki $\text{б} = arctg0{,}5$.

16) Asoslarining radiuslari $R = 22$ va $r = 4$ *sm* bo‘lgan kesik konus, hamda unga tengdosh bo‘lgan silindrning balandliklari bir xil. Silindr asosining radiusini toping.

Yechish: *Kesik konus va silindr tengdosh bo‘lgani uchun ularning hajmlari teng bo‘ladi.* $V = \frac{\text{p}}{3} \cdot H \cdot (R^2 + Rr + r^2) = \text{p}R_{sl}^2 \cdot H$. *Bundan silindrning radiusi:*

$$R_{sl} = \sqrt{\frac{1}{3} \cdot (R^2 + Rr + r^2)} =$$

$$= \sqrt{\frac{1}{3} \cdot ((22)^2 + 22 \cdot 4 + (4)^2)} = 14.$$



17) Radiuslari $R_1 = 3\ dm$ va $R_2 = 25\ sm$ bo‘lgan sharlar bir ikkinchisining ichiga kirgan (rasmga qarang) va ularning

kesishish chizig‘ning uzunligi $\ell = 48$ p ga teng bo‘lsa, sharlar markazi orasidagi masofa *L* ni toping.

<u>Yechish:</u> *Kesishish chizig‘ning uzunligi* $2\text{p}r = 48$p.

Bundan $r = 24.$ $x = \sqrt{(R_1)^2 - r^2} = \sqrt{(30)^2 - (24)^2} = 18.$

$x = \sqrt{(R_2)^2 - r^2} = \sqrt{(25)^2 - (24)^2} = 7.$ $L = x + y = 18 + 7 = 25.$

18) Sharga ichki chizilgan konusning asosi, sharning katta dia-gonaliga teng. Konus o‘q kesimining yuzi $S_k = 36$ ga teng bo‘lsa, sharning hajmini toping.



<u>Yechish:</u> *Masala shartiga ko‘ra, shar va konusning radiuslari hamda konusning balandligi bir biriga teng (rasmga qarang).*

$R_{sh} = R_k = H = R.$ *O‘q kesimni yuzi:* $S_k = \frac{1}{2} \cdot 2R \cdot H = R^2 = 36.$

Bundan $R = 6.$ *Sharning hajmi:* $V = \frac{4}{3} \cdot \text{p}R^3 = \frac{4}{3} \cdot \text{p}6^3 = 288\text{p}.$

19) Balandligi $H = 9$, yasovchisi $L = 15$ ga teng bo‘lgan konusga ichki chizilgan shar sirtining yuzini toping.



<u>Yechish:</u> *Chizmadan konusning radiusini topamiz:*

$R = \sqrt{L^2 - H^2} = \sqrt{15^2 - 9^2} = 12.$

Masalani yechishda konus va sharning o‘q kesimini qara-sak, teng yonli uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusi, ich-ki chizilgan shar radiusiga teng ekanligini ko‘rish mumkin

Kesmning yuzasi: $S_k = \frac{1}{2} \cdot 2R \cdot H = R \cdot H = 12 \cdot 9 = 108.$

Sharni radiusi $r_{sh} = \frac{2S_k}{2(L+R)} = \frac{S_k}{L+R} = \frac{108}{15+12} = 4.$

Shar sirtining yuzi $S_{sr} = 4\text{p} \cdot r_{sh}^2 = 64\text{p}.$

20) Radiusi *R* ga teng bo‘lgan sharga kesik konus ichki chizilgan.

Konusning yuqori asosai, shar segmenti б burchakli yoyni tortib turadi, konusning pastki asosi, shar segmenti в burchakli yoyni tortib turadi (rasmda o‘q kesimi ko‘r-satilgan). Kesik konusning yasovchisini aniqlang.



<u>Yechish:</u> *Chizmadan* $\text{г} = 180^0 - \frac{\text{б}+\text{в}}{2} \cdot$ *Kosinuslar teore-masidan* $L = \sqrt{2R^2\left[1 - cos\left(180^0 - \frac{\text{б}+\text{в}}{2}\right)\right]} =$

$= R\sqrt{2\left[1 + cos\frac{\text{б}+\text{в}}{2}\right]} = R\sqrt{2 \cdot 2cos^2\left(\frac{\text{б}+\text{в}}{4}\right)} =$

$= 2Rcos\left(\frac{\text{б}+\text{в}}{4}\right).$

$R_k = Rsin\frac{\text{в}}{2};$ $r_k = Rsin\frac{\text{б}}{2}.$ *Kesik konusning yon sirti* $S_{yo} = \text{p}(R_k + r_k) \cdot L.$

Topilgan qiymatlarni bu formulaga qo‘ysak.

$$S_{yo} = \text{p}R\left(sin\frac{\text{б}}{2} + sin\frac{\text{в}}{2}\right) \cdot 2Rcos\left(\frac{\text{б}+\text{в}}{4}\right) =$$

$$= 2pR^2 \cdot 2sin\left(\frac{б+в}{4}\right) \cdot cos\left(\frac{б-в}{4}\right) \cdot cos\left(\frac{б+в}{4}\right) = 2pR^2 sin\left(\frac{б+в}{2}\right) \cdot cos\left(\frac{б+в}{4}\right).$$

21) Yon tomoni b ga, ular orasidagi burchak б ga teng bo‘lgan teng yonli uchburchakni yon tomoni atrofidan aylantirishdan hosil bo‘lgan shaklni hajmini toping.



<u>Yechish:</u> *Teng yonli uchburchakni yon tomoni atrofida aylantirsak, balandliklari H va h ga teng bo‘lgan ikkita radiusi R ga teng bo‘lgan konus hosil bo‘ladi.*

Chizmadan $H = b \cdot cos$б,

$R = b \cdot sin$б, $h = b - H$.

Yoki $h = b - b \cdot cos$б $= b(1 - cos$б$)$. $H + h = b$.

Shunday qilib,hosil bo‘lgan shaklning hajmi:

$$V = V_1 + V_2 = \frac{p}{3} \cdot R^2 \cdot H + \frac{p}{3} \cdot R^2 \cdot h.$$

Yoki $V = \frac{p}{3} \cdot R^2(H + h) = \frac{p}{3} \cdot R^2 \cdot b = \frac{p}{3} \cdot (b \cdot sin$б$,)^2 \cdot b = \frac{p}{3} \cdot b^3 \cdot sin^2$б.

4. TRIGONOMETRIYA

4.1. O‘tkir burchak trigonometriyasi.



4.1-rasm.

Buni aniqlash uchun togri burchakli uch-burchak chizamiz (4.1-rasm).

1. O‘tkir burchakning sinusi deb, o‘tkir burchak qarshisidagi katetning gipotenuzaga bo‘lgan nisbatiga aytiladi:

$sin\text{б} = \frac{b}{c} \rightarrow b = c \cdot sin\text{б}.$

2. O‘tkir burchakning kosinusi deb, o‘tkir burchakka yopishgan katetning gipotenuzaga bo‘lgan nisbatiga aytiladi: $cos\text{б} = \frac{a}{c} \rightarrow a = c \cdot cos\text{б}.$

3. O‘tkir burchakning tangensi deb, o‘tkir burchak qarshisidagi katetni, o‘tkir burchakka yopishgan katetga bo‘lgan nisbatiga aytiladi: $tg\text{б} = \frac{b}{a} = \frac{c \cdot sin\text{б}}{c \cdot cos\text{б}} = \frac{sin\text{б}}{cos\text{б}}.$

4. O‘tkir burchakning kotangensi deb, o‘tkir burchakka yopishgan katetning, o‘tkir burchak qarshisidagi katetga bo‘lgan nisbatiga aytiladi:

$$ctg\text{б} = \frac{a}{b} = \frac{c \cdot cos\text{б}}{c \cdot sin\text{б}} = \frac{cos\text{б}}{sin\text{б}}.$$

5. O‘tkir burchakning sekansi deb, gipotenizaning o‘tkir burchakka yopishgan katetga bo‘lgan nisbatiga aytiladi: $sec\text{б} = \frac{c}{a} = \frac{c}{c \cdot cos\text{б}} = \frac{1}{cos\text{б}}.$

6. O‘tkir burchakning kosekansi deb, gippotenizaning o‘tkir burchak qarshisidagi katetga bo‘lgan nisbatiga aytiladi: $cosec\text{б} = \frac{c}{b} = \frac{c}{c \cdot sin\text{б}} = \frac{1}{sin\text{б}}.$

4.2. Trigonometrik ifodalarni chorakdagi ishorasi va qiymatlari.

4.2.1. Trigonometrik ifodalarni chorakdagi ishorasi.



4.2-rasm.

Markazi koordinata boshida, radiusi $OA = R$ ga teng bo‘lan aylana chizamiz (rasmga qarang). *OA* radiusni *α* burchakka burib, katetlari *OC* va *BC* bo‘lgan *OCB* to‘g‘ri burchakli uchburchakni hosil qilamiz. б burchak qarshisidagi *BC* va *DE* katetlarni shartli ravishda sinus chizig‘i deb olamiz. Bu chiziqlar *OY* o‘qiga proeksiyalanadi, demak, $sin\text{б}$ ning I va II chorakdagi qiymatlari musbat, III va IV chorakdagi qiymatlari manfiy bo‘ladi (4.2-rasm). б burchakka yopishgan *OC* va *OK* katetlarni shartli ravishda kosinus chizig‘i deb olamiz.

Bu chiziqlar *OX* o‘qiga proeksiyalanadi, demak, cosб ning I va IV chorakdagi qiymatlari musbat, II va III chorakdagi qiymatlari manfiy bo‘ladi. Tangens va katangenslarni chorakdagi ishoralarini, sinus va kosinuslarning tegishli chorakdagi ishoralarini bir biriga bo‘lish orqali aniqlanadi (4.3-rasm).



4.3-rasm.

4.2.2. Trigonometrik ifodalarni chorakdagi qiymatlari.

Radusi $OA = OB = OC = OD = R = 1$ ga teng bo‘lgan aylana chizamiz (4.4-rasm): Chizmadan ΔOBE teng tomonli uchburchak bo‘lib, tomonlari $R = 1$ va ichki burchaklarining har biri 60^0 ga teng bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Bundan $BB_1 = y_1 = \frac{R}{2} = \frac{1}{2}$.

ΔOCB_1teng yonli to‘go‘ri burchakli uchburchak bo‘lgani uchun $x_2 = y_2$ bo‘ladi. Bundan Pifagor teoremasiga asosan, $R^2 = y_2^2 + y_2^2 = 2y_2^2$ bo‘ladi.

Yoki $y_2 = \frac{1}{\sqrt{2}} = \frac{\sqrt{2}}{2}$.

ΔODD_1 to‘go‘ri burchakli uchburchak bo‘lgani uchun $\angle D_1 = 90^0, \angle DOD_1 = 60^0$, $\angle ODD_1 = 30^0$ bo‘ladi. Bundan $x_1 = \frac{R}{2} = \frac{1}{2}$. ΔODD_1 dan Pifagor teoremasiga asosan, $R^2 = y_3^2 + x_1^2$ bo‘ladi, bundan $y_3 = \sqrt{1^2 - \left(\frac{1}{2}\right)^2} = \frac{\sqrt{3}}{2}$. ΔOBB_1 to‘go‘ri burchakli uchburchakdan $R^2 = y_1^2 + x_3^2$ bo‘lgani uchun va bundan $x_3 = \sqrt{1^2 - \left(\frac{1}{2}\right)^2} = \frac{\sqrt{3}}{2}$.

Bu aniqlangan qiymatlar sinusning birinchi choragi uchun bo‘lib, uning cosines, tangens va kotangens uchun ham qiymatlarini topamiz va ularni quyidagi jadval ko‘rinishda yozamiz.

α	0°	30° π/6	45° π/4	60° π/3	90° π/2	180° π	270° 3π/2	360° 2π
sinα	0	1/2	$\sqrt{2}/2$	$\sqrt{3}/2$	1	0	-1	0
cosα	1	$\sqrt{3}/2$	$\sqrt{2}/2$	1/2	0	-1	0	1
tgα	0	$1/\sqrt{3}$	1	$\sqrt{3}$	∞	0	- ∞	0
ctgα	∞	$\sqrt{3}$	1	$1/\sqrt{3}$	0	- ∞	0	∞

Bu qiymatlar sinus, cosinus, tangens va kotangenslarning chorakdagi ishoralariga qarab o‘zgaradi.



4.4-rasm.

Keltirish formulalari:

α	$90^0 \pm б$	$270^0 \pm б$	$180^0 \pm б$	$360^0 \pm б$
$sin\alpha$	$cos\alpha$	$-cos\alpha$	$\mp sin\alpha$	$\pm sin\alpha$
$cos\alpha$	$\mp sin\alpha$	$\pm sin\alpha$	$-cos\alpha$	$cos\alpha$
$tg\alpha$	$\mp ctg\alpha$	$\mp ctg\alpha$	$\pm tg\alpha$	$\pm tg\alpha$
$ctg\alpha$	$\mp tg\alpha$	$\mp tg\alpha$	$\pm ctg\alpha$	$\pm ctg\alpha$

4.3. Ikki burchak yig'indisi va ayirmasining *sin α, cos α, tg α* va *ctg α*

4.3.1. Ikki burchak yig'indisi va ayirmasining sinusi.

$$sin(\alpha+\beta) = sin\alpha \cdot cos\beta + sin\beta \cdot cos\alpha. \quad (4.1)$$

$$sin(\alpha-\beta) = sin\alpha \cdot cos\beta - sin\beta \cdot cos\alpha. \quad (4.2)$$



4.5-rasm.

<u>Isbot:</u> *4.5-rasmda* $OA = OB = OC = R;\ DE = MF;$
$EF = DM. CD = DE + CE = MF + CE.$
$OF = R \cdot cos\beta.\ CF = R \cdot sin\beta. MF = OF \cdot sin\alpha =$
$= R \cdot sin\alpha \cdot cos\beta.\ CE = CF \cdot cos\alpha = R \cdot sin\beta \cdot cos\alpha.$

$$sin(\alpha+\beta) = \frac{CD}{R} = \frac{MF+CE}{R} =$$

$$= \frac{R(sin\alpha \cdot cos\beta + sin\beta \cdot cos\alpha)}{R} = sin\alpha \cdot cos\beta + sin\beta \cdot cos\alpha.$$

4.3.2. Ikki burchak yig'indisi va ayirmasining kosinusi.

$cos(б + в) = cosб \cdot cosв - sinб \cdot sinв.$ (4.3)

$cos(б - в) = cosб \cdot cosв + sinб \cdot sinв.$ (4.4)

Isbot: *Chizmada* $OA = OB = OC = R;\ EF = DM. OD = OM - DM = OM - EF.$

$OF = R \cdot cosв.\ CF = R \cdot sinв.\ EF = CF \cdot sinб = R \cdot sinб \cdot sinв.$

$OM = OF \cdot cosб = R \cdot cosб \cdot cosв.$

$$cos(б + в) = \frac{OD}{R} = \frac{OM - EF}{R} = \frac{R(cosб \cdot cosв - sinб \cdot sinв)}{R} =$$

$$= cosб \cdot cosв - sinб \cdot sinв.$$

4.3.3. Ikki burchak yig'indisi va ayirmasining tangensi.

$$tg(б + в) = \frac{tgб + tgв}{1 - tgб \cdot tgв};\qquad (4.5)$$

$$tg(б - в) = \frac{tgб - tgв}{1 + tgб \cdot tgв}.\qquad (4.6)$$

Isbot: $tg(б + в) = \frac{sin(б+в)}{\cos(б+в)} = \frac{sinб \cdot cosв + sinв \cdot cosб}{\cos б \cdot cosв - sinб \cdot sinв}$. *Kasrni surat va maxrajini* $cosб \cdot cosв$ *ga bo'lsak,* $\frac{tgб + tgв}{1 - tgб \cdot tgв}$ *hosil bo'ladi.*

4.3.4. Ikki burchak yig'indisi va ayirmasining katangensi.

$$ctg(б + в) = \frac{ctgб \cdot ctgв - 1}{ctgб + ctgв};\qquad (4.7)$$

$$ctg(б - в) = \frac{ctgб \cdot ctgв + 1}{ctgб - ctgв}.\qquad (4.8)$$

Isbot: $ctg(б + в) = \frac{cos(б+в)}{\sin(б+в)} = \frac{\cos б \cdot cosв - sinб \cdot sinв}{sinб \cdot cosв + sinв \cdot cosб}$. *Kasrni surat va maxra-jini* $sinб \cdot sinв$ *ga bo'lsak,* $\frac{ctgб \cdot ctgв - 1}{ctgб + ctgв}$ *hosil bo'ladi.*

4.4. Trigonometrik ifodalar ko'paytmasini yig'indi va ayirmaga almashtirish.

(4.1) va (4.2) formulalarni hadma had qo'shib, quyidagi formulani hasil qilamiz:

1. $sinб \cdot cosв = \frac{1}{2}[sin(б + в) + sin(б - в)].$

(4.1) formuladan (4.2) formulalarni hadma had ayirib, quyidagi formulani hasil qilamiz:

2. $sinв \cdot cosб = \frac{1}{2}[sin(б + в) - sin(б - в)].$

(4.3) va (4.4) formulalarni hadma had qo'shib, quyidagi formulani hasil qilamiz:

3. $cosб \cdot cosв = \frac{1}{2}[cos(б + в) + cos(б - в)].$

(4.3) formuladan (4.4) formulalarni hadma had ayirib, quyidagi formulani hasil qilamiz:

4. $sin\alpha \cdot sin\beta = -\frac{1}{2}[cos(\alpha + \beta) - cos(\alpha - \beta)].$

4.5. Ikkilangan burchak trigonometriyasi.

4.5.1. Ikkilangan burchak sinusi. $sin2\alpha = 2sin\alpha \cdot cos\alpha;\quad sin\alpha = 2sin\frac{\alpha}{2} \cdot cos\frac{\alpha}{2}.$

Isbot: *Agar* $sin(\alpha + \beta) = sin\alpha \cdot cos\beta + sin\beta \cdot cos\alpha$ *formulada* $\beta = \alpha$ *bo'lsa,* $sin(\alpha + \alpha) = sin\alpha \cdot cos\alpha + sin\alpha \cdot cos\alpha$ *bo'ladi, bundan*

$$sin2б = 2sinб \cdot cosб.$$

4.5.2.Ikkilangan burchak kosinusi.

$$cos2б = cos^2б - sin^2б;\ cosб = cos^2\frac{б}{2} - sin^2\frac{б}{2}.$$

Isbot: *Agar* $cos(б + в) = cosб \cdot cosв - sinб \cdot sinв$ *formulada* $в = б$ *bo'lsa,* $cos(б + б) = cosб \cdot cosб - sinб \cdot sinб$ *bo'ladi, bundan*

$$cos2б = cos^2б - sin^2б.$$

4.5.3. Ikkilangan burchak tangensi. $tg2б = \frac{2tgб}{1-tg^2б}$; $tgб = \frac{2tg\frac{б}{2}}{1-tg^2\frac{б}{2}}.$

Isbot: *Agar* $tg(б + в) = \frac{tgб+tgв}{1-tgб \cdot tgв}$ *formulada* $в = б$ *bo'lsa,*

$tg(б + б) = \frac{tgб+tgб}{1-tgб \cdot tgб}$ *bo'ladi, bundan* $tg2б = \frac{2tgб}{1-tg^2б}.$

4.6. Uchlangan burchak trigonometriyasi.

1) $sin3б = 3sinб - 4sin^3б.$

Isboti: $sin3б = sin(2б + б) = sin2б \cdot cosб + sinб \cdot cos2б =$

$$= 2sinб \cdot cos^2б + sinб \cdot (cos^2б - sin^2б) =$$
$$= 2sinб \cdot (1 - sin^2б) + sinб \cdot (1 - sin^2б - sin^2б) =$$
$$= 2sinб - 2sin^3б + sinб - 2sin^3б = 3sinб - 4sin^3б.$$

2) $cos3б = 4cos^3б - 3cosб.$

Isboti: $cos3б = cos(2б + б) = cos2б \cdot cosб - sinб \cdot sin2б =$

$$= (cos^2б - sin^2б) \cdot cosб - 2sin^2б \cdot cosб =$$
$$= 2cos^3б - cosб - 2cosб + 2cos^3б = 4cos^3б - 3cosб.$$

3) $tg3б = \frac{3tgб-tg^3б}{1-3tg^2б}.$

Isboti: $tg3б = tg(2б + б) = \frac{tg2б+tgб}{1-tg2б \cdot tgб} = \frac{\frac{2tgб}{1-tg^2б}+tgб}{1-\frac{2tgб}{1-tg^2б} \cdot tgб} = \frac{3tgб-tg^3б}{1-3tg^2б}.$

4.7. To'rtlangan burchak trigonometriyasi.

1) $cos4б = 8cos^4б - 8cos^2б + 1.$

2) $sin4б = 4cosб(sinб - 2sin^3б).$ 3) $tg4б = \frac{4tgб(1-tg^2б)}{1-6tg^2б+tg^4б}.$

4.8. Darajani pasaytirish va yarim burchak trigonometryasi.

4.8.1. Darajani pasaytirish.

$sin^2б = \frac{1-cos2б}{2}$; $sinб = \pm\sqrt{\frac{1-cos2б}{2}}.$

Isbot: $cos2б = cos^2б - sin^2б$ *formulaning ikkala tomonidan 1 ni ayirib, quyidagi tenglikni hosil qilamiz:*

$1 - cos2б = 1 - cos^2б + sin^2б = 2sin^2б.$ *Bundan:* $sin^2б = \frac{1-cos2б}{2}.$

$cos^2 б = \frac{1+cos2б}{2}$; $cosб = \pm\sqrt{\frac{1+cos2б}{2}}$.

Isbot: $cos2б = cos^2б - sin^2б$ *formulaning ikkala tomoniga 1 ni qo'shib, quyidagi tenglikni hosil qilamiz:*

$1 + cos2б = 1 + cos^2б - sin^2б = 2cos^2б$. *Bundan:* $cos^2б = \frac{1+cos2б}{2}$.

$tg^2б = \frac{1-cos2б}{1+cos2б}$. $1 - tg^2б = \frac{cos2б}{cos^2б}$. $1 - ctg^2б = -\frac{cos2б}{sin^2б}$.

$sin^3б = \frac{3sinб - sin3б}{4}$.

Isbot: $sin^3б = sinб \cdot sin^2б = sinб \cdot \frac{1-cos2б}{2} = \frac{sinб - sinб \cdot cos2б}{2} =$

$$= \frac{sinб - \frac{1}{2}(sin3б - sinб)}{2} = \frac{3sinб - sin3б}{4}.$$

$cos^3б = \frac{3cosб + cos3б}{4}$.

Isbot: $cos^3б = cosб \cdot cos^2б = cosб \cdot \frac{1+cos2б}{2} = \frac{cosб + cosб \cdot cos2б}{2} =$

$$= \frac{cosб + \frac{1}{2}(cos3б + cosб)}{2} = \frac{3cosб + cos3б}{4}.$$

4.8.2. Yarim burchak trigonometryasi.

$sin\frac{б}{2} = \pm\sqrt{\frac{1-cosб}{2}}$. $cosб\frac{б}{2} = \pm\sqrt{\frac{1+cosб}{2}}$. $tg\frac{б}{2} = \pm\sqrt{\frac{1-cosб}{1+cosб}}$.

4.9. Trigonometrik ifodalar yig'indi va ayirmasini ko'paytmaga almashtirish.

1. $sinб + sinв = 2sin\frac{б+в}{2} \cdot cos\frac{б-в}{2}$.

Isbot: $\begin{cases} б = x + y \\ в = x - y \end{cases}$ *deb belgilash kiritaniz:*

$sinб + sinв = sin(x + y) + sin(x - y) =$

$= sinx \cdot cosy + siny \cdot cosx + sinx \cdot cosy - siny \cdot cosx = 2sinx \cdot cosy.$

Yuqoridagi sistemani hadlab qo'shib, $x = \frac{б+в}{2}$ *ni, ayirib,* $x = \frac{б+в}{2}$ *ni hosil qilamiz. Bularni o'rniga qo'ysak:* $sinб + sinв = 2sin\frac{б+в}{2} \cdot cos\frac{б-в}{2}$.

2. $sinб - sinв = 2sin\frac{б-в}{2} \cdot cos\frac{б+в}{2}$.

3. $cosб + cosв = 2cos\frac{б+в}{2} \cdot cos\frac{б-в}{2}$.

4. $cosб - cosв = -2sin\frac{б+в}{2} \cdot sin\frac{б-в}{2}$. Bularni isboti ham yuqoridagi kabi amalga oshiriladi.

5. $tgб + tgв = \frac{\sin(б+в)}{cosб \cdot cosв}$.

Isbot: $tgб + tgв = \frac{\sinб}{cosб} + \frac{\sin\beta}{cosв} = \frac{\sinб \cdot cosв + \sin\beta \cdot cosб}{cosб \cdot cosв} = \frac{\sin(б+в)}{cosб \cdot cosв}$.

6. $tgб - tgв = \frac{\sin(б-в)}{cosб \cdot cosв}$.

4.10. Qo'shimcha trigonometrik formulalar.

1. $sinб = \frac{2tg\frac{б}{2}}{1+tg^2\frac{б}{2}}$. 2. $cosб = \frac{1-tg^2\frac{б}{2}}{1+tg^2\frac{б}{2}}$. 3. $tgб = \frac{2tg\frac{б}{2}}{1-tg^2\frac{б}{2}}$.

4. $16 \cdot sin10^0 \cdot sin30^0 \cdot sin50^0 \cdot sin70^0 = 1$.

5. $16 \cdot cos10^0 \cdot cos30^0 \cdot cos50^0 \cdot cos70^0 = 3$

6. $16 \cdot sin20^0 \cdot sin40^0 \cdot sin60^0 \cdot sin80^0 = 3$

7. $16 \cdot cos20^0 \cdot cos40^0 \cdot cos60^0 \cdot cos80^0 = 1$

8. $tg20^0 \cdot tg40^0 \cdot tg60^0 \cdot tg80^0 = 3$

9. $4cos\frac{р}{5} \cdot cos\frac{3р}{5} = -1$. 10. $8cos\frac{р}{7} \cdot cos\frac{3р}{7} \cdot cos\frac{5р}{7} = 1$.

11. $8cos\frac{р}{7} \cdot cos\frac{2р}{7} \cdot cos\frac{4р}{7} = -1$; $8cos\frac{р}{7} \cdot cos\frac{4р}{7} \cdot cos\frac{5р}{7} = 1$.

12. $sin\ \frac{р}{4n} \cdot sin\ \frac{3р}{4n} \cdot sin\ \frac{5р}{4n} \cdots sin\ \frac{(2n-1)р}{4n} = \frac{\sqrt{2}}{2^n}$.

13. $cos\frac{р}{5} + cos\frac{3р}{5} = \frac{1}{2}$; $cos\frac{2р}{7} + cos\frac{4р}{7} + cos\frac{6р}{7} = -\frac{1}{2}$.

Yechish: Integral hisoblash uchun $f(x) = x$ va $g'(x) = cosx$ deb olamiz.

U holda $f'(x) = 1$ va $g(x) = \int cosxdx = sinx + C$ bo'ladi. (7.4) formulaga ko'ra

$\int xcosxdx = x \cdot sinx - \int sinx \cdot 1dx = x \cdot sinx + cosx + C.$

Aniq integralni yangi o'zgartirish kiritish yo'li bilan yechish:

$$\textbf{Misol: } \int_{\frac{p}{6}}^{\frac{p}{2}} \frac{sinx}{sinx+2}dx = \left| \begin{matrix} sinx = t \\ sinxdx = dt \\ x = \frac{p}{2} \Rightarrow t = 1 \\ x = \frac{p}{6} \Rightarrow t = \frac{1}{2} \end{matrix} \right| = \int_{\frac{1}{2}}^{1} \frac{dt}{t+2} = \ln(t+2) =$$

$$= \ln(1+2) - \ln\left(\frac{1}{2} + 2\right) = ln3 - ln\frac{5}{2} = ln\frac{6}{5}.$$

HOSILA VA BOSHLANG'ISH FUNKSIYALARGA DOIR MISOL VA MASALALAR

Hosilaga doir:

1) $f(x) = \dfrac{2-x}{x}$ funksiyani hosilasini aniqlang.

Yechish: *Berilgan funksiyani quyidagi ko'rinishda yozamiz:* $f(x) = \frac{2}{x} - 1.$

Bu funksiyani hosilasi $f'(x) = -\frac{2}{x^2}.$

2) $f(x) = \sqrt[3]{2x + x^2}$ funksiyani hosilasini aniqlang.

Yechish: *Berilgan funksiyani quyidagi ko'rinishda yozamiz:* $f(x) = (2x + x^2)^{\frac{1}{3}}.$

Bu funksiyani hosilasi $f'(x) = \frac{1}{3}(2x + x^2)^{\frac{1}{3}-1}(2 + 2x) = \dfrac{2(x+1)}{3\sqrt[3]{\left(2x+x^2\right)^2}}.$

3) $f(x) = \cos^2(2x + \frac{\pi}{3})$ funksiyani hosilasini aniqlang.

Yechish: *Darajani pasaytirish formulasidan foydalanib, berilgan funksiyani quyidagi ko'rinishda yozamiz:* $f(x) = \frac{1}{2} + \frac{1}{2}cos\left(4x + \frac{2p}{3}\right).$

Bu funksiyani hosilasi $f'(x) = -2\,sin\left(4x + \frac{2p}{3}\right).$

4) $f(x) = 2x^3 - 3x^2 + 5x - 8$ funksiya hosilasini $x = 2, f'(2)$ da hisoblang.

Yechish: *Berilgan funksiyani hosilasini olib, undagi x ni o'rniga 2 ni qo'yib hisoblaymiz:* $f'(2) = 6x^2 - 6x + 5 = 6 \cdot 2^2 - 6 \cdot 2 + 5 = 17.$

5) $f(x) = 3\sqrt[3]{x^2} + 4\sqrt{2x} + x - 3$ funksiya hosilasini $x = 8, f'(8)$ da hisoblang.

Yechish: *Berilgan funksiyani quyidagi ko'rinishda yozamiz:*

$f(x) = 3x^{\frac{2}{3}} + 4\sqrt{2x} + x - 3.$ *Bu funksiyani hosilasini olib, undagi x ni o'rniga 8 ni qo'yib hisoblaymiz:*

$f'(8) = 3 \cdot \frac{2}{3}x^{\frac{2}{3}-1} + 4 \cdot \frac{2}{2\sqrt{2x}} + 1 = \frac{2}{\sqrt[3]{x}} + \frac{4}{\sqrt{2x}} + 1 = \frac{2}{\sqrt[3]{8}} + \frac{4}{\sqrt{2 \cdot 8}} + 1 = 3.$

6) $f(x) = sinx \cdot cosx$ funksiya hosilasini $x = \frac{p}{3}, f'(\frac{p}{3})$ da hisoblang.

Yechish: *Berilgan funksiyani quyidagi ko‘rinishda yozamiz:* $f(x) = \frac{1}{2}sin2x.$

Bu funksiyani hosilasini olib, undagi x ni o‘rniga $\frac{p}{3}$ *ni qo‘yib hisoblaymiz:*

$f'\left(\frac{p}{3}\right) = \frac{1}{2} \cdot 2 \cdot cos2x = cos\left(2 \cdot \frac{p}{3}\right) = -\frac{1}{2}.$

7) $f(x) = 2^{x-3} \cdot (2x-5)$ funksiya hosilasini $x = 3, f'(3)$ da hisoblang.

Yechish: *Funksiyani hosilasini olib, undagi x ni o‘rniga 3 ni qo‘yib hisoblaymiz:*

$f'(3) = 2^{x-3} \cdot ln2 \cdot (2x-5) + 2 \cdot 2^{x-3} = 2^{3-3} \cdot ln2 \cdot (2 \cdot 3 - 5) + 2 \cdot 2^{3-3} =$
$= ln2 + 2.$

8) $f(x) = e^{x^2-5x}$ funksiya hosilasini $x = 0, f'(0)$ da hisoblang.

Yechish: *Funksiyani hosilasini olib, undagi x ni o‘rniga 0 ni qo‘yib hisoblaymiz:*

$f'(0) = (2x-5) \cdot e^{x^2-5x} = (2 \cdot 0 - 5) \cdot e^{0^2-5 \cdot 0} = -5.$

9) $f(x) = \sqrt{3^x + x^3}$ funksiya hosilasini $x = 1, f'(1)$ da hisoblang.

Yechish: *Funksiyani hosilasini olib, undagi x ni o‘rniga 1 ni qo‘yib hisoblaymiz:*

$f'(1) = \frac{3^x \cdot ln3 + 3x^2}{2\sqrt{3^x + x^3}} = \frac{3^1 \cdot ln3 + 3 \cdot 1^2}{2\sqrt{3^1 + 1^3}} = \frac{3 \cdot (ln3+1)}{4}.$

10) $f(x) = cos^4x - sin^4x$ funksiya hosilasini $x = \frac{p}{4}, f'(\frac{p}{4})$ da hisoblang.

Yechish: *Berilgan funksiyani quyidagi ko‘rinishda yozamiz:*

$f(x) = (cos^2x - sin^2x) \cdot (cos^2x + sin^2x) = cos2x.$

Bu funksiyani hosilasini olib, undagi x ni o‘rniga $\frac{p}{4}$ *ni qo‘yib hisoblaymiz:*

$f'\left(\frac{p}{4}\right) = -2 \cdot sin2x = -2\,sin\left(2 \cdot \frac{p}{4}\right) = -2.$

11) $f(x) = 4cos^2 2x$ funksiya hosilasini $x = \frac{p}{24}, f'(\frac{p}{24})$ da hisoblang.

Yechish: *Funksiyani hosilasini olib, undagi x ni o‘rniga* $\frac{p}{24}$ *ni qo‘yib hisoblaymiz:*

$f'\left(\frac{p}{24}\right) = -4 \cdot 2 \cdot 2cos2x \cdot sin2x = -8sin4x = -8sin\left(4 \cdot \frac{p}{24}\right) = -4.$

12) $f(x) = \frac{18}{x^2} + 1\frac{7}{18}x^2$ funksiyani eng kichik qiymatini toping.

Yechish: *Funksiyani hosilasini olamiz:*

$$f'(x) = -\frac{2 \cdot 18}{x^3} + 2 \cdot \frac{25}{18}x = 0 \Rightarrow x^2 = \frac{18}{5}.$$

$$f(x) = \frac{18}{\frac{18}{5}} + \frac{25}{18} \cdot \frac{18}{5} = 10.$$

13) $f(x) = 3x - x^2$ funksiyani [-1;3] oraliqdagi eng kichik qiymatini toping.

Yechish: *Funksiyani kritik nuqtasini aniqlaymiz:*

$$f'(x) = 3 - 2x = 0 \Rightarrow x = 1,5.$$

Demak berilgan oraliqda kritik nuqta mavjud, shuni uchun uni qiymatini ham hisoblaymiz: $f(1{,}5) = 3 \cdot 1{,}5 - 1{,}5^2 = 2{,}25;\ f(-1) = 3 \cdot (-1) - (-1)^2 = -4.$
$f(3) = 3 \cdot 3 - (3)^2 = 0.$ *Bu qiymatlarni ichida eng kichigi* -4.

14) $f(x) = -\frac{1}{3}x^2 - \frac{1}{6}x + \frac{1}{3}$ funksiyani [-1;1] oraliqdagi eng kichik va eng katta qiymatlari yig‘indisini toping.

Yechish: *Funksiyani kritik nuqtasini aniqlaymiz:*

$$f'(x) = -\frac{2}{3}x - \frac{1}{6} = 0 \Rightarrow x = -\frac{1}{4}.$$

Demak berilgan oraliqda kritik nuqta mavjud, shuni uchun uni qiymatini ham hisoblaymiz: $f\left(-\frac{1}{4}\right) = -\frac{1}{3} \cdot \left(-\frac{1}{4}\right)^2 - \frac{1}{6} \cdot \left(-\frac{1}{4}\right) + \frac{1}{3} = \frac{13}{48}.$

$f(-1) = -\frac{1}{3} \cdot (-1)^2 - \frac{1}{6} \cdot (-1) + \frac{1}{3} = \frac{1}{6}.$ $\quad f(1) = -\frac{1}{3} \cdot (1)^2 - \frac{1}{6} \cdot (1) + \frac{1}{3} = -\frac{1}{6}.$

Masala shartiga asosan $-\frac{1}{6} + \frac{13}{48} = \frac{5}{48}.$

15) $f(x) = 2cos\frac{x}{3}$ funksiya grafigining $M\left(\frac{3p}{2}; 0\right)$ nuqtasiga o‘tkazilgan urunma tenglamasini tuzing.

Yechish: *Masala shartiga ko‘ra* $x_0 = \frac{3p}{2}$ *ekanligini hisobga olib, urunma tenglamasidagi* $f\left(\frac{3p}{2}\right) = 2cos\frac{3p}{2 \cdot 3} = 2cos\frac{p}{2} = 0$ *va*
$f'\left(\frac{3p}{2}\right) = -2 \cdot \frac{1}{3}sin\frac{x}{3} = -\frac{2}{3}sin\frac{3p}{2 \cdot 3} = -\frac{2}{3}$ *larni aniqlaymiz va ularni urunma tenglamasiga qo‘yamiz:* $y = 0 - \frac{2}{3}\left(x - \frac{3p}{2}\right) = -\frac{2}{3}x + p.$

16) $f(x) = \frac{\sqrt{3}}{3}x^3 - 1$ funksiya grafigining $x_0 = 1$ nuqtasiga o‘tkazilgan urunmaning *OX* o‘qi bilan tashkil qilgan burchagini toping.

Yechish: *Masala shartiga asosan urunmaning burchak koeffitsientini k topish talab qilinadi.* $k = f'(1) = \frac{\sqrt{3}}{3} \cdot 3x^2 = \sqrt{3} \cdot 1 = \sqrt{3} = tgб \rightarrow б = 60^0.$

17) $y = 5 - \sqrt{8x + 1}$ funksiyani $x_0 = 1$ nuqtasiga o‘tkazilgan urunma va koordinata o‘qlari bilan chegaralangan uchburchakni yuzini toping.

Yechish: *Urunma tenglamasidagi* $f(1) = 5 - \sqrt{8 \cdot 1 + 1} = 2$ *va*
$f'(1) = -\frac{4}{\sqrt{8x+1}} = = -\frac{4}{\sqrt{8 \cdot 1 + 1}} = -\frac{4}{3}$ *larni aniqlaymiz va ularni urunma tenglamasiga qo‘yamiz:*

$$y = 2 - \frac{4}{3}(x - 1) = -\frac{4}{3}x + 2 + \frac{4}{3} = -\frac{4}{3}x + \frac{10}{3}.$$



18) Uy oldidan uzunligi $\ell = 120\,m$ ga teng bo‘lgan sim to‘r yordamida yuzasi eng katta maydon hosil qilish uchun uning o‘lchamlari qanday bo‘lishi kerak (rasmga qarang).

Yechish: *Rasmdan* $\ell = 2x + y = 120.$

Bundan $y = 120 - 2x$.

Maydonning yuzasi $S = xy$ *bundagi y ni o'rniga uni qiymatini qo'yib, yuza funksiyasini tuzamiz:* $S(x) = x(120 - 2x) = 120x - 2x^2$.

Bu funksiyaning hosilasini olb, nolga tenlaymiz:

$$120 - 4x = 0 \Rightarrow x = 30;\ y = 60.$$

19) Tomonlarining yig'indisi $a + b = 18\,m$, ular orasidagi burchak $б = 150^0$ bo'lgan uchburchaklar ichida yuzasi eng katta bo'lganini toping.

Yechish: *Ikki tomoni va ular orasidagi burchak berilganda uchburchakni yuzi quyidagi formula orqali aniqlanadi:* $S = \frac{1}{2}absinб$. *Berilgan shartdan* $b = 18 - a$ *ekanligini topib, yuza funksiyasini tuzamiz:*

$S(x) = \frac{1}{2}a(18 - a)sin150^0 = \frac{1}{4}(18a - a^2)$. *Bu funksiyaning hosilasini olb, nolga tenlaymiz:* $18 - 2a = 0 \Rightarrow a = 9;\ b = 9.\ S = \frac{1}{4}\cdot 9\cdot 9 = 20\frac{1}{4}m^2$.

20) Yasovchisi $L = 10$, asosining diametri $D = 12$ bo'lgan konus ichiga eng katta hajimli silindrni sig'dirish uchun uni balandligi qancha bo'lishi kerak (rasimda o'q kesimi ko'rsatilgan).



Yechish: *Chizmadan quyidagilarni aniqlaymiz:*

$H = \sqrt{L^2 - R^2};\ \frac{R}{r} = \frac{H}{H-h}$ *bundan* $h = \frac{H(R-r)}{R}$.

Silindrni hajmi $V = \text{p}\cdot r^2\cdot h$. *h ni qiymatini bu formulaga qo'yib, hajim funksiyasini tuzamiz:* $V(r) = \text{p}\cdot r^2\cdot\frac{H(R-r)}{R} = \text{p}\cdot\frac{H}{R}\cdot(Rr^2 - r^3)$. *Bu funksiyani hosilasini olib, nolga tenglaymiz:*

$$V'(r) = \text{p}\cdot r^2\cdot\frac{H(R-r)}{R} = \text{p}\cdot\frac{H}{R}\cdot(2Rr - 3r^2) = 0 \Rightarrow r \neq 0;\ r = \frac{2}{3}\cdot R.$$

$$h = \frac{H(R-r)}{R} = \frac{H(R-\frac{2}{3}\cdot R)}{R} = \frac{H}{3} = \frac{8}{3} = 2\frac{2}{3}.$$

Boshlang'ich funksiya va integralga doir:

1) $f(x) = e^{7x} + sin6x$ funksiyaning boshlang'ichini toping.

Yechish: $F(x) = \int e^{7x}dx + \int sin6xdx$: *Bu funksiyani quyidagicha yozamiz:*

$$F(x) = \frac{1}{7}\int e^{7x}d(7x) + \frac{1}{6}\int sin6xd(6x) = \frac{1}{7}e^{7x} - \frac{1}{6}cos6x + C.$$

2) $f(x) = sin\left(\frac{x}{4} + 5\right)$ funksiyaning boshlang'ichini toping.

Yechish: $F(x) = \int sin\left(\frac{x}{4} + 5\right)dx$: *Bu funksiyani quyidagicha yozamiz:*

$$F(x) = 4\int sin\left(\frac{x}{4} + 5\right)d\left(\frac{x}{4} + 5\right) = -4cos\left(\frac{x}{4} + 5\right) + C.$$

3) $y = \frac{5}{\cos^2 x} + 3$ funksiyaning boshlang'ichini toping.

Yechish: $F(x) = \int\frac{5}{cos^2x}dx + \int 3dx = 5tgx + 3x + C$.

4) $f(x) = \frac{1-sin^2x}{1+sinx} - \frac{1-cos^2x}{1-cosx}$ funksiyaning boshlang'ichini toping.

Yechish: *Bu funksiyani quyidagicha so'ldalashtiramiz:*

$f(x) = 1 - sinx - 1 - cosx = -sinx - cosx.$

$F(x) = -\int sinxdx - \int cosxdx = cosx - sinx + C.$

5) $f(x) = 18sin4x \cdot sin5x$ funksiyaning boshlang'ichini toping.

Yechish: *Bu funksiyani quyidagicha so'ldalashtiramiz:*

$f(x) = 9(cosx - \cos(9x)).$

$F(x) = 9\int cosxdx - \frac{1}{9}\int \cos(9x)\, d(9)x = 9sinx - \sin(9x) + C.$

6) $f(x) = -tg^2x$ funksiyaning boshlang'ichini toping.

Yechish: *Bu funksiyani quyidagicha so'ldalashtiramiz:*

$f(x) = -\frac{sin^2x}{cos^2x} = -\frac{1-cos^2x}{cos^2x} = 1 - \frac{1}{cos^2x}.$

$F(x) = \int dx - \int \frac{1}{cos^2x}dx = x - tgx + C.$

7) $f(x) = (x-1)x^3 + e^{3x} + \frac{1}{3x}$ funksiyaning boshlang'ichini toping.

Yechish: *Bu funksiyani quyidagicha so'ldalashtiramiz:*

$f(x) = x^4 - x^3 + e^{3x} + \frac{1}{3x}$ $F(x) = \int x^4dx - \int x^3dx + \frac{1}{3}\int e^{3x}d(3x) +$
$+\int \frac{1}{3x}dx = \frac{x^5}{5} - \frac{x^4}{4} + \frac{1}{3}e^{3x} + \frac{1}{3}lnx + C.$

8) $f(x) = x + 1 + ctg^2x$ funksiyaning boshlang'ichini toping.

Yechish: *Bu funksiyani quyidagicha so'ldalashtiramiz:* $f(x) = x + \frac{1}{sin^2x}.$

$F(x) = \int xdx + \int \frac{1}{sin^2x}dx = \frac{x^2}{2} - ctgx + C.$

9) $f(x) = \frac{2}{\sqrt[4]{2x+5}}$ funksiyaning boshlang'ichini toping.

Yechish: *Bu funksiyani quyidagicha so'ldalashtiramiz:* $f(x) = 2(2x+5)^{-\frac{1}{4}}$

$F(x) = \int (2x+5)^{-\frac{1}{4}}d(2x+5) = \frac{4}{3}(2x+5)^{\frac{3}{4}} + C = \frac{4}{3}\sqrt[4]{(2x+5)^3} + C.$

10) $f(x) = -x + \frac{x^2}{2}$ funksiyani $(2; 3)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ichini toping.

Yechish: $F(x) = -\int xdx + \frac{1}{2}\int x^2dx = -\frac{x^2}{2} + \frac{1}{2}\cdot\frac{x^2}{3} + C = \frac{x^3}{6} - \frac{x^2}{2} + C.$ *C ni toppish uchun bu funksiyaga nuqtaning koordinatalarini qo'yamiz:*

$3 = \frac{2^3}{6} - \frac{2^2}{2} + C.$ *Bundan* $C = -\frac{11}{3}.$ *Demak* $F(x) = \frac{x^3}{6} - \frac{x^2}{2} - \frac{11}{3}.$

11) $y = \frac{1}{\sqrt[3]{x^2}} + (2x-3)^2$ funksiyani $\left(1; \frac{1}{6}\right)$ nuqtadan o'tuvchi boshlang'ichini toping.

Yechish: *Bu funksiyani quyidagicha so'ldalashtiramiz:*

$f(x) = x^{-\frac{2}{3}} + 4x^2 - 12x + 9.$ $F(x) = \int x^{-\frac{2}{3}}dx + 4\int x^2dx - 12\int xdx +$
$+9\int dx = 3\sqrt[3]{x} + \frac{4}{3}x^3 - 6x^2 + 9x + C.$

C ni topish uchun bu funksiyaga nuqtaning koordinatalarini qo'yamiz:

$$\frac{1}{6} = 3\sqrt[3]{1} + \frac{4}{3}\cdot 1 - 6\cdot 1 + 9\cdot 1 + C. \ \ \textit{Bundan}\ C = -\frac{43}{6}.$$

$$\textit{Demak}\ F(x) = 3\sqrt[3]{x} + \frac{4}{3}x^3 - 6x^2 + 9x - \frac{43}{6}.$$

12) $\int\left(\sqrt{x} - \sqrt[3]{x^2} + 4^x + 5\right)dx$ ni hisoblang.

Yechish: $\int\left(\sqrt{x} - \sqrt[3]{x^2} + 4^x + 5\right)dx = \int\left(x^{\frac{1}{2}} - x^{\frac{2}{3}} + 4^x + 5\right)dx =$

$= \frac{x^{\frac{1}{2}+1}}{\frac{1}{2}+1} - \frac{x^{\frac{2}{3}+1}}{\frac{2}{3}+1} + \frac{4^x}{ln4} + 5x + C = \frac{2}{3}\sqrt{x^3} - \frac{3}{5}\sqrt[3]{x^5} + \frac{4^x}{ln4} + 5x + C.$

13) $\int \frac{2+\sqrt{x}+x^2}{\sqrt[3]{x}}dx$ ni hisoblang.

Yechish: $\int \frac{2+\sqrt{x}+x^2}{\sqrt[3]{x}}dx = 2\int x^{-\frac{1}{3}}dx + \int x^{\frac{1}{6}}dx + \int x^{\frac{5}{3}}dx =$

$= 2\frac{x^{-\frac{1}{3}+1}}{-\frac{1}{3}+1} + \frac{x^{\frac{1}{6}+1}}{\frac{1}{6}+1} + \frac{x^{\frac{5}{3}+1}}{\frac{5}{3}+1} + C = 3\sqrt[3]{x^2} + \frac{6}{7}\sqrt[6]{x^7} + \frac{3}{8}\sqrt[3]{x^8} + C.$

14) $\int tg^2xdx$ ni hisoblang.

Yechish: $tg^2x = \frac{1}{cos^2x} - 1$ *bo'lganidan foydalanib, berilgan integralni quyidagicha yozamiz va hisoblaymiz:*

$$\int\left(\frac{1}{cos^2x} - 1\right)dx = \int\frac{1}{cos^2x}dx - \int dx = tgx - x + C.$$

15) $\int \frac{dx}{\sqrt{x}\cdot(1+\sqrt[3]{x})}$ ni hisoblang.

Yechish: $x = u^6$ *o'zgartirishni kiritib, berilgan integralni quyidagicha yozamiz:* $\int\frac{dx}{\sqrt{x}\cdot(1+\sqrt[3]{x})} = \int\frac{d(u^6)}{u^3\cdot(1+u^2)} = \int\frac{6u^5du}{u^3\cdot(1+u^2)} = \int\frac{6u^2du}{1+u^2} =$

$= 6\int\left(1 - \frac{1}{1+u^2}\right)du == 6u - 6arctgu + C = 6\sqrt[6]{x} - 6arctg\sqrt[6]{x} + C.$

16) $\int_{\frac{p}{6}}^{\frac{p}{2}} cosxdx$ ni hisoblang.

Yechish: $\int_{\frac{p}{6}}^{\frac{p}{2}} cosxdx = (sinx)\ /_{\frac{p}{6}}^{\frac{p}{2}} = \left(sin\frac{p}{2} - sin\frac{p}{6}\right) = 1 - \frac{1}{2} = \frac{1}{2}.$

17) $8\int_0^{\frac{p}{12}} sinx\cdot cosx\cdot cos2xdx$ ni hisoblang.

Yechish: *Bu funksiyani quyidagicha so'ldalashtiramiz:*

$8\cdot\frac{1}{2}\int_0^{\frac{p}{12}} sin2x\cdot cos2xdx = 2\int_0^{\frac{p}{12}} sin4xdx =$

$= \frac{1}{2}\int_0^{\frac{p}{12}} sin4xd(4x) = -\frac{1}{2}\left[\cos\left(4\cdot\frac{p}{12}\right) - -\cos(4\cdot 0)\right] = \frac{1}{4}.$

18) $\int_{-1}^{2}(x+1)^2dx$ ni hisoblang.

Yechish: $\int_{-1}^{2}(x+1)^2dx=\int_{-1}^{2}(x+1)^2d(x+1)=\frac{(2+1)^3}{3}-\frac{(-1+1)^3}{3}=9.$

19) $\int\limits_{1}^{4e}\frac{dx}{0,25x+1}$ ni hisoblang.

Yechish: $\int\limits_{1}^{4e}\frac{dx}{0,25x+1}=\int\limits_{1}^{4e}\frac{4dx}{x+4}=4(ln(4e+4)-ln(14)=4ln[\frac{4}{5}(e+1)].$

20) $\int\limits_{\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{3}}\frac{3\mathrm{dx}}{2\sin^2\frac{\mathrm{x}}{2}}$ ni hisoblang.

Yechish: $\int\limits_{\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{3}}\frac{3\mathrm{dx}}{2\sin^2\frac{\mathrm{x}}{2}}=2\cdot\frac{3}{2}\int\limits_{\frac{\pi}{2}}^{\frac{\pi}{3}}\frac{\mathrm{d}\left(\frac{\mathrm{x}}{2}\right)}{\sin^2\frac{\mathrm{x}}{2}}=-3\left(\mathrm{ctg}\frac{\pi}{6}-\mathrm{ctg}\frac{\pi}{4}\right)=-3\left(\sqrt{3}-1\right)=3-3\sqrt{3}.$

21) $\int\limits_{0}^{\frac{\pi}{2}}\sin 2x\,dx$ ni hisoblang.

Yechish: $\int\limits_{0}^{\frac{\pi}{2}}sin2x\,d\,x=\frac{1}{2}\int\limits_{0}^{\frac{\pi}{2}}sin2x\,d(2x)=-\frac{1}{2}\left(cos(2\cdot\frac{\pi}{2})-cos(2\cdot0)\right)=1.$

22) $\int_0^{\frac{p}{4}}cos2xsin2xdx$ ni hisoblang.

Yechish: $\int_0^{\frac{p}{4}}cos2xsin2xdx=\frac{1}{8}\int_0^{\frac{p}{4}}sin4xd(4x)=-\frac{1}{8}\left(cos\left(4\cdot\frac{p}{4}\right)-cos(4\cdot0)\right)=\frac{1}{4}.$

23) Agar $a=1$ bo‘lsa, $\int_a^{a+1}[ln(sin^2 2x+cos^2 2x)+1]$ ni hisoblang.

Yechish:

24) $\int_4^6\frac{0,5x}{x-3}dx$ ni hisoblang.

Yechish: $\int_4^6\frac{0,5x}{x-3}dx=\int_4^6\frac{x}{2(x-3)}dx=\int_4^6\left(\frac{1}{2}+\frac{3}{2(x-3)}\right)dx=\frac{1}{2}\int_4^6dx+\frac{3}{2}\int_4^6\frac{dx}{x-3}=$
$=\left(\frac{1}{2}x+\frac{3}{2}l\,n(x-3)\right)=\left(\frac{1}{2}\cdot6+\frac{3}{2}l\,n(6-3)\right)-\left(\frac{1}{2}\cdot4+\frac{3}{2}l\,n(4-3)\right)=$
$=1+1,5ln3.$

25) $f(x)=sin2x,\ x_1=\frac{p}{6},\ x_2=\frac{p}{4}vay=0$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklni yuzasini toping.

Yechish: $S=\int_{\frac{p}{6}}^{\frac{p}{4}}sin2xdx=\frac{1}{2}\int_{\frac{p}{6}}^{\frac{p}{4}}sin2xd(2x)=-\frac{1}{2}\left[\cos\left(2\cdot\frac{p}{4}\right)-\cos\left(2\cdot\frac{p}{6}\right)\right]=\frac{1}{4}.$

26) $f(x)=2^x,\ x_1=-1,$ va $y=8$ chiziqlar bilan chegaralangan shaklni yuzasini toping.

Yechish: *Berilganlardan foydalanib, ularning chizmasini chizamiz: Talab qilina-yotgan yuza ABC egri chiziqli uchburchakni yuzi. Buning uchun BCDE to‘rtburchakni yuzidan ACDE egri chiziqli trapetsiyani yuzini olish kerak.*

$S_{ABC} = S_{BCDE} - S_{ABDE} \quad S_{BCDE} = 4 \cdot 8 = 32.$

$S_{ABC} = 32 - \int_{-1}^{3} 2^x dx = 32 - \frac{2^x}{ln2} \Big/_{-1}^{3} = 32 - \frac{2^3}{ln2} + \frac{2^{-1}}{ln2} = 32 - \frac{8}{ln2} + \frac{\frac{1}{2}}{ln2} = 32 -$
$- \frac{15}{2ln2} = 32 - \frac{15}{ln4}$



27) $f(x) = \sqrt{3-x}$, $x_1 = 1$, $x_2 = 2$ va $y = 0$ chiziqlar bilan chegaralangan shakl-ni absissa o‘qi atrofida aylantirishdan hosil bo‘lgan jismni hajmini toping..

Yechish: $V = \text{p} \int_1^2 (3-x)dx = \text{p} \left[\left(3 \cdot 2 - \frac{2^2}{2}\right) - (3 \cdot 1 - \frac{1^2}{2}) \right] = \frac{3\text{p}}{2}.$

8. TO‘PLAMLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK MANTIQ ELEMENTLARI

8.1. To‘plam haqida tushuncha.

To‘plam tushunchasi matematikaning boshlang‘inch (tariflanmaydigan) tushuncha-laridan biridir. U chekli yoki cheksiz ko‘p obyektlar (narsalar, buyumlar, shaxslar va h.k.) ni birgalikda bir butun deb qarash natijasida vujudga keladi.

To‘plamni tashkil etgan obyektlar uning *elementlari* deyiladi.

To‘plamlar o‘latda lotin alifbosining bosh harflari bilan, uning elementlari esa shu alifboning kichik harflari bilan belgilanadi. Masalan, $A = \{a, b, c, d\}$ yozuvida A to‘p-lam, a, b, c, d lar esa uning elementlari hisoblanadi.

x elementning X to‘plamga tegishli ekanligi $x \in X$ ko‘rinishda, tegishli emasligi esa $x \notin X$ ko‘rinishda belgilanadi.

Sonli to‘plam deyilganda, barcha elementlari sonlardan tashkil topgan har qanday to‘plam tushuniladi. Bunda N – natural sonlar to‘plami, Z - butun sonlar to‘plami, Q – rat-sional sonlar to‘plami, R-haqiqiy sonlar to‘plami deb qabul qilingan.

Elementlar soniga bog‘liq holda to‘plamlar *chekli* va *chekziz* to‘plamlarga ajraladi.

1-misol. $A = \{x | x \in N, x^2 > 5\}$ to'plam 2 dan katta bo'lgan barcha natural sonlardan tuzilgan, ya'ni $A = \{3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 \dots\}$. Bu to'plam cheksiz to'plamdir.

Birorta ham elementga ega bo'lmagan to'plam *bo'sh to'plam* deyiladi va u $\emptyset$ orqali belgilanadi. Bush toplam ham chekli toplam hisoblanadi.

2-misol. $x^2 + 4x - 5 = 0$ tenglamaning ildizlari $x_1 = -5$ va $x_2 = 1$ bo'lgani uchun chekli to'plamni tashkil etadiu. $x^2 + 2x + 3 = 0$ tenglama ildizlari haqiqiy emas, ya'ni uning haqiqiy yechimlar to'plami $\emptyset$ dir.

Ayni bir xil elementlardan tuzilgan to'plamlar *teng to'plamlar* deyiladi.

3-misol. $X = \{x | x \in N, x \leq 3\}$va $Y = \{x | (x-1)(x-2)(x-3) = 0\}$ to'plamlarning har biri faqat 1, 2, 3 sonlardan tuzilgan. Shuning uchun bu to'plamlar teng, ya'ni $X = Y$.

Agar B to'plamning har bir elementi A to'plamning har bir elementi bolsa, B to'plam A to'plamning *qism – to'plami* deyladi va $B \subset A$ ko'rinishda belgilanadi.

Bunda $\emptyset \subset A$ va $A \subset A$ hisoblanadi. Bu qism to'plamlar *xosmas qism-to'plamlar* deyladi. A to'plamning qolgan barcha qism-to'plamlari *xos qism-to'plamlar* deyladi. Masalan: $N \subset Z \subset Q \subset R$.

Agar $A = \{3, 4, 5\}$, $B = \{x | x^2 - 7x + 12 = 0\}$ bo'lsa, $B \subset A$ yoki $A \subset B$ bo'ladi.

4-misol. $A = \{1, 2, 3, 4\}$ va $B = \left\{1, \frac{4}{2}, \sqrt{9}, 2^2\right\} = \{1, 2, 3, 4\}$.

Bundan ko'rinadiki, $B \subset A$ yoki $A \subset B$ bo'ladi.

8.2. Toplamlar ustida amallar.

A va B to'plamlarning ikkalasida ham mavjud bo'lgan x elementga shu toplamning *umumiy* elementi deyiladi. A va B to'plamlarning *kesishmasi* (yoki *ko'paytmasi*) deb, ularning barcha umumiy elementlar idan tuzilgan to'plamga aytiladi.

A va B to'plamlarning kesishmasi $A \cap B$ ko'rinishda belgilanadi. $A \cap B = \{x | x \in A \text{ va } x \in B\}$.

8.1-rasmda Eyler-Venn diagrammasi nomi bilan atalgan chizmada A va B shakillarning kesishmasi $A \cap B$ ni beradi (chizmada shtrixlanib ko'rsatilgan).



8.1-rasm.

A va B to'plamlarning *birlashmasi* (yoki *yig'indisi*) deb, ularning kamida bittasi mavjud bo'lgan barcha elementlardan tuzilgan to'plamga aytiladi.

A va B to'plamlarning birlashmasi $A \cup B$ ko'rinishda belgilanadi. $A \cup B = \{x | x \in A \text{ va } x \in B\}$ (8.2-rasmga qarang).



8.2-rasm.

A va B to'plamlarning *ayirmasi* deb, A to'plamning B to'plada mavjud bo'lmagan barcha elementlaridan tuzilgan to'plamga aytiladi.

A va B to'plamlarning ayirmasi $A \setminus B$ ko'rinishda belgilanadi. $A \setminus B = \{x | x \in A \text{ va } x \notin B\}$ (8.3-rasmga qarang).





8.3-rasm.

1-misol. $A = \{a, b, c, d, e, f\}$ va $B = \{ b, d, e, g, h\}$ to‘plamlar berilgan. Ularning kesishmasi, birlashmasini tuzamiz va Eyler-Venn diagrammasida talqin etamiz. b, d, e elementlari A va B to‘plamlar uchun umumiy, shunga ko‘ra $A \cap B = \{b, d, e\}$. Bu to‘plamlarning birlashmasi esa $A \cup B = \{a, b, c, d, e, f, g, h\}$ dan iborat bo‘ladi (8.4a-rasm).





8.4-rasm.

2-misol. $A = \{x| -\frac{2}{3} \leq x \leq \frac{7}{4}\}$ va $B = \{x| -\frac{1}{4} \leq x \leq 2\}$ to‘plamlarning kesishmasi, birlashmasi va ayirmasini toping. Buning uchun sonlar o‘qida $-\frac{2}{3}, -\frac{1}{4}, \frac{7}{4}, 2$ nuqtalarni belgilaymiz (7.4b-rasm).

$$A \cap B = \left\{x| -\frac{1}{4} \leq x \leq \frac{7}{4}\right\},\quad A \cup B = \{x| -\frac{2}{3} \leq x \leq 2\} \text{ va}$$

$$A \setminus B = \{x| -\frac{2}{3} \leq x \leq -\frac{1}{4}\}.$$

8.3. Toplam elementlarining soni bilan bog‘liq ayrim masalalar.

Toplamlar nazariyasining muhim qoidalaridan biri-jamlash qoidasidir. Bu qoida kesishmaydigan to‘plamlar birlashmasidagi elementlar sonini toppish imkonini beradi.

1-teorema (jamlash qoidasi). ***Kesishmaydigan A va B chekli to‘plamlarning (8.5a-rasm) birlashmasidagi elementlar soni A va B to‘plamlar elementlari sonining yig‘indisiga teng.*** $n(A \cup B) = n(A) + n(B)$.





8.5-rasm.

2-teorema. ***Ixtiyoriy A va B chekli to'plamlar uchun ushbi tenglik o'rinli (8.5b-rasm).***

$$n(A\cup B)=n(A)+n(B)-n(A\cap B) \qquad (8.1)$$

1-masala. 120 kishidan iborat sayyohlarning 80 tasi ingliz tilini, 55 tasi fransuz tilini, 33 tasi ikkala tilni ham bilmaydi. Sayyohlar ichida mecha kishi ingliz va fransuz tillarini umuman bilmaydi.

Yechish: *Ingliz tilini biladigan sayyohlar toplamini A bilan, fransuz tilini biladigan sayyohlar to'plamini B bilan belgilaymiz. U holda ham ingliz, ham fransuz tilini biladigan sayyohlar to'plami* $A\cap B$ *dan, shu ikki tildan hech bo'lmasa bittasini biladigan sayyohlar to'plam esa* $A\cup B$ *bo'ladi.* (*8.1*) *formuladan foydalanib, sayyohlarning hech bo'lmaganda ingliz yoki fransuz tillaridan bittasini biladiganladini topamiz:*

Shartga ko'ra, $n(A)=80,\ n(B)=55, n(A\cap B)=33.$

$n(A\cup B)=80+55-33=102$

Ikkala tilni ham bilmaydigan sayyohlarning soni $120-102=18$ *kishi ekan.*

9. KOMPLEKS SONLAR VA ULAR USTIDA AMALLAR

Kompleks sonlarni tushuntirish uchun bir misolni ko'rib chiqamiz: $x^2+9=0$. Bu tenglamaning ildizlari haqiqiy son emas.

Bunday holatdan qutilish uchun uni ildizlarini $x_1=-2\sqrt{-1}$ va $x_1=2\sqrt{-1}$ deb qarash zarurati paydo bo'ladi. $\sqrt{-1}$ soni hech qanday real kattalikning olchamini yoki o'zgarishini ifodalamaydi. Shu sababli uni *mavhum* (xayoliy, haqiqatda mavjud bo'lmagan) *birlik* deb atash va maxsus belgilash qabul qilingan: $\sqrt{-1}=i$. Mavhum birlik uchun $i^2=-1$ tenglik o'rinli bo'ladi.

$a+bi$ ko'rinishdagi ifodani ko'rib chiqamiz. Buyerda a va b lar istalgan haqiqiy sonlar, i esa mavhum birlik. $a+bi$ ifoda *haqiqiy* son a va *mavhum* son bi lar «kompleksi» dan iborat bo'lgani uchun uni kompleks son deb atash qabul qilingan.

Kompleks sonlarni bitta harf bilan belgilash qulay. Masalan, $z=a+bi$ kompleks sonning *haqiqiy* qismi a ni $Re(z)$ (fransuzcha reelehaqiqiy) bilan, *mavhum* qismi b ni esa $Im(z)$ (fransuzcha imaginaire-mavhum) bilan belgilash qabul qilingan.

1-misol. $z_1=2+5i$; $z_2=3-2i$; $z_3=3{,}5$; $z_4=7i$. kompleks sonlarning haqiqiy va mavhum qismlarini toping.

Yechish: $Re(z_1)=2$; $Re(z_2)=3$; $Re(z_3)=3{,}5$; $Re(z_4)=0$.

$Im(z_1)=5$; $Im(z_2)=-2$; $Im(z_3)=0$; $Im(z_4)=7$.

Kompleks sonlar ustida arifmetik amallar quyidagicha aniqlanadi:

$$(a+bi)+(c+di)=(a+c)+(b+d)i; \qquad (9.1)$$

$$(a+bi)-(c+di)=(a-c)+(b-d)i; \qquad (9.2)$$

$$(a+bi)\cdot(c+di)=(ac-bd)+(ad+bc)i; \qquad (9.3)$$

$$\frac{a+bi}{c+di}=\frac{(a+bi)(c-di)}{(c+di)(c-di)}=\frac{ac+bd-(ab-bc)i}{c^2+d^2} \qquad (9.4)$$

2-misol. $(4+3i)\cdot\left(\frac{3}{5}-2i\right)=4\cdot\frac{3}{5}-2\cdot 4i+3i\cdot\frac{3}{5}-2i\cdot 3i=$

$$=\frac{12}{5}-8i+\frac{9}{5}i-6i^2=\frac{42}{5}-\frac{31}{5}i.$$

3-misol. $\frac{3-i}{-4+3i}=\frac{(3-i)(-4-3i)}{(-4+3i)(-4-3i)}=\frac{-12-9i+4i+3i^2}{(-4)^2+(3)^2}=\frac{-15-5i}{16+9}=\frac{-3-i}{5}=$
$=-\frac{3}{5}-\frac{i}{5}$.

10. KOMBINATORIKA ELEMENTLARI.

Turli diskret ob’ektlar to‘plamini turlicha joylashtirish, ular ichidan ixtiyoriy bir nechtasini takroriy, takrorsiz yoki hammasini turli usullar bilan tanlash va tanlash usullari sonini matematikaning ***kombinatorika*** bo‘limi o‘rgatadi.

10.1. Elementlari takrorlanmaydigan to‘plamni tanlash.

1-qoida. *n* ta elementdan tuzilgan elementlari takrorlanmaydigan to‘plamni ***takrorsiz o‘rin almashtirish*** deb, *n* ta elementidan tashlil topgan va faqat elementlarining joylashuvi bilan farq qiluvchi to‘plamlarga aytiladi.

Bunda takrorsiz o‘rin almashtirishlar soni P_n (fransuzcha *permutation* - o‘rin almash-tirish) quyidagicha topiladi:

$$P_n = n! \qquad (10.1)$$

1-misol. 4 ta detalni 4 ta qutiga necha xil tartibda joylashtirish mumkin?

<u>Yechish:</u> *Shartga asosan* $n = 4$ *ga tengligini hisobga olgan holda* (10.1) *formuladan foydalanamiz:* $P_4 = 4! = 1\cdot2\cdot3\cdot4 = 24.$

2-misol. 1, 2, 3, 4, 5 raqamlarini o‘rin almashtirish orqali nechta besh xonali son hosil qilish mumkin?

<u>Yechish:</u> *Shartga asosan* $n = 5$ *ga tengligini hisobga olgan holda* (10.1) *formuladan foydalanamiz:* $P_5 = 5! = 1\cdot2\cdot3\cdot4\cdot5 = 120.$ *Demak berilgan raqamlar yordamida* 120 *ta raqamlari almashgan besh xonali son hosil qilqsh mumkin ekan.*

2-qoida. *n* ta elementdan tuzilgan elementlari takrorlanmaydigan to‘plamni *m* tadan tanlab ***o‘rinalmashtirish*** deb, *n* ta element ichidan tanlab olingan *m* ta shunday elementga aytiladiki, ular bir-biridan elementlar tarkibi yoki tarkibdagi elementlar joylashuvi bilan farq qiladi. Bunday o‘rinalmashtirishlar soni quyidagi formula orqali topiladi:

$$A_n^m = n\cdot(n-1)\cdot(n-2)\cdot\ldots\cdot\big(n-(m-1)\big) = \frac{n!}{(n-m)!} \qquad (10.2)$$

3-misol. 1, 2, 4, 6 raqamlardan ixtiyoriy ikkitasini tanlab, nechta ikki xonali son hosil qilish mumkin?

<u>Yechish:</u> *Shartga asosan* $n = 4$ *ga va* $m = 2$ *tengligini hisobga olgan holda* (10.2) *formuladan foydalanamiz:* $A_4^2 = \frac{4!}{(4-2)!} = \frac{1\cdot2\cdot3\cdot4}{1\cdot2} = 12.$ *Demak berilgan raqamlar yordamida* 12 *ta ikki xonali son hosil qilqsh mumkin ekan. Bular 12, 14, 16, 21, 24 va h.k.*

4-misol. O‘zbek, ingliz, fransuz, nemis, rus va arab tillariningbiridan ikkinchisiga tarjima qila oladigan nechta lug‘at kitoblarini tuzish mumkin.

<u>Yechish:</u> *Umumiy tillar soni* $n = 6$ *ta, iug‘at kitobi uchun tanlanadigan tillar* $m = 2$ *ta.* $A_6^2 = \frac{6!}{(6-2)!} = \frac{4!\cdot5\cdot6}{4!} = 30.$

3-qoida. *n* ta elementdan tuzilgan elementlari takrorlanmaydigan to‘plamni *m* tadan tanlab ***takrorsiz kombinatsiyalar tuzish*** deb, *n* ta element ichidan tanlab olingan *m* ta shunday elementga aytiladiki, ular bir-biridan faqat elementlar tarkibi bilan farq qiladi. Bunda takrorsiz kombinatsiyalar soni quyidagi formula orqali topiladi:

$$C_n^m = \frac{n!}{m!(n-m)!}. \qquad (10.3)$$

5-misol. Yashikda 17 ta har xil detal bor. Ulardan har biri 6 tadan iborat necha xil detallar to‘plamini hosil qilish mumkin?

Yechish: *Har xil detallar soni* $n = 17$ *ta, har biri* $m = 6$ *tadan iborat bo‘lgan detall.*

$$C_{17}^6 = \frac{17!}{6!(17-6)!} = \frac{11!\cdot 12\cdot 13\cdot 14\cdot 15\cdot 16\cdot 17}{6!\cdot 11!} = \frac{12\cdot 13\cdot 14\cdot 15\cdot 16\cdot 17}{1\cdot 2\cdot 3\cdot 4\cdot 5\cdot 6} = 12376.$$

10.2. Elementlari takrorlanadigan to‘plamni tanlash.

1-qoida. 1-elementi m_1 marta, 2-elementi m_2 marta, 3-elementi m_3 marta, …, k-elementi m_k marta takrorlanadigan va jami elementlar soni $m_1 + m_2 + m_3 + \cdots + m_k$ bo‘lgan to‘plamga ***elementlari takrorlanadigan to‘plam*** deyiladi. Bunda takrorli o‘rin almashtirishlar soni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_{m_1,m_2,m_3,\dots m_k} = \frac{(m_1+m_2+m_3+\cdots+m_k)!}{m_1!\cdot m_2!\cdot m_3!\dots m_k!} \qquad (10.4)$$

1-misol. «matematika» so‘zidagi harflarni o‘rnini almashtirib, nechta so‘z hosil qilish mumkin?

Yechish: *«matematika» so‘zida* ***m*** *harfi ikki marta* $(m_1 = 2)$ *,**a** arfi uch marta* $(m_2 = 3)$, ***t*** *harfi ikki marta* $(m_3 = 2)$, ***e*** *harfi bir marta* $(m_4 = 1)$, ***i*** *harfi bir marta* $(m_5 = 1)$ *va* ***k*** *harfi bir marta* $(m_6 = 1)$. *Bularni (9.4) formulaga qo‘yamiz:*

$$P_{2,3,2,1,1,1.} = \frac{(2+3+2+1+1+1)!}{2!\cdot 3!\cdot 2!\cdot 1!\cdot 1!\cdot 1!} = \frac{10!}{2!\cdot 3!\cdot 2!} = \frac{1\cdot 2\cdot 3\cdot 4\cdot 5\cdot 6\cdot 7\cdot 8\cdot 9\cdot 10}{1\cdot 2\cdot 1\cdot 2\cdot 3\cdot 1\cdot 2\cdot 1\cdot 2} = 151200.$$

2-qoida. *n* ta elementdan tuzilgan elementlari takrorlanmaydigan to‘plamni *m* tadan tanlab ***takrorli o‘rinalmashtirish*** deb, *n* ta element ichidan uning har bir elementini bir marta yoki bir necha marta tanlab *m* ta shunday element hosil qilishga aytiladiki, ular bir-biridan elementlar tarkibi yoki tarkibidagi elementlar joylashuvi bilan farq qiladi. Bunda o‘rin almashtirishlar soni quyidagi formula orqali topiladi:

$$\bar{A}_n^m = n^m. \qquad (10.5)$$

2-misol. 1, 3, 4, 6 raqamlaridan foydalanib, nechta ikki xonali son hosil qilish mumkin?

Yechish: $n = 4$, *va* $m = 2$ *ekanligini bilgan holda ikki xonali sonlarning sonini (10.5) formuladan foydalanib aniqlaymiz:* $\bar{A}_4^2 = 4^2 = 16$. *Bu sonlar* 11, 22, 33, 44, 13, 31, 14, 41, 16, 61, 34, 43, 36, 63, 46, 64 *jami* 16 *tita.*

3-qoida. *n* ta elementdan tuzilgan elementlari takrorlanmaydigan to‘plamni *m* tadan tanlab ***takrorli kombinatsiyalar tuzish*** deb, *n* ta element ichidan uning har bir elementini bir marta yoki bir necha marta tanlab *m* ta shunday element hosil qilishga aytiladiki, ular bir-biridan faqat elementlar tarkibi bilan farq qiladi. Bunda takroriy kombinatsiyalar soni quyidagi formula orqali topiladi:

$$\bar{C}_n^m = C_{m+n-1}^m = \frac{(m+n-1)!}{m!\cdot(n-1)!} \qquad (10.6)$$

3-misol. Archa bayramida bolalarga sovg‘a tyyorlash uchun 6 xil meva tanlandi. Bu mevalardan 9 ta mevadan iborat bo‘lgan necha xil sovg»a tyyorlash mumkin.

Yechish: $n = 6$, *va* $m = 9$ *ekanligini bilgan holda necha xil sovg‘a tayyorlashni aniqlash uchun (10.6) formuladan foydalanib aniqlaymiz:*

$$\bar{C}_6^9 = C_{9+6-1}^9 = \frac{(9+6-1)!}{9!\cdot(6-1)!} = \frac{14!}{9!\cdot 5!} = \frac{9!\cdot 10\cdot 11\cdot 12\cdot 13\cdot 14}{9!\cdot 1\cdot 2\cdot 3\cdot 4\cdot 5} = \frac{10\cdot 11\cdot 12\cdot 13\cdot 14}{1\cdot 2\cdot 3\cdot 4\cdot 5} = 2002.$$

11. EHTIMOLLIK NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKA ELEMENTLARI

Matematikaning tasodifiy holisalarni o‘rganadigan bo‘limi ***ehtimollik nazariyasi*** deb ataladi. Bu nazariya yetarlicha ko‘p sonli sinashlar natijasi, ya’ni ommaviy tasodifiy hodisalarning qonuniyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Ehtimollar nazariyasida hodisalar uch turga ajratiladi: ***muqarrar***, ***ro‘y bermaydigan*** va ***tasodifiy*** hodisalar.

A hodisaning ehtimoli deb, bu hodisa ro‘y berishiga qulaylik tugdiruvchi elementlar natijalari sonining tajribaning yagona mumkin bo‘lgan va teng imkoniyatli elementlar natijalari jami soniga bo‘lgan nisbatiga aytiladi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P(A) = \frac{m}{n} \qquad (11.1)$$

bu yerda $P(A)$ - *A* hodisaning ehtimoli, *m*-tajribaning yagona mumkin bo‘lgan va teng imloniyatli elementlar natijalarining jami soni, *n*-elementlar natijalarii soni.

1-misol. Idishda 20 ta yashil va 8 ta qizil sharchalar joylashgan. Undan tavakkaliga olingan qizil sharchalar bo‘lish ehtimolini toping.

Yechish: *Sarchalardan bittadan olish imkoniyati* $n = 28$ *ta, shundan qizil chiqa-digan sharchalar* $n = 8$ *ta. Tanlangan qizil sharchalarning chiqish ehtimolini (11.1) formula orqali aniqlanadi:* $P(A) = \frac{8}{28} = \frac{2}{7}$

2-misol. Tavakkaliga 30 dan katta bo‘lmagan natural son tanlanganda uning 3 ga karrali bolish ehtimolini toping.

Yechish: 30 *dan katta bo‘lmagan sonlardan* 3 *ga karralisi* 9 *ta: Bular* 3, 6, 9, 12, 15, 18, 21, 24, 27. *Demak* $n = 30$ *ta,* $n = 9$ *ta. (11.1) formulaga asosan:*

$$P(A) = \frac{9}{30} = \frac{3}{10} = 0{,}3.$$

3-misol. Idishda 120 ta lampochka bo‘lib, ularning 12 tasi yaroqsiz. Tavakkaliga 6 ta lampochka olindi. Olingan lampochkalar ichida yaroqsizi yoq bolish ehtilolini toping.

Yechish: 120 *ta lampochkadan* 6 *tasini tanlashdagi kombinatsiyalar jami soni* C_{120}^6 . 100 *ta yaroqli lampochkadan* 6 *ta yaroqli lampochkani olishimiz kerak, bunday tanlash soni* C_{100}^6 *.Olingan lapochkalar ichida yaroqsizi yo‘q bo‘lish ehtimoli quyidagi formula orqali aniqlanadi:*

$$P(A) = \frac{m}{n} = \frac{C_{100}^6}{C_{120}^6} = \frac{\frac{100!}{6!\cdot(100-6)!}}{\frac{120!}{6!\cdot(120-6)!}} = \frac{\frac{100!}{6!\cdot(100-6)!}}{\frac{120!}{6!\cdot(120-6)!}} = \frac{\frac{100!}{94!}}{\frac{120!}{114!}} =$$

$$= \frac{\frac{94!\cdot 95\cdot 96\cdot 97\cdot 98\cdot 99\cdot 100}{94!}}{\frac{114!\cdot 115\cdot 116\cdot 117\cdot 118\cdot 119\cdot 120}{114!}} = \frac{95\cdot 96\cdot 97\cdot 98\cdot 99\cdot 100}{15\cdot 116\cdot 117\cdot 118\cdot 119\cdot 120} \approx 0{,}3.$$

11.1. Ehtimollarni qo‘shish va ko‘paytirish qoidalari.

Ikkita birgalikda bo‘lmagan hodisadan istalgan birining ro‘y berish ehtimoli bu hodisalar ehtimollarining yig‘indisiga teng boladi:

$$P(A+B) = P(A) + P(B). \qquad (11.2)$$

1-misol. Yashikda 12 ta ko‘k va 10 ta sariq sharchalar bor. Tavakkaliga 2 ta sharcha olindi. Olingan ikkita sharchaning bir xil rangli bo‘lish ehtimolini toping.

Yechish: *A hodisa olingan ikkala sharchaning ko‘k bo‘lish, B hodisa esa olingan ikkala sharchaning sariq bo‘lish hodisasi bo‘lsin. A hodisaning ro‘y berishiga* C_{12}^2 *ta natija imkoniyat yaratadi. B hodisaning ro‘y berishiga* C_{10}^2 *ta natija imkoniyat yaratadi.*

Olingan ikkita sharchaning bir xil rangli bo‘lish ehtimolini (11.2) formula orqali aniqlaymiz:

$$P(A+B) = \frac{C_{12}^2}{C_{22}^2} + \frac{C_{10}^2}{C_{22}^2} = \frac{C_{12}^2 + C_{10}^2}{C_{22}^2} = \frac{\frac{11\cdot 12}{2} + \frac{9\cdot 10}{2}}{\frac{21\cdot 22}{2}} = 0{,}48.$$

Bir nechta erkli hodisalarning birgalikda ro‘y berish ehtimoli, bu hodisalar ehtimollari ko‘paytmasiga temg.

$$P(A_1A_2A_3 \dots A_n) = P(A_1)\cdot P(A_2)\cdot P(A_3)\cdot P(A_4)\cdot \dots \cdot P(A_n) \qquad (11.3)$$

Birgalikda bogliq bolmagan $A_1, A_2, A_3, \dots, A_n$hodisalardan kamida bittasining ro‘y berishidan iborat A hodisaning ehtimoli 1dan $\bar{A}_1, \bar{A}_2, \bar{A}_3, \dots, \bar{A}_n$ qarama-qarshi hodisalar ehtimollari ko‘paytmasining ayirmasiga teng:

$$P(A) = 1 - P(\bar{A}_1)\cdot P(\bar{A}_2)\cdot P(\bar{A}_3)\cdot \dots \cdot P(\bar{A}_n) \qquad (11.4)$$

2-misol. Uchta ovchi bir vaqtda va bir-birlaridan mustaqil ravishda bir quyonga qarab faqat bittadan o‘q uzishgan. Agar ovchilardan aqalli bittasi quyonga o‘q tekkizgan bo‘lsa, quyon otilgan bo‘ladi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi ovchilarning quyonga o‘q tekkizish ehtimolliklari mos ravishda 0,4; 0,7; 0,8 ga teng. Quyonning otilish ehtimolini toping.

Yechish:

1) Birinchi ovchining quyonga o‘q tekkizish ehtimoli $P(A_1) = 0{,}4$; *o‘q tekkiza olmaslik ehtimoli* $P(\bar{A}_1) = 1 - P(A_1) = 1 - 0{,}4 = 0{,}6$.

2) Ikkinchi ovchining quyonga o‘q tekkizish ehtimoli $P(A_2) = 0{,}7$; *o‘q tekkiza olmaslik ehtimoli* $P(\bar{A}_2) = 1 - P(A_2) = 1 - 0{,}7 = 0{,}3$.

3) Uchinchi ovchining quyonga o‘q tekkizish ehtimoli $P(A_3) = 0{,}8$; *o‘q tekkiza olmaslik ehtimoli* $P(\bar{A}_3) = 1 - P(A_3) = 1 - 0{,}8 = 0{,}2$.

4) Kamida ovchilardan birining quyonga o‘q tekkizish ehtimoli ya’ni quyonning otilish ehtimolini (11.4) formula orqali aniqlash mumkin:

$$P(A) = 1 - P(\bar{A}_1)\cdot P(\bar{A}_2)\cdot P(\bar{A}_3) = 1 - 0{,}6\cdot 0{,}3\cdot 0{,}2 = 0{,}964.$$

11.2. Shartli ehtimollik.

Agar ikkita A va B hodisalardan birining ro‘y berishi ikkinchisining ro‘y berish yoki bermasligiga bog‘loq bo‘lmasa, bunday hodisalar *o‘zaro bog‘liq emas* deyiladi.

Aks holda ular *o‘zaro bog‘liq* deyiladi.

$P(A/B)$ *sartli ehtimollik* deb, B hodisa ro‘y berganligi aniq bo‘lganligida A hodisa ro‘y berish ehtimolligiga aytiladi: $P(A/B) = \frac{P(AB)}{P(B)}$ (11.5)

Agar A va B hodisalar ozaro bog‘liq bo‘lmasa, u holda

$P(A/B) = P(A)$ va $P(B/A) = P(B)$ tengliklar bajariladi.

Ba’zan A hodisaning ehtimolini B hodisa ro‘y bergandan so‘ng hisoblashga to‘g‘ri keladi.

A hodisaning B hodisa ro‘y berganligi shartida hisoblangan ehtimolga shartli ehtimol deyiladi va $P_B(A)$ yoki $P_B(A/B)$ kabi belgilanadi.

Ikkita bog‘liq hodisalarning birgalikda ro‘y berishi ehtimoli ulardan birining ehtimolini ikkinchisining shartli ehtimoliga ko‘paytmasiga teng:

$$P(AB) = P(A) \cdot P(B/A) = P(B) \cdot P(A/B) \quad (11.6)$$

1-misol. Firma 2 ta yirik A va B korxonalardan 2 ta buyurtma olishga harakat qilmoqda. Ekspertlarning xulosasiga ko‘ra, A korxonadan buyurtma olish ehtimoli 0,8 ga teng. Agar firma A korxonadan buyurtma olsa, u holda B korxonadan ham buyurtma olish ehtimoli 0,92 ga teng bo‘ladi. Firmaning ikkala buyurtmadan olish ehtimolini toping.

<u>Yechish:</u> *Shartga ko‘ra* $P(A) = 0{,}8$ *va* $P(B/A) = 0{,}92$; *ekanligini bilgan holda firmaning ikkala buyurtmadan olish ehtimolini (11.6) formuladan topamiz:*

$$P(AB) = P(A) \cdot P(B/A) = P(B) \cdot P(A/B) = 0{,}8 \cdot 0{,}92 = 0{,}736.$$

11.3. To‘la ehtimol va Bayes formulasi.

$H_1, H_2, H_3, \dots, H_n$ hodisalar to‘la guruhni tashkil qilsin, ya’ni sinov natijasida ularning faqat bittasi ro‘y berishi mumkin va ular birgalikda emas. A hodisa ana shu hodisalardan bittasi ro‘y bergandagina ro‘y berishi mumkin bo‘lsin. $H_1, H_2, H_3, \dots, H_n$ hodisalarning qaysi biri ro‘y berishi oldindan ma’lum bo‘lmagani uchun ular ***gipotezalar*** deb ataladi.

A hodisa ro‘y berishi ehtimoli *to‘la ehtimollik* deyiladi va u quyidagi fopmula orqali aniqlanadi: $P(A) = \sum_{i=1}^{n} P(H_i) \cdot P(A/H_i)$ (11.7)

1-misol. Kelasi yilda mamlakat iqtiso‘liyoti ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lsa, ma’lum bir kompaniya aksiyalari narxining oshish ehtimoli 0,86 ga, past bo‘lsa oshish ehtimoli 0,25 ga teng ekan. Shu bilan birga kelasi yilda mamlakat iqtiso‘liyoti ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lish ehtimoli 0,8 ga teng ekan. Kelasi yilda kompaniya aksiyalari narxining oshish ehtimolini toping.

<u>Yechish:</u> *Shartga ko‘ra* $P(H_1) = 0{,}8$ *va* $P(H_2) = 1 - P(H_1) = 1 - 0{,}8 = 0{,}2$; $P(A/H_1) = 0{,}86$ *va* $P(A/H_2) = 0{,}2$ *ekanligini bilgan holda kelasi yilda kompaniya aksiyalari narxining oshish ehtimolini (11.7) formuladan topamiz:*

$$P(A) = P(H_1) \cdot P(A/H_1) + P(H_2) \cdot P(A/H_2) = 0{,}8 \cdot 0{,}86 + 0{,}2 \cdot 0{,}2 = 0{,}729.$$

B’zan, A hodisa ro‘y bergani ma’lum bo‘lgandan so‘ng H_k gipotezalarning $P(H_k/A)$ shartli ehtimolligini hisoblash zaruriyati tug‘iladi. Bu ehtimolliklar **Bayes** formulasidan aniqlanadi: $(H_k/A) = \frac{P(H_i) \cdot P(A/H_i)}{P(A)} = \frac{P(H_i) \cdot P(A/H_i)}{\sum_{i=1}^{n} P(H_i) \cdot P(A/H_i)}$ (11.8)

2-misol. Yuqori iqtiso‘liy o‘sish davrida Amerika dollori kursning o‘sish ehtimolligi 0,8; ortacha o‘sish davrida 0,5; past ko‘rsatkichli o‘sish davri esa 0,3 ga teng. Iqtiso‘liy o‘sish davri ko‘rsatkichlari yuqori, o‘rtacha va past bo‘lishi ehtimolliklari mos ravishda 0,4; 0,6; 0,2 ga teng. Hozir dollorning narxi o'smoqda, u holda bu davr yuqori ko'rsat-kichli o'sish davri bo'lishi ehtimolligi qancha bo'ladi?

Yechish: *Shartga ko'ra* $P(H_1) = 0{,}4$; $P(H_2) = 0{,}6$; *va* $P(H_3) = 0{,}2$. *Shuningdek,* $P(A/H_1) = 0{,}8$, $P(A/H_2) = 0{,}5$ *va* $P(A/H_3) = 0{,}3$ *ekanligini bilgan holda talab qilinayotgan qymatni (11.8) formuladan topamiz:*

$$P(H_k/A) = \frac{P(H_1)\cdot P(A/H_1)}{P(H_1)\cdot P(A/H_1)+P(H_2)\cdot P(A/H_2)+P(H_3)\cdot P(A/H_3)} =$$

$$= \frac{0{,}4\cdot 0{,}8}{0{,}4\cdot 0{,}8+0{,}6\cdot 0{,}5+0{,}2\cdot 0{,}3} \approx 0{,}48.$$

11.4. Bernulli tenlamasi. Eng ehtimolli son.

Aytaykil, biror *A* hodisaning ketma-ket o'tkazilayotgan bog'liqsiz tajribalarning har birida ro'y berish ham, bermasligi ham mumkin bo'lsin. Har bir tajribada *A* hodisaning ro'y berish ehtimolligi p ga teng va bu ehtimollik tajriba nomeriga bog'liq bo'lmagan o'zgarmas son.

Tabiiyki, har bir tajriba uchun *A* hodisaning ro'y berimaslik ehtimoli $q = 1 - p$ ga teng.

Yuqoridagi shartlarni qnoatlqntiruvchi tajribalat ketma-ketligiga **Bernulli** sxemasi deyiladi. Bernulli sxemasi 2 ta parameter uchun *n*-tajribalar soni va *p*-har bir tajribada *A* hodisaning ro'y berish ehtimolligi bilan aniqlanadi.

Bernulli sxemasi *A* hodisaning *m* marta ro'y berish ehtimolligi quyidagi Bernulli formulasi deb nom olgan formula yordamida aniqlanadi:

$$P(m) = C_n^m \cdot p^m \cdot q^{n-m} = \frac{n!}{m!(n-m)!} \cdot p^m \cdot q^{n-m}. \qquad (11.9)$$

1-misol. Har bir otilgan o'qning nishonga tegish ehtimoli $\frac{3}{4}$ bo'lsin. Otilgan 20 ta o'qdan beshtasining nishonga tegish ehtimolini toping.

Yechish: *Shartga ko'ra* $n = 20$; $m = 5$; $p = \frac{3}{4}$; $q = 1 - p = 1 - \frac{3}{4} = \frac{1}{4}$ *ekanligini bilgan holda talab qilinayotgan qymatni (11.9) formuladan topamiz:*

$$P(5) = C_{20}^5 \cdot \left(\frac{3}{4}\right)^5 \cdot \left(\frac{1}{4}\right)^{15} = \frac{20!}{5!\cdot 15!}\cdot\frac{3^5}{4^5}\cdot\frac{1^5}{4^{15}} = \frac{15!\cdot 16\cdot 17\cdot 18\cdot 19\cdot 20}{1\cdot 2\cdot 3\cdot 4\cdot 5\cdot 15!}\cdot\frac{243}{4^{20}} \approx 0.0016.$$

12. MATRITSALAR VA DETERMINATLAR.

Matritsa deb, biror tartibda joylashtirilgan sonlarning to'g'ri to'rtburchak ko'rinishidagi jadvalga aytiladi. Bu sonlar shu matritsaning *elementlari* deyiladi. O'latda matritsalar qavs yoki ikkita vertical chiziq ichiga olib yoziladi. Masalan 20 dan kichik barcha tub sonlardan quyidagi matritsani tuzish mumkin:

$$\begin{pmatrix} 2 & 3 & 5 & 7 \\ 11 & 13 & 17 & 19 \end{pmatrix} \text{ yoki } \begin{vmatrix} 2 & 3 & 5 & 7 \\ 11 & 13 & 17 & 19 \end{vmatrix}$$

Bu matritsa 2 ta satr va 4 ta ustundan iborat bo'lganligi uchun 2×4 o'lchamli matritsa deyiladi.

Umuman *m* ta satr va *n* ta ustunli to'g'ri to'rtburchakli matritsa $m \times n$ *o'lchamli matritsa* deyiladi.

$n \times n$ o‘lchamli matritsa *kvadrat matritsa*, n son esa shu kvadrat matritsaning *tartibi* deyiladi.

Masalan bir xonali natural sonlardan tuzilgan 3×3 o‘lchamli matritsa *uchinchi tartibli kvadrat matritsa* deb ataladi:

$$\begin{pmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 4 & 5 & 6 \\ 7 & 8 & 9 \end{pmatrix}$$

Bir xonali juft natural sonlardan tuzilgan 2×2 o‘lchamli matritsa *ikkinchi tartibli kvadrat matritsa* deb ataladi:

$$\begin{pmatrix} 2 & 4 \\ 6 & 8 \end{pmatrix}$$

Matritsani umumiy holda yoziz uchun uning elementlari ikki indeksli biror harfdan, masalan, a_{ij} bilan belgilanadi; indeksdagi $i -$ satr nomerini; $j -$ ustun nomerini ko‘rsatadi.

Masalan 4×5 o‘lchamli matritsa umumiy holda quyidagicha yoziladi:

$$\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} & a_{14} & a_{15} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} & a_{24} & a_{25} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} & a_{34} & a_{35} \\ a_{41} & a_{42} & a_{43} & a_{44} & a_{45} \end{pmatrix}$$

Kvadrt matritsalar quyidagi xarakteristikalarga ko‘ra o‘zaro taqqoslanadi:

1) Aniqlovchisi yoki ***determinanti***. 2) Normasi. 3) Rangi.

Uchinchi tartibli determinant Δ lar Sarrks qoidasi yoki «Uchburchak usuli» bilan aniqlanadi.

Uchinchi tartibli determinant Δ ni Sarrks qoidasi yordamida aniqlash:

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} \begin{matrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \\ a_{31} & a_{32} \end{matrix} =$$

$$\begin{matrix} - & - & - & + & + & + \end{matrix}$$

$$= a_{11}a_{22}a_{33} + a_{12}a_{23}a_{31} + a_{13}a_{21}a_{32} - a_{13}a_{22}a_{31} - a_{11}a_{23}a_{32} - a_{12}a_{21}a_{33}. \quad (12.1)$$

Uchinchi tartibli determinant Δ ni «Uchburchak usuli» da aniqlash:

$$\Delta = +\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} =$$

$$= a_{11}a_{22}a_{33} + a_{12}a_{23}a_{31} + a_{13}a_{21}a_{32} - a_{13}a_{22}a_{31} - a_{11}a_{23}a_{32} - a_{12}a_{21}a_{33}. \quad (11.2)$$

Kvadrat matritsaning ***normasi*** deb, quyidagi N soniga aytiladi va u quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$N = \sqrt{\sum_{i=1}^{n} \cdot \sum_{j=1}^{n} \cdot a_{ij}^2} \quad (12.3)$$

